

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI fanidan

O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: - 100000 - Gumanitar

**Ta'lim sohasi: - 120000 - Gumanitar fanlar
110000 – Pedagogika fanlar
140000 – Tabiiy fanlar
130000 – Aniq fanlar**

**Ta'lim yo'nalishlari: - 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili)
5112000 – Jismoniy madaniyat**

Mazkur O‘UM ADU rektori tomonidan 2021-yil 31-avgustda tasdiqlangan
“Hozirgi o‘zbek adabiy tili“ fani o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: Rahimov U.E. - ADU, “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası
 dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar: Nabiyeva D . – ADU, “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası
 professori, filologiya fanlari doktori

 Zakirova H. – ADU, “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası
 dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

ADU o‘quv-uslubiy kengashining 2021-yil 30-avgustdagi 1-son yig‘ilishida
muhoqama qilinib, foydalanishga ruxsat berilgan

MUNDARIJA

I	O'quv materiallari		
	1.1.	Ma'ruzalar	
		1) Hozirgi o'zbek adabiy tilining maqsad va vazifalari.	5
		2) Fonetika va fonologiya	8
		3) O'zbek tili vokalizmi	11
		4) O'zbek tili konsonantizmi	15
		5) Segmentatsiya (nutqning fonet.bo'linishi).	19
		6) Sillabema (bo'g'in va uning bo'linishlari).	21
		7) Aksentuatsiya va intonatsiya Urg'u	23
		8) So'z tarkibidagi fonetik o'zgarishlar	26
		9) Orfoepiya. Orfografiya	31
		10) Leksikologiya kursiga kirish	33
		11) Leksemalarning semantik tarkibi	35
		12) Leksik ma'no taraqqiyoti	40
		13) O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti.	44
		14) Leksik-semantik guruhlar	46
		15) Leksemalarning ishlatilish doirasi	53
		16) O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressivlikka munosabati.Frazeologizmlar.	58
		17) Leksikografiya	62
	1.2.	Amaliy mashg'ulot	
		1) Hozirgi o'zbek adabiy tilining maqsad va vazifalari. Fonetika va fonologiya.	71
		2) O'zbek tili vokalizmi. O'zbek tili konsonantizmi	72
		3) Segmentatsiya, intonatsiya, sillabema.	73
		4) So'z tarkibidagi fonetik o'zgarishlar. Orfografiya va orfoepiya	74
		5) Nazariy leksikologiya. Leksikologiya kursiga kirish.	76
		6) Leksemaning semantik tarkibi. Leksik-semantik guruhlar	75
		7) Leksik ma'no taraqqiyoti.O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti.	78
		8) O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressivlikka munosabati. Leksikografiya.	79
	1.3.	Seminar mashg'ulotlari	
		1) O'zbek tili vokalizmi va konsonantizmi.	81
		2) Segmentatsiya (nutqning fonetik bo'linishi). Sillabema	82
		3) So'z tarkibidagi fonetik o'zgarishlar	83
		4) Leksikologiya kursiga kirish.	84
		5) Leksik mikrosistema	84

		6)	Leksikologiyada paradigmatic va sintagmatic munosabat	85
		7)	O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti.	85
		8)	Leksemani ishlatilish doirasi.	86
		9)	leksikografiya.	87
II	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari			
	2.1.	Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni va shakli		88
	2.2.	Mustaqil ta'lim uchun referat mavzulari		88
	2.3.	Mustaqil ta'lim topshiriqlari va kutilayotgan natijalar		89
	2.4.	Adabiyotlar ro'yxati		
III	Glossariy			
	3.1	O'zbekcha		91
	3.2	Ruscha		95
	3.3	Inglizcha		97
IV	Ilovalar			
	4.1.	Fan dasturi		
	4.2.	Ishchi fan dasturi		
	4.3.	Tarqatma materiallar		
	4.4.	Testlar		
	4.5.	Fan bo'yicha baholash mezonlari		
	4.6.	O'UM ning elektron varianti		

1-ma'ruza. Hozirgi o'zbek adabiy tilining maqsad va vazifalari.

Reja:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilining maqsad va vazifalari.
2. Adabiy til. Uning strukturasini va shakllanishi
3. Adabiy til me'yorlari
4. Fonetikaning predmeti va vazifalari.
5. Fonetika turlari.

Tayanch so'z va iboralar: *Fonetika, lingvistik sath, til bo'limlari, umumiy fonetika, tarixiy fonetika, qiyosiy fonetika, tavsifiy fonetika, eksperimental fonetika, shakl va mazmun, orfoepiya, leksika, grammatika, grafika, orfografiya, sheva, lahja, ichki manba, tashqi manba, yozma adabiy til, og'zaki adabiy til, adabiy til me'yorlari.*

Tilning o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi bir necha qatlamlardan iborat ekanligi haqidagi qarash o'zining uzoq tarixiga ega. Xususan, til tuzilishining an'anaviy tilshunoslikda uch qismga: (fonetik, leksik va grammatik qismlarga) bo'linishi va bu qismlarni o'rganadigan tilshunoslikning uchta bo'limining ajratilishi tilni ana shunday qatlamlar butunligi sifatida tushunishning yorqin namunasidir.¹

Lekin sistemaviy-struktur tilshunoslik shakllangunga qadar tilning bunday ichki tuzilishini qatlam sifatida tushunish amaliy kuzatishning ilk natijalari bo'lib, til stratifikasiyasi ilmiy jihatdan asoslanmagan edi.

XX asrning 50- yillaridan boshlab til sathi (lingvistik sath) tushunchasi maydonga keldi. Bu tushunchaning shakllanishi va ilmiy asoslanishida E.Benvenist hamda bir qator deskriptiv tilshunoslar, xususan, Dj. Treyjer, K.Poyk, CH.Xokket, Z.Xarris singari olimlarning xizmati katta bo'ldi.²

Lingvistik sath tushunchasining paydo bo'lishiga tilning ikki tomonlama mohiyat ekanligining e'tirofi etilishi, shakliy va mazmuniy tomonlarning har biri o'ziga xos ichki tuzilishga ega ekanligi, ularning har qaysisi o'z ichki uzvlari munosabatidan tashkil topgan kichik sistema ekanligi, shunday qilib, tilning tuzilishi sistemalar sistemasini tartibida bo'lishi, ular o'rtasidagi munosabat til mexanizmini harakatga keltirish haqidagi qarashlarning maydonga kelishi turtki bo'ldi.

Ontologik ma'noda til sathi deganda nima tushuniladi? Tilshunoslarning ko'pchiligi til sathi tushunchasini til birliklarining muayyan yig'indisi bilan bog'laydilar. Masalan, V.V.Lopatin va I.S.Uluxanovlar til sathlarini belgilashning tayanch nuqtasi sifatida til sistemasida ajratiladigan asosiy til birliklari bo'lishi, til sathi bilan til birliklarining muayyan yig'indisi o'rtasida muvofiqlik bo'lishi

¹ Решетов В.В. Узбекский язык. –Т., 1959.

² Зиндер Л.Р. Общая фонетика. –М.: Высшая школа, 1979.

lozimligini bayon qiladilar.³ Bunday qarashga muvofiq, til sistemasida muayyan til birligining ajratilishi, o'z-o'zidan, shu birlikka muvofiq keladigan til sathining ham ajratilishiga olib keladi. Ularning fikricha, fonemaning til birligi sifatida e'tirof etilishi fonologik sathning ajratilishiga sabab bo'lganidek, so'z yasalishi birligining ajratilishi so'z yasalish sathining ajratilishiga asos bo'ladi.

(E'tibor bering) Tilning ichki tuzilishini sathlarga ajratishda ana shunday boshboshdoqlikni bartaraf qilish uchun til birliklarining doimiy, barqaror sathlarini ajratishga imkon beradigan belgilariga tayanish lozim. Ana shunday belgi til birliklarining pog'onaviylik belgisidir. Xuddi ana shu belgi deskriptiv tilshunoslik vakillari tomonidan tilni sathlarga ajratishning asosiy belgisi sifatida e'tirof etilgan edi.

Kompozitsion kontseptsiyaga muvofiq, tilning ichki tuzilishi bir xil yo'nalishdagi pog'onalanishdan (ierarxiyadan) iborat. Bu shundan iboratki, fonema, morfema va undan katta birliklar o'rtasida bir xil yo'nalishdagi pog'onali munosabat mavjud. Quyi sath birligi yuqori sath birligi uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Quyi sath birligi yuqori sath birligi tarkibida uning tarkibiy qismi (konstituenti) sifatida vazifa bajaradi. Shuning uchun til sathlari o'rtasida quyidan yuqoriga yo'nalgan munosabat e'tirof etiladi va bu munosabat bir xil turdagi, konstituentiv munosabat sanaladi. Konstituentiv munosabat "...dan tashkil topadi", "...ga kiradi" sxemasini o'zida namoyon etadi.⁴

Fonetika – (gr. Phone - tovush) tilning keng ma'noda tovush tuzilishini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi. U tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni tekshiradi. Shu sababli unga tilning faqat tovush tizimini tekshiruvchi bo'lim sifatida qarash noto'g'ri.

(Yodda tuting) Fonetika tovushlar bilan bog'liq hodisalarni o'rganar ekan, demak, tovushlar hosil bo'lishida bevosita ishtirok etuvchi nutq organlari, ularning vazifalari, nutqda sodir bo'luvchi tovush o'zgarishlari va ularning sabablari, nutqning fonetik jihatdan bo'linishi va uning ahamiyati hamda tilning tovushlar tizimini o'rganish uning vazifasiga kiradi.

(Bilib oling) Tilning tovush sistemasini o'rganishda qo'yilgan vazifalariga ko'ra fonetikaning a) umumiy fonetika, b) tarixiy fonetika, v) qiyosiy fonetika, g) tavsifiy fonetika, d) eksperimental fonetika kabi turlari ajratiladi.⁵

Umumiy fonetika turli tipdagi tillarning nutq tovushlarining xilma-xilligini o'rganuvchi bo'lim. UF sifat jihatdan turli tillarda inson nutq apparatining tovush hosil qilish imkoniyatlarini, nutq organlari yordamida tovushlarni hosil qilish usullari va ulardan nutqda foydalanish imkoniyatlarini o'rganish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. U alohida va qarindosh tillarning fonetik sistemasini batafsil va chuqur o'rganish hamda natijalarni umumlashtirish asosida hosil qilinadi. Demak, tillarning fonetik xususiyatlari qanchalik chuqur va izchil o'rganilsa, umumiy fonetika uchun manba shunchalik boy bo'ladi.

³ Матусевич М.И.. Современный русский язык. Фонетика. -М.: Просвещение, 1976.

⁴ Набиева Д. Тил сатхларини умумийлик ва хусусийлик хусусида тадқиқ этиш. Т., 2004

⁵ Зиндер Л.Р. Общая фонетика. –М.: Высшая школа, 1979.

Tarixiy fonetika ma'lum bir tilning tovush sistemasini tarixiy rivojlanishda o'rganadi, ya'ni til taraqqiyotining turli davrlarida tovush sistemasidagi tarixiy o'zgarishlarni, ularning o'zgarish sabablarini tekshiradi. Jonli so'zlashuv nutqi, qarindosh tillar tadqiqi natijasida olingan natijalar, til taraqqiyotining turli davrlariga mansub yozma yodgorliklar tarixiy fonetika uchun manba bo'ladi.

Qiyosiy fonetika qarindosh tillarning tovush sistemasi munosabatlarini o'rganadi. Masalan, turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi, slavyan tillarining qiyosiy fonetikasi kabi.

Tavsifiy fonetika yoki fonologiya ma'lum bir til taraqqiyotining ma'lum bir davri oralig'idagi tovush sistemasini o'rganish bilan shug'ullanadi. Ilmiy-tavsifiy fonetika tovushlar dinamikasi bilan ham shug'ullanadi, u tilning fonetik sistemasini hosil qilishda til tarixini chetlab o'tmaydi.

Tarixiy fonetika tovushlarni quyidagi aspektlarda o'rganadi:

-fiziologik (nutq tovushlarining nutq organlari yordamida hosil bo'lishi – tovushlar fiziologiyasi);

-akustik (o'z sifatlari bilan eshitish taassurotlariga ta'sir etish – nutq tovushlarining akustikasi);

-lingvistik (so'zlarning semantik differentsiatsiyasida tovushlarning o'rni). Aloqa vositasi sifatida uchinchi aspekt asosiy hisoblanib, fonetikani lingvistika tarkibiga qo'shadi.

Eksperimental fonetika nutq tovushlarining fiziologik va akustik xususiyatlarini turli xil asbob-uskunalar yordamida o'rganadi. Tekshirishning ushbu usuli nutq tovushlarining alohida belgi-xususiyatlarini aniq belgilashga imkoniyat yaratadi.

2-ma'ruza. Fonetika va fonologiya

Reja:

1. Tilda dialektik kategoriyalarning namoyon bo'lishi (til-nutq dioxotomiyasi).
2. Fonetika va fonologiya.
3. Fonologiyaning birligi.

Tayanch so'z va iboralar: *Fonetika, lingvistik sath, til bo'limlari, shakl va mazmun, orfoepiya, leksika, grammatika, grafika, orfografiya, sheva, lahja, ichki manba, tashqi manba, yozma adabiy til, og'zaki adabiy til, adabiy til me'yorlari. fonetika, fonologiya, emik birlik, etik birlik, variant, ottenka, fonema, tovush, til, nutq, ifodalovchi, ifodalanmish, differentsial belgi, integral belgi.*

Sistemaviy-struktur tilshunoslik shakllangunga qadar tilning bunday ichki tuzilishini qatlam sifatida tushunish amaliy kuzatishning ilk natijalari bo'lib, til stratifikatsiyasi ilmiy jihatdan asoslanmagan edi.

Lingvistik sath tushunchasining paydo bo'lishiga tilning ikki tomonlama mohiyat ekanligining e'tirof etilishi, shakliy va mazmuniy tomonlarning har biri o'ziga xos ichki tuzilishga ega ekanligi, ularning har qaysisi o'z ichki uzvlari munosabatidan tashkil topgan kichik sistema ekanligi, shunday qilib, tilning tuzilishi sistemalar sistemasi tartibida bo'lishi, ular o'rtasidagi munosabat til mexanizmini harakatga keltirish haqidagi qarashlarning maydonga kelishi turtki bo'ldi.

(E'tibor bering) Tilning ichki tuzilishini sathlarga ajratishda ana shunday boshboshdoqlikni bartaraf qilish uchun til birliklarining doimiy, barqaror sathlarini ajratishga imkon beradigan belgilariga tayanish lozim. Ana shunday belgi til birliklarining pog'onaviylik belgisidir. Xuddi ana shu belgi deskriptiv tilshunoslik vakillari tomonidan tilni sathlarga ajratishning asosiy belgisi sifatida e'tirof etilgan edi.

Kompozitsion kontseptsiyaga muvofiq, tilning ichki tuzilishi bir xil yo'nalishdagi pog'onalanishdan (ierarxiyadan) iborat. Bu shundan iboratki, fonema, morfema va undan katta birliklar o'rtasida bir xil yo'nalishdagi pog'onali munosabat mavjud. Quyi sath birligi yuqori sath birligi uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Quyi sath birligi yuqori sath birligi tarkibida uning tarkibiy qismi (konstituenti) sifatida vazifa bajaradi. Shuning uchun til sathlari o'rtasida quyidan yuqoriga yo'nalgan munosabat e'tirof etiladi va bu munosabat bir xil turdagi, konstituentiv munosabat sanaladi. Konstituentiv munosabat "...dan tashkil topadi", "...ga kiradi" sxemasini o'zida namoyon etadi.⁶

(Yodda tuting) Fonetika tovushlar bilan bog'liq hodisalarni o'rganar ekan, demak, tovushlar hosil bo'lishida bevosita ishtirok etuvchi nutq organlari, ularning vazifalari, nutqda sodir bo'luvchi tovush o'zgarishlari va ularning sabablari, nutqning fonetik jihatdan bo'linishi va uning ahamiyati hamda tilining tovushlar tizimini o'rganish uning vazifasiga kiradi.

(Bilib oling) Tilning tovush sistemasini o'rganishda qo'yilgan vazifalariga ko'ra fonetikaning a) umumiy fonetika, b) tarixiy fonetika, v) qiyosiy fonetika, g) tavsifiy fonetika, d) eksperimental fonetika kabi turlari ajratiladi.⁷

(Yodda tuting) Fonologik sathda umumiylik-xususiylik, invariant-variantlilikni belgilash dastlab alifbo tizimini yaratgan qadimgi finikiylarda paydo bo'lgan. Chunki harf tovush variantlariga qarab emas, balki tovush tiplariga qarab belgilanadi.⁸

Yozuv tarixi bilan shug'ullanuvchi deyarli barcha tilshunoslar ilk fonografik yozuvda har bir harf muayyan bir fonemani ifoda etganligini e'tirof etadilar. Dastlab eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikdayoq qadimgi finikiylar 22 ta undosh va bir unli uchun harf belgilagan ekanlar, keyinchalik nabotiyalar o'zlarining tillariga moslab yana oltita harf qo'shib, harflar sonini 28 taga etkazgan ekanlar. Demak, ular cheksiz talaffuz qilinuvchi tovushlarni ma'lum tiplarga birlashtirish haqidagi

⁶ Набиева Д. Тил сатҳларини умумийлик ва хусусийлик хусусида тадқиқ этиш. Т., 2004

⁷ Зиндер Л.Р. Общая фонетика. –М.: Высшая школа, 1979.

⁸ Соссюр Ф. Труды по языкознанию. М., "Прогресс". 1977.

tasavvurga ega bo'lganlar. Aks holda, fonografik yozuvni ixtiro qilolmagan bo'lardilar.⁹

(Esda tuting) Fonologiya termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushlarining akustik-artikulyatsion tomonidan funktsional tomonini farqlash ehtiyoji natijasida paydo bo'ldi. Fonologiya termini tilshunoslikda qat'iy o'rin olgan bo'lsa ham, lekin ko'p hollarda fonetikadan aniq farqlanmaydi, ba'zan ular bir-biri bilan aralashtiriladi. Ayrim hollarda esa ikkisining o'rganish ob'ekti aralashtiriladi. Masalan, tilshunoslarning ko'pchiligi fonologiya deganda, nutq tovushlarining funktsional tomonini tushunsalar, ayrimlari artikulyatsion-akustik tomonini tushunadilar. Xususan, F.de Sossyur shunday deydi: "Tovushlar fiziologiyasi ko'p hollarda fonetika deyiladi. Bu termin, bizningcha, nomuvofiq ko'rinadi. Biz buni fonologiya termini bilan almashtiramiz, chunki fonetika azaldan tovushlar taraqqiyoti haqidagi ta'limot bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaverishi kerak. Fonetika tarixiy fandır. U voqealarni, o'zgarishlarni tahlil etadi, zamonda harakat qiladi."¹⁰

Fonologiya zamondan tashqaridir. Chunki artikulyatsiya mexanizmi doimo o'ziga o'zi o'xshashligicha qolaveradi".

Keyinchalik fonologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida fonemalarning farqlovchi belgilarini o'rganuvchi fan sifatida e'tirof etildi. Fonemalarning bevosita nutq jarayonida reallashuvi esa fonetikaning o'rganish ob'ektiga aylandi.

Nutqda **ifodalovchi** konkret nutq oqimidan iborat bo'lgan fizik hodisa sanaladi. Tilda esa **ifodalovchi** nutqiy aktning tovush tomonini tartibga soluvchi qoidalar hisoblanadi. Konkret nutqiy birliklarning miqdori artikulyatsion harakat va unga muvofiq keluvchi tovushlarning chegarasiz, sanab bo'lmas darajada xilma-xil bo'lsa, til birliklarining miqdori chegaralangandir.

Xususiyliklarsiz umumiylikning bo'lishi mumkin bo'lmagani kabi, fonetikasiz fonologiya ham bo'lishi mumkin emas. Ularning o'rganish ob'ekti bitta. Birinchisi eng kichik nutq birliklarini, ikkinchisi esa shu nutq birliklarining farqlovchi belgilarini o'rganadi. Demak, ular o'zlarining ob'ekti jihatidan emas, balki bir ob'ektning turli o'rganish aspekti ekanligi bilan farq qiladi.

Fonema atamasi va uning tilning eng kichik tovush birligi ekanligi birinchi marotaba tilshunoslikda I.A.Boduen de Kurtene tomonidan bayon qilinadi.

Hozirgi kunda fonema tushunchasi barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etilsa-da, lekin uning maqomi masalasida bir xillik yo'q. Tilshunoslikda fonema haqidagi ta'limotning asoschisi sanalgan Boduen de Kurtenening o'zi ham fonema maqomi masalasida turli xil yo'nalishlarning kelib chiqishiga zamin yaratib qo'ygan. U fonemaning quyidagi ikki farqli tomoni borligini ko'rsatadi: 1) antropofonik (ya'ni akustik-artikulyatsion) xususiyatlarining oddiy umumlashmasi; 2) morfemaning harakatlantiruvchi komponenti va ma'lum morfologik kategoriya belgisi.¹¹

⁹ Зиндер Л.Р. Общая фонетика. –М.: Высшая школа, 1979.

¹⁰ Солнцев В.М. Язык как системно- структурное образование. М., "Наука", 1977.

¹¹ М.И.Матусевич. Современный русский язык. Фонетика. -М.: Просвещение, 1976.

A. A. Reformatskiy kuchsiz pozitsiyalarni ikkiga – pertseptiv (bilish tomonidan) kuchsiz va signifikativ (farqlash) kuchsiz pozitsiyalarga ajratadi.¹²

Fonologik sathda umumiylik-xususiylilik dialektikasi fonologik birliklarning tasnif va tahlilida ham aks etadi. Fonologik tasnif va tahlilda fonemalar paradigmatic va sintagmatic jihatdan qaraladi. Fonemalar paradigmatic jihatdan o'rganilganda, har bir fonemaning muayyan tilning fonologik sistemasidagi boshqa fonema bilan assotsiativ munosabati, ularning bir-biri bilan ongdagi qiyosi tushuniladi. Fonemalarni paradigmatic planda o'rganish orqali qiyoslana-yotgan fonemalarning farqlovchi (differentzial) va farqlanmaydigan (nodifferentzial) belgilari aniqlanadi. Shunday qilib, paradigmatic munosabat orqali fonemalarning qanday belgilardan tashkil topgan umumlashma ekanligi belgilanadi. Sintagmatic jihatdan esa ularning nutq jarayonidagi turli xil artikulyatsion-akustik o'zgarishlari o'rganiladi.

(Yodda tuting) O'zbek tili fonologiyasining shakllanishida E.D.Polivanov, G'.Yunusov, A.G'ulom, V.V.Reshetov, A.M.Shcherbak, F.Abdullaev, Sh.Shoabdurahmonov, A.Mahmudov, S.Otamirzaeva, E.Umarov, A.Nurmonov kabi tilshunoslarning xizmati katta bo'ldi. A.A.Abduazizov esa o'zbek tili fonemalarini paradigmatic va sintagmatic aspektda maxsus o'rganib, o'zbek tili fonologiyasini yuqori cho'qqiga ko'tardi.

A.Abduazizov to'g'ri ta'kidlaganidek, fonetik tasnif fonemalarning barcha artikulyatsion-akustik xususiyatlariga asoslansa, fonologik tasnif shu xususiyatlar ichidan asosiysini tanlab oladi: ularga funktsional jihatdan qarab, farqlanish belgilarini topadi. Fonemalarni artikulyatsion-akustik jihatdan farqlashga xizmat qiluvchi alomatlar farqlanish belgilari hisoblanadi. Fonema ana shunday belgilarning yig'indisi sifatida tushuniladi. Farqlanish belgilari esa fonemalarni so'z va morfema tarkibida bir xil sharoitda solishtirish orqali namoyon qilinadi.

3-ma'ruza. O'zbek tili vokalizmi

Reja:

1. Unlilarning farqlovchi belgilari.
2. Unlilarning qo'shimcha belgilari.
3. Unlilarning paradigmatic tasnifi va sintagmatic munosabatlari.

Tayanch so'z va iboralar

Differentzial belgi, old, qator, orqa qator, keng, tor, lablangan, lablanmagan, paradigmatica, sintagmatica, gorizonta harakat, vertikal harakat, qo'shimcha belgi, relevant, irrelevant.

¹² Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I-qism. Fonetika va fonologiya. Grafika va orfografiya. Orfoepiya. T., 2004.

Undosh fonemalarni tasniflashga asos bo'ladigan belgilar bilan unli fonemalarni tasniflashga asos bo'ladigan belgilar bir xil emas. Hatto unli fonemalarni tasniflashda ham tadqiqotchilar unlilarning turli xil belgilariga tayanganining guvohi bo'lamiz.

O'zbek tilshunosligidagi adabiyotlarda unlilarning ko'proq uch belgisiga asosan tasnifi uchraydi:

- 1) paydo bo'lish o'rniga ko'ra (old qator - orqa qator);
- 2) og'izning ochilish va tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra (keng - o'rta keng - tor);
- 3). labning ishtirokiga ko'ra (lablangan - lablanmagan).¹³

Unlilarning paydo bo'lish o'rniga ko'ra tasnifiga hozirgi kunda ikki xil yondashuvni ko'ramiz. Birinchi yondashuvga muvofiq, unlilarning paydo bo'lish o'rnini, to'g'rirog'i, tilning gorizontalar harakati e'tirof etiladi. Ikkinchi yondashuvga muvofiq, unlilarning paydo bo'lish belgisi rad etiladi va shuning uchun ham bu belgiga ko'ra unlilarning tasnifi asossiz hisoblanadi.

Unlilarning paydo bo'lish o'rnini e'tirof etuvchilarning o'zlari ham ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruh tilshunoslar uch o'rinni (qator) ajratadilar: til oldi (old qator), oraliq (indifferent), til orqa (orqa qator). Ikkinchi guruh tilshunoslar esa ikki o'rinni - til oldi (old qator) va til orqa (orqa qator) ni e'tirof etadilar.

A.Abduazizov bu ikki guruh tilshunoslarning tasnif asoslariga o'z munosabatini bildiradi.¹⁴ Biroq A.Abduazizov indifferent unlilarning ajralish asosini boshqacharoq talqin qiladi. Uning fikricha, indifferent unlilarning ajralish-ajralmasligi tadqiqot obyektiga bog'liq. V.V.Reshetov Toshkent shevasi talaffuziga asoslanib, o'zbek tilidagi **i, u, o', a** unlilarini oraliq unlilar deb ataydi. U o'zbek tili unlilarining bu fonetik tasnifi rus tili unlilari bilan qiyoslash asosida berilishini ta'kidlaydi.

Prof. E.Umarov o'zbeklar yuqoridagi unlilarni haqiqatan tilning oldida yoki orqasida talaffuz qiladilarmi, ya'ni o'zbeklar tilning oldi yoki orqasi bilan gapiradilarmi degan savol qo'yib, o'zlari unga hech ikkilanmay "yo'q" deb javob berish kerakligini bayon qiladi.¹⁵

Lekin hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun, darhaqiqat, qator belgisi fonologik qimmatini yo'qotgan. Shuning uchun hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun bu belgi tasnif asosi bo'la olmaydi.

(Esda tuting)Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalarining ikki belgi asosida tasniflanishi maqsadga muvofiq:

- 1) og'izning ochilish darajasiga ko'ra: keng, o'rta keng (o'rta tor), tor;
- 2) labning ishtirokiga ko'ra: lablangan, lablanmagan.

(Bilib oling)Lekin o'zbek shevalarida uchinchi belgi - qator belgisi ham farqlovchi belgi sanaladi.

Turkiy tillarda unlilarning eng muhim farqlovchi belgilaridan biri **kenglik-torlik, ya'ni og'izning ochilish darajasiga xos belgidir**. Bu belgisiga ko'ra unlilar bir qator turkiy tillarda, xususan, yoqut, oltoy, karagas, tuva, qirg'iz, bolqor tillarida ikki

¹³ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўқитувчи, 1993.

¹⁴ Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т.: Ўқитувчи, 1994.

¹⁵ Умаров Э. Унли товушлар таснифи ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти. Т., 2012

bosqichli oppozitsiyani tashkil qiladi: **a,(a), o, o** - keng (kompakt), **i, i, y, y** - tor (diffuz).

O'zbek tili fonetikasiga oid tadqiqotlarda uch bosqichli zidlanish mavjudligi ko'rsatiladi:

keng	a o
yarim keng	e o'
tor	i u

Unli fonemalarning uch bosqichli zidlanishi deyarli barcha o'zbek tilshunoslari tomonidan e'tirof etilsa-da, lekin bu uch bosqichli zidlanishni tashkil etayotgan unli fonemalarning miqdori masalasida tilshunoslar o'rtasida bir xillik yo'q.

Ko'pchilik tilshunoslar E.D.Polivanov tomonidan ko'rsatilgan oltita fonema borligini tan oladilar.¹⁶ Faqat professor M.Mirtojiyev o'zbek adabiy tilidagi unlilarning oltitadan ko'p ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, fonema nazariyasi yaratilgandan buyon birinchi planda sanalib kelinayotgan fonemaning funktsional tomoni rad etiladi. Xususan, muallif yozadi: "Inson tovushining ikki asosi bor: 1) akustik asos 2) biologik asos. Ba'zi adabiyotlarda yana lingvistik asos haqida ham gap boradi. Bunda esa tovushning nutqdagi vazifa tomoni nazarda tutiladi. Biroq tovush nutqda vazifa bajarmaydi, balki nutq mazmunining eng kichik bo'lagi bo'lgan fonemaning shakli hisoblanadi".¹⁷

O'zbek adabiy tili unlilari uchun yana bir farqlovchi belgi **lablanish-lablanmaslikdir**. Bu farqlovchi belgi ham barcha turkiy tillar unlilari uchun tipik sanaladi. Lablanish-lablanmaslik belgisiga ko'ra unlilar binar zidlanishga ega bo'ladi: **a, d, i, p** – lablanmagan unlilar, **o, ts, u, ya** – lablangan unlilar. Ko'rinadiki, har qaysi lablangan unliga lablanmagan unli mos keladi.

Lablanish - lablanmaslik belgisiga ko'ra binar moslik ko'p hollarda buzilishi mumkin. Bunday nomuvofiqlik lablanmagan unlilarning nutq jarayonida lablanishida va lablangan unlining lablanish belgisini yo'qotishida kuzatiladi. Xususan, o'zbek, boshqird, tatar tillarida «a» ning lablanishi kuzatiladi. Boshqird, tatar tillarida nutq jarayonida «a» ning lablanish belgisiga ega bo'lishi bu unli fonemaning kombinator variantini hosil qilsa, o'zbek tilida dastlab variant holida mavjud bo'lgan bo'lsa ham, lekin hozirgi o'zbek adabiy tilida fonologik qimmatga ega bo'ladi.

O'zbek adabiy tilidagi olti fonemalik sistemada fonemalar qatorga ko'ra zidlanmasligi haqidagi E.Umarov fikrini ma'qullaymiz. Dahaqiqat, hozirgi o'zbek adabiy tilida qator belgisi fonologik qimmatga ega emas, faqat variantlarning sifat belgisi bo'lib xizmat qiladi.

Nazallik lotincha «burunga oid» ma'nosini ifodalaydi. Bu belgi bo'lgan unlilarda tanglay pardasining tushishi va havo oqimining biR vaqtda og'iz va burun bo'shlig'idan o'tishi natijasida tovush burun tembriga ega bo'ladi. Buning natijasida og'iz unlisi burun unlisiga aylanadi.

A.M.Shcherbakning ta'kidlashicha, unlilarning cho'ziqlik va qisqalik belgisiga ko'ra zidlanishi oltoy, gagauz, qirg'iz, tofalar, tuva, turkman, xakas va yoqut tillari

¹⁶ Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т.: Ўқитувчи, 1990.

¹⁷ Нурманов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т.: Ўқитувчи, 1990.

fonologik sistemasida muhim rol o'ynaydi.¹⁸ Unlilarning cho'ziqlik belgisi ko'pchilik adabiyotlarda birlamchi cho'ziqlik va ikkilamchi cho'ziqlikka bo'linadi. Birlamchi cho'ziqlik turkiy tillarning bobotil davridan beri mavjud bo'lsa, ikkilamchi cho'ziqlik har qaysi turkiy tilda turli fonetik o'zgarishlar ta'sirida o'ziga xos yo'l bilan keyinchalik paydo bo'lgan.

O'zbek adabiy tili uchun cho'ziqlik belgisi farqlovchi belgi hisoblanmaydi. Lekin bir qator o'zbek shevalarida, xususan, o'g'iz shevalarida birlamchi cho'ziqlik uchraydiki, bunday holda u fonologik qimmatga ega bo'ladi. Cho'ziq unli bilan qisqa unli bir fonetik sharoitda o'zaro almashinib, ma'no farqlash vazifasini bajaradi.

Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilining o'g'iz shevalarida cho'ziq va qisqa unlilar zidlanishi ma'no farqlash uchun xizmat qiladi va fonologik qimmatga ega bo'ladi. O'zbek tili shevalarida ikkilamchi cho'ziqlik (buni fakultativ cho'ziqlik ham deyiladi) ko'p uchraydi. Bunday cho'ziqlik o'g'iz shevalarida ham, qipchoq shevalarida ham keng tarqalgan. Bunday ikkilamchi cho'ziqlik (fakultativ cho'ziqlik) o'g'iz va qipchoq shevalarida, ba'zan qorluq shevalarida ham **y, g, g', ng, h** singari undoshlarning tushishi va buning hisobiga tushayotgan undosh oldidagi unlining cho'zilishi natijasida yoki tushayotgan undosh intervokal holatda bo'lsa, ikki tomonda kelgan unlining qo'shilishi natijasida paydo bo'ladi. Undoshning ikki tomonida kelgan unlilar bir tipdagi va turli tipdagi unli bo'lishi mumkin. Masalan, qipchoq shevalarida: **o':l** (o'g'il), **o:r** (og'ir), **ba:r** (bag'ir) va boshqalar.

(Esda tuting) Xullas, o'zbek adabiy tili unlilari uchun og'izning ochilish darajasi (keng, o'rta keng, tor) va labning ishtirokiga ko'ra (lablangan va lablanmagan) belgilari farqlovchi belgilak sanaladi.

Unlilarning boshqa belgilari (nazallik, cho'ziqlik, qator belgisi) unlilar variantlarini tavsiflashda ahamiyatga ega bo'lgan qo'shimcha belgilar sanaladi. Asosiy belgilar unlilar paradigmaticasiga, qo'shimcha (fakultativ) belgilar unlilar sintagmatikasiga xos hisoblanadi.

O'zbek adabiy tilida farqlanish belgisiga ko'ra unlilar quyidagicha tavsiflanadi:

Yuqoridagi unlilar sintagmatik planda bevosita nutq jarayonida turli xil qo'shimcha belgilarga ega bo'lib, invariantning xilma-xil variantlarini hosil qiladi.

Sistema-tekst oppozitsiyasiga muvofiq muayyan qurshovda kelgan real talaffuz qilinuvchi har qanday artikulyatsion-akustik birlik variant sanaladi.

Variantlar betakrorlik xususiyatiga ega bo'lsa ham, ammo ularni ham ma'lum belgilariga ko'ra muayyan guruhlariga birlashtirish mumkin. Masalan, ma'kon belgisiga ko'ra – fakultativ variant, qo'llanilish darajasiga ko'ra – uslubiy variant, qurshovga ko'ra – majburiy variant va boshqalar.¹⁹

Invariantlar A va V, S va D chiziqlaridagi belgilar munosabatidan tashkil topgan butunliklar bo'lsa, variantlar bu belgilardan tashqari tashqi doiradagi belgilarni ham o'zida namoyon qiladi. Bulardan A-V chizig'i fonemalarning lab belgisiga ko'ra zidlanishini o'zida namoyon qiladi. Bu jihatdan hozirgi o'zbek adabiy tilidagi unlilar

¹⁸ Шоабдурахмонов Ш. , Аскарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. Т.: Ўқитувчи, 1980.

¹⁹ Баскаков Н.А. Сравнительно-типологическая фонология тюркских языков. –Москва: Наука, 1988.

o'zaro privativ zidlanadi. Ularning bir guruhi lablanish belgisiga ega, markerlangan, shuning uchun bu belgiga ko'ra kuchli a'zolar sanaladi. Shu bois a'zolar + ishorasi bilan ifodalandi.

Ikkinchi guruh esa zidlanishning kuchsiz a'zolari sanalib, bunday belgiga ega emas. Markirlanmagan. Shu bois ular – ishorasi bilan ifodalandi.

4-ma'ruza. O'zbek tili konsonantizmi

Reja:

- 1.Undoshlarning farqlovchi belgilari.
- 2.Undosh fonemalarning qo'shimcha belgilari.

Tayanch so'z va iboralar: *Konsonantizm, zidlanish, mo''tadillashuv, artikulyatsiya, akustika, palatal, faringal, uvulyar, sonor, afrikat, jarangli, jarangsiz, ton, oberton, invariant, variant.*

Undosh fonemalarni tasniflashga asos bo'ladigan belgilar bilan unli fonemalarni tasniflashga asos bo'ladigan belgilar bir xil emas. Hatto unli fonemalarni tasniflashda ham tadqiqotchilar unlilarning turli xil belgilariga tayanganining guvohi bo'lamiz.

Fonemaning muhim funktsional belgisi distinktivlikdir. Farqlash tushunchasi zidlash tushunchasini taqozo etadi. N.S.Trubetskoyning ta'kidlashicha, ikki narsa bir-biriga zidlanganidagina o'zaro farqli belgisi namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, tovushlarning belgisi ham boshqa shunga yaqin tovushlarning belgisiga zidlangandagina, uning ma'no farqlash (distinktiv) funktsiyasi namoyon bo'ladi.²⁰

Shuning uchun ham til birliklarining farqlanishida lingvistik zidlanishlar muhim o'rin egallaydi.

Fonologik zidlanishlar tasnifida ularning ma'no farqlash va ma'no farqlamaslik belgisi muhim ahamiyatga ega. Bu belgiga ko'ra fonologik zidlanishlar ma'no farqlovchi va ma'no farqlamaydigan zidlanishlarga bo'linadi.

Birinchi zidlanish fonologik muhim zidlanish sanalib, u morfema va so'zlarning moddiy shakllantirish bilan birga, ularning ma'nolarini farqlash vazifasini bajaradi.

Tovushlar o'zlarining fonologik muhim belgilari bilangina o'zaro zid munosabatda bo'ladi. Demak, har qanday fonema albatta ma'lum zidlanishning a'zosi bo'ladi. Har qanday real talaffuz qilinayotgan tovush esa fonologik muhim bo'lmagan belgilarga ham ega bo'ladi. Demak, undoshlarda invariant-variant munosabatini belgilash uchun ularning fonologik muhim va nomuhim belgilarini ajratish katta ahamiyat kasb etadi.²¹

²⁰ М.И.Матусевич. Современный русский язык. Фонетика. -М.: Просвещение, 1976.

²¹ Нурмонов А.Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т.:Ўқитувчи, 1990.

Undosh fonemalarning muhim belgilari korrelyativ va korrelyativ bo'lmagan belgilar bo'lishi mumkin. Kamida ikki fonema o'rtasida zidlanishga asos bo'lgan belgilardan birining birida bor, ikkinchisida yo'qligi bilan ajralib turadigan belgi korrelyativ belgi hisoblanadi. Belgilar majmuasi faqat birgina fonemaning o'ziga xos bo'lsa, bunday belgilar korrelyativ bo'lmagan belgi hisoblanadi. Masalan «t» fonemasida jarangsizlik belgisi asosiy va korrelyativ belgidir. Chunki xuddi shu fonemaning asosiy belgilariga ega bo'lgan, ammo undan boshqa korrelyativ belgisining borligi bilan (jaranglilik belgisining borligi bilan) ajralib turuvchi «d» fonemasi bor.

O'zbek tilida undoshlarning fonologik oppozitsiyasini quyidagicha guruhlash mumkin: asosiy aktiv organga ko'ra (paydo bo'lish o'rni va usuli belgisi); ovozning ishtirokiga ko'ra.

Undoshlar artikulyatsion tomondan o'pkadan chiqayotgan havoning nutq a'zolarining ma'lum bir o'rnida to'siqqa uchrash yo'li bilan hosil bo'ladi. Ana shu to'siqqa uchragan nuqta ularning o'rin belgisi sanaladi. Undoshlar ana shu belgisiga ko'ra unlilar bilan zidlanadi. Demak, undosh-unli zidlanishida **o'ringa** ega bo'lish-bo'lmaslik belgisi fonologik muhim belgi sanaladi.²²

Bu belgiga ko'ra undoshlar bir necha zidlikni tashkil etadi: lab, lab-tish, til oldi, til o'rta, til orqa, uvulyar va faringal undoshlar oppozitsiyasi.

Lab undoshlari labiallik belgisiga ko'ra bir sinfni, bir paradigmmani tashkil etadi. Demak, bunday undoshlarning barchasini bir paradigmaga birlashtiruvchi belgi lab belgisidir. Shu bilan birga bu belgi asosida bir paradigmaga birlashgan har bir a'zo boshqasida o'ziga xos farqlovchi belgisi bilan ajralib turadi.

Xususan, lab undoshlaridan b-p zidligida jarangli-jarangsizlik belgisi fonologik muhim belgi bo'lsa, b-m zidligida sonorlik-sonor emaslik belgisi, b-f, b-v zidligida esa portlovchilik-sirg'aluvchilik, shuningdek, labiallik va labiodentallik belgilari fonologik muhim belgilar hisoblanadi.²³

Til oldi undoshlari til uchining tishga tegishi natijasida hosil bo'lish belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etadi. Shuning uchun ular bir paradigmaga birlashadi.

Ayni paytda bu paradigma a'zolarining boshqa paradigma a'zolari bilan zidlanishida til oldilik belgisi farqlovchi, fonologik muhim belgiga aylanadi.

Til o'rta undoshlari til o'rtalik belgisiga ko'ra bir paradigmmani hosil qiladi. Demak, ularning bir paradigmaga birlashuvida ana shu belgi fonologik muhim belgi sanaladi.

Til orqa (uvulyar) undoshlari til orqasida paydo bo'lish belgisiga ko'ra bir paradigmmani tashkil etadi. Demak, bu belgi ushbu paradigma a'zolari uchun birlashtiruvchi (integRal) belgi vazifasini bajaradi. Shuning uchun u har bir paradigma a'zosida takrorlanadi. Chunonchi k, g, ng, q, g', x undoshlari ana shu belgiga ko'ra birlashadilar.

Bu paradigma uchun paradigma hosil qilish vazifasini bajaruvchi va integRal belgi sanaluvchi til orqalik belgisi ularning boshqa paradigma a'zolari bilan zidlanishida farqlovchi belgi vazifasini bajaradi.

²² Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т.: Ўқитувчи, 1990.

²³ Набиева Д., Закирова Х. Ўзбек тили фонетикаси. Андижон, 2016.

Faqat bir fonema (h) faringallik belgisiga ko'ra boshqa undosh fonemalarga zidlanadi. Bu esa faringallik belgisining ham undoshlar uchun fonologik muhim belgi ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi undosh fonemalar zidlanishida o'rin belgisiga ko'ra lab, til oldilik, til o'rtalik, til orqalik, uvulyarlik, faringallik belgilari fonologik muhim belgilar sanaladi.

Undoshlarning **paydo bo'lish usuliga** ko'ra oppozitsiyasi ikki belgiga asoslanadi: portlovchilik va sirg'aluvchilik. **P, b, t, d, m, n, ng, k, g** va **q**-portlovchilar; **f, v, z, s, sh, l, r, y, x, h** -sirg'aluvchi; **j** va **ch**-portlovchi-sirg'aluvchilardir. **ch** va **j** ham portlovchilar bilan ham sirg'aluvchilar bilan zidlanib, bir qancha farqlovchi belgilarga ega.

Bunday zidlanuvchi guruhlarining birinchi va ikkinchisi uchun portlash yoki sirg'alish belgisining mavjud yoki mavjud emasligi farqlovchi belgi hisoblanadi va bu ikki guruh zidlanishning ikki qutbini tashkil etadi. Zidlanishning chap qutbi «portlash» belgisiga ega bo'lgan undoshlarni, o'ng qutbi esa «sirg'alish» belgisiga ega bo'lgan undoshlarni o'z ichiga oladi. Masalan, p bilan f, b bilan v, d bilan z, t bilan s, k bilan x kabi undoshlar o'zaro ana shu belgiga ko'ra zidlanadilar.

Shu bilan birgalikda, hozirgi o'zbek adabiy tilida yana shunday undoshlar bo'ldi, ular yuqoridagi har ikki belgini o'zida sinkret holda mujassamlaydi. Bunday undoshlarga **ch** va **j** undoshlari mansubdir.

Undoshlarning **jarangli-jarangsizlik** belgisi ham fonologik muhim belgi sanaladi. Bu belgi asosida undoshlar o'zaro privativ zidlanishga kirishadi. Jarangli undoshlar bunday belgiga ega, markerlangan, jarangsiz undoshlar esa ega emas, markerlanmagandir.

Bir qator undoshlar bu belgiga ko'ra o'z ziddiga ega. Shuning uchun ular korrelyativ qatorlarni hosil qiladi. Masalan, **p-b, f-v, t-d, s-z, ch-j, k-g, q-g'** va boshq.²⁴

Shu bilan birgalikda o'z juftiga ega bo'lmagan undoshlar ham mavjud. Masalan, **m, n, l, r, ng, y** undoshlarining jarangsiz; **sh, x, h** undoshlarining jarangli jufti mavjud emas.

Jarangli-jarangsizlik belgisining fonologik muhim belgi hisoblanishining sababi shundaki, bu belgiga ko'ra zidlanayotgan undoshlar bir xil sharoitda biri o'rnida kelib, ma'no farqlash xususiyatiga ega. Bunday xususiyatga ega bo'lgan ikki tovush N.S.Trubetskoyning fonemalarni ajratish qoidalarining ikkinchisiga muvofiq, ikkita alohida-alohida fonemalarning vakillari sanaladi.²⁵

Masalan, hozirgi o'zbek tilida **pir-bir; sor-zor; tor-dor; chala-jala; kul-gul; qor-g'or** singari leksemalar so'z boshi pozitsiyasidagi undoshlarning jarangli-jarangsizlik belgisiga ko'ra o'zaro almashinuvi natijasida bir-biridan mazmuniy farqlangan.

Jarangli undoshlarning so'z boshida ishlatilishi turkiy tillarning barchasi uchun bir xil emas. Ayrim turkiy tillarda jaranglilar so'z boshida qo'llanilmaydi. (chuvash, xakas tillarida so'z boshida faqat jarangsiz undoshlar qo'llaniladi). Umumturkiy

²⁴ Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т.: Ўқитувчи, 1990.

²⁵ Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т.: Ўқитувчи, 1994.

tillarda soʻz boshida portlovchi **p** va **b**, **t** va **d**, **q** va **gʻ** larni qarama-qarshi qoʻyish minimal hisoblanadi. Boshlangʻich sirgʻaluvchilarning (s va z) qarama-qarshiligi esa umuman rad etiladi.

2. Undoshlar yuqorida koʻrsatilgan fonologik muhim belgilar bilan bir qatorda, nutq jarayonida qoʻshimcha, fonologik nomuhim belgilarga ham ega boʻladi. Ana shunday belgilar sifatida undoshlarning miqdoriy belgisini (choʻziqlik-qisqalik), sifatiy belgisini (qattqlik-yumshoqlik, nazallik-nazal emaslik) koʻrish mumkin.

Hozirgi oʻzbek tilida bir xil sharoitda undoshlarning choʻziq va qisqa turlari oʻzaro oʻrin almashib, maʼnoga taʼsir qilmasligi mumkin. Masalan, maza-mazza, shaboda-shabboda, juda-judda, iki (iki soʻm)-ikki, tepasida-teppasida, isimoq-issimoq kabi.

Prof. F. Abdullaev esa birinchi ochiq boʻgʻin unlisini saqlab qolish tendentsiyasi natijasida boʻgʻinni yopishga urinish qonuniyatidan kelib chiqqan boʻlishi kerak, deb taxmin qiladi.²⁶

Shuni taʼkidlash kerakki, etimologik qisqa undoshning choʻziq undoshga aylanishi (ikkilanishi) koʻproq belgi bildiruvchi soʻzlarda uchraydi. Bu esa choʻziqlikning, darhaqiqat, belgini tagida etarli asos borligidan dalolat beradi. Keyinchalik bu hodisa narsalarni va boshqa maʼnolarni bildiruvchi soʻzlarga ham oʻtgan va aylangan. Masalan, **eshak-eshshak**, **boshingni egur-boshshingni egur**, **maza qilmoq-mazza qilmoq** va boshq.

Shunday qilib, turkiy tillarda etimologik qisqa undosh (yakka undosh) ning choʻziq undoshga (geminataga) aylanishi nisbatan keyingi hodisa boʻlib, maʼnoni kuchaytirish, taʼkidlash, birinchi boʻgʻinning fonetik tuzilishini saqlab qolish tendentsiyasi natijasida hosil boʻlgan.

Hozirgi oʻzbek tilida bir qator soʻzlar ikki xil vaRintda qoʻllanadi: **tepasida-teppasida**, **eshak-eshshak**, **isimoq-issimoq**, **sasimoq-sassimoq** va boshq.

Bu juftliklarning moddiy jihatdan farqlovchi belgisi intervokal holatdagi undoshning choʻziqligi-qisqaligidir.

Bu choʻziqlik-qisqalik belgisi shu soʻzlarning atash maʼnosini oʻzgartirib yubormaydi, balki soʻzlovchining subʼektiv munosabatini oʻzgartiradi. «Choʻziqlik» va «qisqalik» belgilariga ega boʻlgan soʻzlar oʻzaro zidlanadi. Bu zidlanish mazmun jihatdan «ekspressivlik», maʼnoni kuchaytirish belgisiga ham tayanadi. «Qisqalik» belgisiga ega boʻlgan zidlanish aʼzosi «ekspressivlik» belgisiga ega boʻlmaydi, aksincha «choʻziqlik» belgisiga ega boʻlgan zidlanish aʼzosi bunday belgiga ega boʻladi.

Oʻzbek tilidagi undosh fonemalar nutqiy jarayonda qanday sintag-matik qurshovda kelishiga bogʻliq holda **qattqlik yoki yumshoqlik** belgisiga ham ega boʻladi.

(Bilib oling!) Yrrokidagi soʻzlar boshidagi **m** undoshi soʻz oxiridagi **n**, **ng** nazal undoshlarining Regressiv assimilyatsiyasi natijasida etimologik nazal boʻlmagan labial, portlovchi **b**, **p** undoshlarining nazallashuvidan hosil boʻlgan. Hozirgi oʻzbek tilining ayrim shevalarida bir xil fonetik qurshovda (pozitsiyada)

²⁶ Набиева Д., Закирова Х. Ўзбек тили фонетикаси. Андижон, 2016.

nazal va nazal bo'lmagan undoshlarning ma'noga ta'sir etmagan holda o'zaro ma'no almashinish holatlari uchraydi. Masalan, **murun-burun**, **muncha-buncha** kabi. Bu esa hozirgi o'zbek tilida nazallik belgisining fakultativligini ko'rsatadi.

Nutq jarayonida undoshlar yondosh tovushlar bilan **sintagmatik munosabatda** bo'lib, turli xil variantlarga ega bo'ladi. Muayyan undosh fonema ma'lum fonetik qurshovda turli o'zgarishlarga uchraydi. Bu o'zgarishlar ma'lum belgilariga ko'ra kombinator, pozitsion, fakultativ va individual variantlar tiplariga birlashtiriladi.

5-ma'ruza. Segmentatsiya (nutqning fonetik bo'linishi).

Reja:

1. Nutqning fonetik bo'linishi
2. Segment va ustsegment birliklar.

Tayanch so'z va iboralar

Nutqning fonetik bo'linishi, segment birlik, ustsegment birlik, fraza, sintagma, bo'g'in, tovush, Potebnya formulasi..

Muloqot ikki shaklda olib boriladi: og'zaki va yozma. Yozma shakl nisbatan keyingi hodisadir. Og'zaki shakl esa tilning paydo bo'lishidan boshlab uning fikrni ifodalovchi va muloqot vositasi sifatidagi yashash usuli hisoblanadi. Shuning uchun til haqidagi fanni uning material tomonisiz, tovushlarsiz, og'zaki nutqning qonuniyatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Leksik hamda grammatik faktlar ham til taraqqiyotining u yoki bu davrida sodir bo'lgan uning tovush tomonidagi o'zgarishlar bilan asoslanadi va tushuntiriladi. Bundan tashqari, og'zaki nutq spetsifik tovush vositalariga ega bo'lib, ular tilda mazmunning ifodalanishi uchun bevosita aloqadordir. Bunday vositalarga fraza, takt, ohang, fonetik so'z, bo'g'in va urg'u kiradi. Tovushlar bilan birgalikda ular "tilning tovush sistemasi"ni hosil qiladi.

Kichik birliklar esa o'zidan yuqori, kattaroq birliklarni hosil qilish uchun konstituentlik vazifasini bajaradi. Demak, segment birliklar o'rtasida ham umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu birliklarning maqomi masalasida ham tilshunoslar orasida bir xillik yo'q. Xususan, sintagma yoki takti olib ko'raylik. Uning chegarasini belgilash masalasi ham muammolidir. Agar Potebnya formulasi asosida takt (sintagma) chegarasi belgilansa, u holda har bir mustaqil so'z alohida sintagmani, takti hosil qiladi. Ushbu formula quyidagicha: ...12311... bu formula oddiy bo'lishiga qaramasdan, mazmunan juda salmoqlidir.

Birinchidan, u har bir takt faqat bitta urg'uli bo'g'inga egaligini ko'rsatadi: bu 3 raqami bilan belgilangan. Ikkinchidan, urg'u oldi bo'g'ini urg'uli bo'g'indan kuchsizroq, lekin boshqa bo'g'inlarga nisbatan kuchliroq ekanligini ko'rsatadi (bu 2 raqami bilan belgilangan). Uchinchidan, boshqa har qaysi bo'g'in kuch jihatdan o'zaro tengdir. Ular 1 raqami bilan belgilangan. To'rtinchidan, bo'g'in miqdoridan qat'i nazar, har bir so'z shu formulaga bo'ysunadi. Nihoyat, bu formula takt chegarasini aniqlash imkonini beradi. Masalan, 1231323 ketma-ketligi berilgan va

bunda taktning miqdorini topish zarur. Formula bo'yicha, bu ketma-ketlik uchta takt mavjudligiga ishora qiladi, chunki uchta urg'uli bo'g'in mavjud (ular 3 raqami orqali ifodalangan). Endi taktlarning chegarasini aniqlash masalasi turadi. Potebnya formulasiga binoan bu quyidagicha chegaralanadi: 1231 / 3 / 23. Agar 123 / 13 / 23 tarzida ajratilsa, formulaga tushmaydi.

Bunga ko'ra *ishchilarimiz zimmalariga yuklatilgan vazifalarini a'lo darajada bajardilar* jumlasida sakkizta takt mavjud. Chunki jumlani tashkil etuvchi haR bir so'z o'z mustaqil urg'usiga ega.

Ikkinchi yondashuvga asosan, takt – bu frazaning qismi bo'lib, qisqa to'xtam bilan ajratiladi va tugallanmagan intonatsiyaga ega bo'ladi. Takt fraza kabi tilda mazmunning ifodalanishiga aloqadordir. Taktning chegaralari qarab matnning mazmuni o'zgarishi mumkin: *akalarim uchta ukam bor* jumlasida taktning chegarasiga qarab uchta akasi yoki uchta ukasi borligini tushunish mumkin. Agar akalarim so'zidan keyin qisqa to'xtam qilinsa, uchta ukasi mavjudligi, uchta so'zidan keyin to'xtam qilinsa, akasi uchtaligi ma'lum bo'ladi. Takt bir so'zga ham, bir necha so'zga ham teng kelishi mumkin. Ushbu qarashga ko'ra *Ishchilarimiz // zimmalariga yuklatilgan vazifalarini // a'lo darajada bajardilar* jumlasida tarkibida uchta takt mavjud bo'lib, ularning birinchisi bir so'zga teng.

Takt, o'z navbatida, kichik birliklardan – fonetik so'zlardan tashkil topadi. Fonetik so'z – taktning (agar taktga ajralmasa, frazaning) qismi bo'lib, bir urg'uga ega bo'ladi. Fonetik so'z leksik va grammatik ma'nodagi so'zga teng kelishi ham mumkin. Masalan, *Mehr nuri yog'ar doim yuzingizdan, ustozlar* da oltita fonetik va oltita leksik so'z mavjud; *Derazamning oldida bir tup o'rik oppoq bo'lib gulladi* jumlasida sakkizta leksik-grammatik, lekin oltita fonetik so'z mavjud.

Fonetik so'zlar bo'g'inlarga bo'linadi. Fiziologik jihatdan bo'g'in – bu bir havo zarbi bilan talaffuz etiluvchi fonetik so'zning qismidir. Akustik jihatdan esa bo'g'in – bu jarangdorlikning (звочность) kuchayishi bilan xarakterlanuvchi fonetik so'zning qismidir.

6-ma'ruza. Sillabema (bo'g'in va uning turlari)

Reja:

1. Sillabema va bo'g'in haqidagi tushuncha.
2. Bo'gin va uning turlari
3. Bo'g'inlarni modellashtirish.

Tayanch so'z va iboralar

Sillabema, bo'g'in turlari, bo'g'inlarni modellashtirish, unli tovushlarning bo'g'in tuzilishidagi vazifasi..

Nutq jarayonida o'pkadan chiqqan havo nutq apparati orqali bo'linib-bo'linib o'tib ketadi. Bu bo'linish ba'zan bir tovushdan keyin, ba'zan bir necha tovush

birikmadan co'ng yuzaga keladi. O'pkadan chiqayotgan havoning muayyan oraliqda bir zarb bilan o'tib ketishi bo'g'in hocil qiladi.

Bilib olihg! Bo'g'in (sillabema) bir yoki bir necha tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir. Bo'g'in asosan unli tovush bilan belgilanadi.

Bo'g'inlar unli yoki undosh bilan tugaydi, shunga qarab, ular ikki xil bo'ladi: ochiq bo'g'in yoki yopiq bo'g'in. Macalan, *o-ta, o-na, a-ka, u-ka, mak-tab, meh-nat-kash*.

Hozirgi o'zbek tilida bo'g'inlar ichki va tashqi xucuciyatlariga ko'ra beshta acociy tipga ajraladi.

1. Bir unlining o'zidagina tuzilgan bo'g'inlar: *u, ə, a; o (-ta), ə(-kan), o'(-tin), i(-chak)* kabi. Bu tipagi bo'g'in V bilan ifodalanadi. Birinchi tip bo'g'in ichki turlarga bo'linmaydi.

2. Bir unli va bir undoshdan tuzilgan bo'g'inlar. Bu tipdagi bo'g'inlarning ikki xil ichki turi bor: 1) bo'g'in boshida unli, bo'g'in oxirida undosh: *osh, at(-lac), ər, o't, uch, ish* kabi.

3. Bir unli va ikki undoshdan tuzilgan bo'g'inlar. Bu tip bo'g'inning uch xil ichki turi bor: 1) bo'g'in boshida unli, oxirida ikki undosh: *oct, art, ərk, uct, ilm* kabi.

4. Bir unli uch undoshdan tuzilgan bo'g'inlar. Bu tipdagi bo'g'inlar unli bilan əmac, undosh bilan boshlanadi va undosh bilan tugaydi, demak, bular yopiq bo'g'inlarni tashkil qiladi.

5. Bir unli va to'rt undoshdan tuzilgan bo'g'inlar, bunday bo'g'inlar yopiq bo'g'inni tashkil qiladi, ya'ni unli bilan tugamaydi. Bu bo'g'inlar ham o'z ichida to'rt turga bo'linadi: 1) boshda bir, oxirida uch undosh, o'rtada unli: *tekct, punkt* kabi.

Ko'rinadiki, hozirgi o'zbek tili bo'g'in turlari o'zga tillardan qabul qilingan co'zlar hicobiga ko'paygan.

Sodda tub leksemalarning tuzilish jihatidan o'xshash bo'lgan leksemalarning quyidagi qurilma qolinlarini ko'rsatishimiz mumkin (U-unli tovush, X-undosh tovush):

1. Bir bo'g'inli leksemalar:

a) XUX – *nok, shox, bog', tok, naə, tuk* kabi.

b) XUXX – *barg, nuql, qurt* kabi.

2. Ikki bo'g'inli leksemalar:

a) UXXU – *olma, olqa, yozgi* kabi.

b) UXUX – *uzum, o'g'it, anor, o'rik, amur, urug'* kabi.

b) XUXUX – *gilos, xazon, ko'chat, hosil, danak, limon* kabi.

g) XUXU – *behi, meva, maza* kabi.

3. Uch bo'g'inli leksemalar:

a) XUXXUXU – *shaftoli, nanshaxa* kabi.

b) XUXUXXU – *qalamcha, ko'chatchi* kabi.

Leksemalarda bo'g'in soni ko'paygan sari uning qurilma qoliplari variantlari ham shuncha ko'payadi. Bu qurilma qoliplari turli xil bo'lib, ularga juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

Sodda yasama leksemalarning quyidagicha qurilish qoliplarini keltirishimiz mumkin:

1. L+-chi: *traktorchi, kallaklovchi, payvandchi* kabi.

2. L+dor: *bog'dor, hosildor* kabi.

3. L+gich: *purkagich, qashlagich, saqlagich, tirgovich* kabi.

Sodda yasama leksemalarning bu qoliplarini umumlashtirib quyidagicha ifodalashimiz mumkin: LM+GM (LM-leksik morfema, GM- grammatik morfema). Yuqorida keltirilgan har bir misol ushbu qolipga tushadi. Ammo o'zbek tilida ser-, be- kabi old qo'shimchalar borki, ular yordamida bog'dorchilik mavzuiy guruhiga oid leksema yasalganda quyidagi qolipda bo'ladi: GM+LM : *serhosil, bemaza, sermeva* kabi.

Tuzilishi jihatidan murakkab leksemalarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Qo'shma leksemalar.

2. Sostavli leksemalar.

Qo'shma leksemalarning quyidagi qolipi bor: LM+LM (LM- leksik morfema). Masalan, *ko'ksulton, belbog', so'ritag, simbag'az, achchiqdanak* kabi.

Sostavli leksemalarning quyidagi qoliplarini ko'rsatishimiz mumkin: 1. Ot+feʻl: *xomtok qilish, xishova qilish, er haydash, er diskalash* kabi. 2. Sifat+ot: *oq kishmish, oq shaftoli, sariq gilos, achchiq gilos* kabi.

Demak, formal jihatdan o'xshashlik munosabatidagi leksemalarning turli qurilmalari mavjud ekan. Ular shu qurilmalar asosida bir guruhga birlashadi. Ammo qurilish materiallariga ko'ra farqlanib turadi. Masalan, *oq kishmish, oq shaftoli* meva nomlarida birinchi komponenti (belgisi) bir xil, ikkinchi komponenti (obʼekti) esa har xil. Dekmak, bu nomlar ikkinchi komponenti bilan bir-biridan farqlanadi. Yoki *sariq gilos, achchiq gilos* meva nomlarida aksincha, birinchi komponenti (belgisi) har hil, ikkinchi komponenti (obʼekti) bir xil. Bu nomlar bir-biri bilan birinchi komponenti bilan farqlanadi.

7-ma'ruza. Aksentuatsiya va intonatsiya. Urg'u

Reja:

1. Aksentuatsiya va uning turlari.
2. Intonatsiya, uning prosodik elementlari.
3. Prosodika (urg'uning turlari).

Tayanch so'z va iboralar

Aksentuatsiya, prosodika, intonatsiya, ohang, urg'u, dinamik urg'u.

Intonatsiya liconiy faktor sifatida alohida lingvistik ahamiyatga ega. Chunki aynan u tufoayli nutqda o'z ifodacini topayotgan sintaktik birliklar turli ma'nolarda jilolanadi. Intonatsiya til cistemacida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, o'z tarkibiga nutqning barcha supersegment birliklarini qamrab oladi. Bular quyidagilar:

1. Akustik sathda asosiy ovoz chastotasining o'zgarishiga olib keluvchi tovush paychalari tebranish chastotasining o'zgarishi. Bu komponent frazada tonning harakatini anglatib, balandlikning o'zgarishi sifatida qabul qilinadi va melodika deb yuritiladi.

2. Tovushlarning cho'zilishiga olib keluvchi artikulyatsiya tezligining o'zgarishi. Bu nutq tempidir. SHu bilan birga, bu komponentni ko'p holatlarda nutqning davriy birlashmasi (organizatsiyasi) deb ham yuritiladi.

3. Tovush intensivligining o'zgarishiga olib keluvchi artikulyatsion harakatlar kuchining o'zgarishi. Bu balandlik.

4. Nutq jarayonida fonaatsiyaning to'xtalishi. Bu pauza sifatida qabul qilinadi.

5. Urg'uning barcha turlari.

6. Ovoz temбри.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, tilshunoslarning intonatsiyani tashkil etuvchi komponentlar haqidagi qarashlari bir xil emas. Xususan, L.V.Bondarko intonatsiyani tashkil etuvchi komponentlar sifatida melodika, temp, intensivlik va pauzani ajratadi²⁷. M.I.Matusevich esa melodikani, urg'uning barcha turlarini, pauzani va ovoz tembrini intonatsiyaning tarkibiy qismlari deb baholaydi²⁸.

Shu bilan birgalikda, intonatsion komponentlarning nutq jarayonidagi mavqei masalasi ham tortishuvlidir. M.I.Matusevichning fikricha, intonatsiyani tashkil etuvchi komponentlar ichida melodika eng asosiysi, etakchisi hisoblanadi. Melodika mazmun (semantika) va sintaksis bilan zich aloqada bo'lib, har bir tilda o'ziga xos tarzda uning melodik strukturasi tashkil etadi²⁹.

L.V.Bondarko ham intonatsiya tarkibida melodika alohida o'ringa ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, jumlaning intonatsion shakllanishida uni tashkil etuvchi turli komponentlarning roli turlichadir. Asosiy og'irlik melodika zimmasiga, ya'ni asosiy ton chastotasining o'zgarishiga tushadi. Shu jihatdan jumlaning fonetik xarakteristikasini ifodalovchi *intonatsiya* teriminining ton tushunchasi bilan bog'liqligi ham bejiz emas³⁰.

Rus intonatsiyasining o'ziga xos jihatlarini yoritir ekan, M.I.Matusevich melodika sub'ektiv, erkin bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, melodika har bir tilning grammatik strukturasi mos bo'lishi lozim; so'zlovchida (tinglovchida ham) o'z tili melodikasining muayyan modellari mavjud bo'ladi. Bularni bilmasdan turib so'zlovchilar bir-birlarini, ayniqsa, bildirilayotgan jumalarning nozik qirralarini tushunmasligi mumkin. Melodikaning sub'ektivligi haqida esa faqat uning cheklangan miqdorda variantlanishi mumkinligini e'tiborga olgan holatlardagina gapirish mumkin. Masalan, bir matnning turli xil intonatsion interpretatsiyasi mavjud. Shunda ham so'zlovchi tilda mavjud bo'lgan intonatsion modellardan ularning semantik-sintaktik strukturasi mos ravishda foydalanadi.

²⁷ Бондарко Л.В., Вербицкая Л.А., Гордина М.В. Основы общей фонетики. – Санкт-Петербург: Изд. С.-Петербургского университета, 1991. –с.118.

²⁸ Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. –М.: Просвещение, 1976. –с.242.

²⁹ Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. –М.: Просвещение, 1976. –с.242.

³⁰ Бондарко Л.В., Вербицкая Л.А., Гордина М.В. Основы общей фонетики. Санкт-Петербург: Изд. С.-Петербургского университета, 1991. –с.118.

Buni sintaktik strukturasi bir xil, lekin intonatsiya yordamida farq qiluvchi darak va so'roq gaplar misolida ko'rish mumkin³¹.

E.Brizgunova ham rus tilida intonatsiyaning xususiyatlarini o'rganar ekan, uning ma'no farqlash imkoniyatlarini gap leksik-grammatik sostavining kommunikatsiya jarayonida turli ma'nolarda qo'llanilishi mumkinligi bilan bog'laydi va buni quyidagi holatlarda yuzaga keladigan gaplar misolida izohlashga harakat qiladi. Siz ekskursiyaga ketyapsiz. Ekskursiya rahbari sizga chiptalarni tarqatyapti: *Vash bilet...Vash bilet...(Sizning chiptangiz... Sizning chiptangiz...)*(IK – 1). Siz chiptani tushirib qo'ydingiz. Uni olgan kishi sizdan so'raydi: *Vash bilet?* (IK – 3) (*Sizning chiptangiz? (CHipta siznikimi?)*). Tekshiruvchi har bir kishining chiptasini tekshirayotib so'raydi: *(A) Vash bilet?* (IK – 4). (Bu -chi yuklamasi yordamida beriladigan savolning qisqartirilgan shakli: *Sizning chiptangiz? (Sizning chiptangiz-chi?)*)³².

Muallif kommunikatsiya jarayonida turli ma'nolarda birdan ortiq usulda qo'llanish imkoniyatiga ega bo'lgan leksik-grammatik tuzilishlarni ko'p ma'noli deb baholab, ularga aloqa-aralashuvda bir qo'llanishli leksik-grammatik tuzilishlarni zidlaydi. Bunda ko'p ma'nolilik gaplarni so'roq, xabar, baho kabi turlarga ajratishga sabab bo'luvchi farqlovchi belgilarning mo'tadillashuvi natijasida yuzaga chiqadi³³. Masalan, baho ifodalovchi *Qanday yoqimli ovoz!* gapidagi farqlovchi belgi *yoqimli* so'zidir. Gap leksik-grammatik sostavidan baho ifodalovchi ko'rsatkichning (*yoqimli* so'zining) tushirilishi gap mazmunining o'zgarishiga olib keladi. Uning mazmuni kommunikatsiya jarayonida ohang yordamida konkretlashtiriladi.

E.A.Brizgunova 7 xil intonatsion konstruktsiyalarni (IK) va ma'nolari shu IKlar yordamida konkretlashuvchi gaplarning quyidagi turlarini ajratadi:

1. IK – 1 (darak gap) *Qanday ovoz sihibi*
2. IK – 2 (neytral so'roq) *Qanday ovoz sihibi?*
3. IK – 3 (savolning qaytarilishi) *Qanday ovoz sihibi?*
4. IK – 4 (savol-eslatma) *Qanday ovoz sihibi?*
5. IK – 4a (baho gap: engil hayrat) *Qanday ovoz sihibi!*
6. IK – 5 (baho gap: chuqur hayrat yoki g'azab) *Qanday ovoz sihibi!*
7. IK – 5a (baho gap: negativ baho, bepisandlik) *Qanday ovoz sihibi!*³⁴

Demak, tonning (intonatsiyaning) harakati gaplarni bir-biridan farqlaydi. Turli intonatsion konstruktsiyalar mustaqil holda turli ma'noli birliklarni, turli tipdagi gaplarni farqlash xususiyatiga ega. Masalan, *Keling. (Ertaga albatta keling tarzidagi maslaxat ma'nosida); Keling? (Nega keling dedingiz degan e'tiroz ma'nosida); Keling! (Mehmonni qarshi olish ma'nosida); Keling! (Szni bu erda hech kim kutayotgani yo'q tarzidagi kesatq, piching ma'nosida)* va h.k.

³¹ Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. –М.: Просвещение, 1976. –с.242.

³² Брызгунова Е.А. Основные типы интонационных конструкций и их употребление в русском языке. – Русский язык за рубежом, 1973, №1, №2.

³³ Брызгунова Е.А. О смысловозначительных возможностях русской интонации. –ВЯ., 1971, №4. с.42.

³⁴ Брызгунова Е.А. О смысловозначительных возможностях русской интонации. –ВЯ., 1971, №4. с.42.

8-ma'ruza. So'z tarkibidagi fonetik o'zgarishlar.

Reja:

1. So'z va morfemalar ichida fonemalarning sintagmatik munosabati.
2. Unlilar reduksiyasi.
3. O'zbek tilida assimilyativ o'zgarishlar.
4. Metateza.
5. Fonetik moslashtirish.
6. Eliziya, sinerezis va aferezis.
7. Asimiliyatsiya va dissimilyatsiya.
8. Fuziya.
9. Akkomodatsiya va apokopa.

Fonema so'z va morfemalar ichida yashaydi. Demak, fonemalar so'z va morfemalarning ichida diskret element sifatida o'zaro sintagmatik munosabatda bo'ladi. Har bir tilda so'z va morfemalarning ma'lum fonetik struktura tiplari mavjud. Ammo bu masala shu vaqtga qadar tilshunoslikda etarli o'rganilmadi. Shu bilan birga, ma'lum so'z bir necha morfemalardan tashkil topishi va ma'lum morfema turli morfemik qurshovda turlicha allomorflar sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Masalan, *qizil+ar-qizar (il-SH)*, *sariʔ+ay-sarʔay (i- SH)*, *bilak+i-bilagi (k-g)* kabi so'zlarda *qizil-qiz*, *sariʔ-sarʔ*, *bilak-bilag* morflari bir morfemaning ma'lum pozitsiyaga xoslangan turli variantlaridir. Bu o'rinda fonema almashinuvlari hech qanday fonologik funktsiya bajarmaydi.

Tovush almashinuvi uzoq vaqtlardan buen lingvistlar tomonidan o'rganilib kelinadi. Qiyosiy tilshunoslik o'zining dastlabki taraqqiyot bosqichidayoq tovush almashinuviga katta e'tibor berdi. Ayniqsa, german tillari tadqiqotchilari bu masalani alohida o'rganadilar, chunki tovush almashinuvi german tillari morfologiyasida asosiy o'rin egallar edi.

Tilshunoslik tarixida tovush almashinuvi nazariyasining ishlanishida I.A.Boduen de Kurtene va N.V.Krushevskiylar alohida o'rin egallaydi. Ular tilshunoslik tarixida birinchi bo'lib tovush o'zgarishlari va almashinuvlarini bir-biridan farqlab o'rganadilar. I.A.Boduen de Kurtene tildagi barcha tovush almashinuvlarini ikki kategoriyaga bo'ladi:

- 1) kombinator xoslangan alternatsiyalar;

2) traditsiyaga asoslangan alternatsiyalar.³⁵

U birinchi tipdagi alternatsiyalarni fonetikaga, ikkinchi tipdagilarni esa morfologiyaga kiritish lozimligini tavsiya qiladi.

Tovush o'zgarishlarini, avvalo, unlilar o'zgarishi va undoshlar o'zgarishiga ajratish maqsadga muvofiqdir. Unlilar o'zgarishiga unlilar reduktsiyasi, unlilarning cho'zilishi, unlilar labializatsiyasi, unlilar delabializatsiyasi singari hodisalar mansubdir.

Unlilar reduktsiyasi. Bir bo'rinli leksemalarda hamda ikki bo'g'inli leksemalarning birinchi bo'g'inidagi sonor undoshlar oldida kelgan tor unli sonor undosh ta'sirida reduktsiyaga uchraydi. Masalan, *b(i)lan*, *b(i)roq*, *s(i)ra*, *b(i)r* kabi.

O'zbek tilida singarmonizm ta'siridagi o'zgarishlar. O'zbek adabiy tilida ham ba'zan bir bo'g'inli so'zlarning struktur elementlari – unli va undosh tovushlar o'rtasida tovush qatorlari bo'yicha o'zaro xoslanish hollari ko'zga tashlanadi. Xususan, GS, SGS strukturali so'zlarda tovushlar palatal garmoniyaga muvofiq birikadi: *qil*, *xil*, *g'ish*, *bil*, *siz*, *jil* va boshqalar. Ba'zan old va orqa qator variantlari ma'no farqlash funktsiyasini ham bajarishi mumkin. Masalan, *tiq-tik*.

N.S.Trubetskoy ham turkiy tillardagi unlilar garmoniyasini e'tiborga olgan holda, yuqoridagi sakkizta fonologik qimmatga ega bo'lgan unlilar sistemasi mavjudligini va ular faqat birinchi bo'g'in uchungina xos ekanligini, keyingi bo'g'inlar unlisining tembr belgisi o'zidan odingi bo'g'in unlilar ostida ularga muvofiqlashuvini, demakki, tebr oppozitsiyasi neytrallashuvini ta'kidlaydi.

O'zbek tilining ayrim shevalarida, xususan Namangan shevasida singarmonizmning boshqa ko'rinishi – affikslarning o'zak fonetik xususiyatiga moslashish emas, balki o'zak unlilarining affiks unlilari xarakteriga moslashishi kuzatiladi. Bunday moslik **umlaut** hisoblanadi. Umlaut uyg'ur tili va hozirgi o'zbek tilining namangan va paxtaobob shevasiga xosdir. Umlautning uch ko'rinishi – palatal, labial va lingvial turlari mavjud. Birinchi turda birinchi bo'g'inning orqa qator keng unlisi keyingi bo'g'inning tor lablanmagan unlisi ta'siriga berilib, old qator unliga aylanadi. Masalan, namangan shevasida **toshi-teshi**. Ikkinchi turda birinchi bo'g'inning keng lablanmagan unlisi keyingi bo'g'inning lablanmagan unlilari ta'sirida lablashadi. Masalan, paxtaobod shevasida **temir-to'mir**. Uchinchi turda og'izning ochilish darajasi o'zgaradi. Keyingi bo'g'inning tor i unlisi ta'sirida birinchi bo'g'inning old qator keng unlisi o'rta keng unliga aylanadi. Masalan, uyg'ur tilida **kesish-kasish**.³⁶

O'zbek tilida assimilyativ o'zgarishlar. Assimilyatsiya turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida keng tarqalgan hodisa bo'lib, nutqning moddiy zanjirida, ya'ni tovushlar ketma-ketligida ma'lum bir belgiga ko'ra ikkita noo'xshash undoshning so'zlovchining talaffuz qulayligiga intilishi tufayli o'xshash undoshga aylantirilishidir. Ko'rinadiki, muayyan leksema tarkibida ma'lum belgi asosida zidlanuvchi ikki undosh talaffuz noqulayligini bartaraf qilish harakati tufayli zidlanish belgisini yo'qotadi, bir xil undoshlarga aylanadi. Natijada leksemaning

³⁵ Бондарко Л.В., Вербицкая Л.А., Гордина М.В. Основы общей фонетики. – Санкт-Петербург: Изд. С.-Петербургского университета, 1991. –с.118.

³⁶ Nabyeva D., Zakirova H. O'zbek tili fonetikasi. Andijon, 2016.

og'zaki so'zlashuv varianti – uslubiy varianti maydonga keladi. Masalan, *tarnov-tannov, shirmoy non- shirmonnon, badtar- battar* kabi.

Metateza. Metateza har qanday tilning ham diaxron, ham sinxron holati uchun mansubdir. Bunday holatdan o'zbek tili ham mustasno emas.

O'zbek tilida metateza shu tilning ikki davr oralifidagi leksema nomemasining o'zgaruviga olib kelishi mumkin. Masalan, *o'granmoq- o'rganmoq, yog'mir-yomg'ir*. Shu bilan birgalikda, metatezaga uchramagan variant ham hozirgi kunda ayrim o'zbek dialektlarida saqlanayotgan bo'lishi mumkin. Bu esa tarixiy va dialektal variantlarning farqlanishiga olib keladi.

Fonetik moslashtirish. Turkiy leksemalar nomemalari o'ziga xos fonetik arxitektonikaga ega. Leksema nomemalarida bir bo'g'inda ikki va undan ortiq undoshlar kela olmaydi. Bundan faqat bir bo'g'inli leksema nomemalarining oxirida lt (*yilt-yilt, qult- qult, milt-milt*), st (*ost-ust*), rt (*ort, turt, to'rt*) undoshlarining qator kelishi mustasno.

Leksema nomemasining boshida va oxirida kelgan ikki va undan ortiq undoshlar ishtirok etgan so'zlarning ko'pi olinmalardir. Shuning uchun bunday olinma so'zlarning fonetik tuzilishi og'zaki nutqda turkiy so'zlar fonetik tuzilishiga moslashtirish, shu yo'l bilan talaffuz qulayligiga intilish harakati mavjud bo'ladi. Bunday harakat tufayli olinma leksemalar nomemalarining og'zaki so'zlashuv variantlari paydo bo'ladi. Ular quyidagilardan iborat:

Eliziya qator kelgan har xil turdagi ikki unlidan birining tushib qolishi hodisasidir. **Sinerezis** hodisasida qator kelgan unlilar o'zaro birikib, bir unliga aylansa, eliziya hodisalarida bu unlilardan biri tushib qoladi². Ana shu xususiyatlari bilan bu hodisalar bir-biridan farq qiladi. Birinchi so'z oxiridagi unlining ikkinchi so'z boshidagi unli bilan to'qnashishi natijasida tushib qolishi hodisasi **eliziya** hisoblanadi.; Masalan, *borolmoq<bora olmoq, yozolmoq<yoza olmoq, echkamar echki emar, bekoyim<beka oyim, oltariq<oltiariq, oltoziq<olti oziq*, «to'qqiz yoshli ot», *ettozik<.etts oziq*, «o'n yoshli ot», mang'it shevasida *yashulli<yoshiulli* «yoshi katta», *xo'jeli<xo'jaeli* va b.

Leksema nomemalari tarkibida qator kelib qolgan ikki unlining talaffuz noqulayligini bartaraf qilishga moyillik tufayli sodir bo'ladigan fonetik hodisalardan yana biri **aferezis** hisoblanadi. Masalan, *narsa<na ersa, nechun<ne uchun* va b.

Leksema nomemalarida qator kelgan ikki unlining bir unliga aylanish yo'llaridan biri **sinerezis** hodisasidir.³⁷ Sinerezis qator kelgan ikki unlining bir unliga aylanish hodisasidir. Sinerezis qator kelgan ikki unlining bir unliga aylanish hodisasidir.

Bir leksema nomemasida intervokal undoshning tushib qolishi natijasida hosil bo'lgan ikki unli o'zaro birikib, bir cho'ziq unliga aylanadi. Natijada ikkilamchi cho'ziq unlilar hosil bo'ladi.

Intervokal undoshlarning tushib qolishiga ob'ektiv sabab mavjud. Chunki undoshlar uchun intervokal holat kuchsiz pozitsiya sanaladi. Alohida pozitsion xususiyatga ega bo'lgan bu holatda hatto portlovchi jarangsiz undoshlar ham

³⁷Нурмонов А. Синерезис.// Ўзбек тили ва адабиёти. -№2, 1973.

kuchsizlanishi va tushib qolishi mumkin.³⁸ Buning sababi shundaki, unlilar artikulyatsion jihatdan “og’iz ochuvchilar” sanaladi. SHunday ekan, ikkita og’iz ochuvchilar oralig’ida kelgan har qanday undosh birinchi “ochiqlik” bilan ikkinchi “ochiqlik” orasida qoladi va natijada undoshning “og’iz yopuvchilik” artikulyatsion belgisi kuchsizlanadi. YA’ni bunday pozitsiyada joylashgan undosh o’zining to’liq artikulyatsiyasiga ega bo’lmaydi. Bunday holatdagi undoshlarni talaffuz qilish uchun nutq a’zolari bir-biri bilan to’la yaqinlashmay turib, navbatdagi unlini talaffuz qilishga tayyorlanadi. Oldidagi unli rekursiyasi va undan keyin kelgan unli ekskursiyasi bir-biriga taxlanib ketadi.³⁹

Intervokal undoshlar artikulyatsiyasida hosil bo’lgan nutq a’zolari o’rtasidagi bu oraliqning ba’zan kengayib ketishida undosh tamoman o’z artikulyatsiyasini yo’qotishi va ikki tomondagi unlilarning o’zaro qo’shilib ketishi mumkin.⁴⁰

Hozirgi o’zbek tilining og’zaki so’zlashuv uslubida va bir qator o’zbek shevalarida portlovchi undoshlarning intervokal holatda kuchsizlashib, sirg’aluvchi undoshlarga aylanishi, sirg’aluvchi undoshlarning esa reduktsiyalashib, unlilarning paydo bo’lishi kuzatiladi. Bu ikkilamchi cho’ziq unlilar ko’pgina shevalarda oddiy cho’ziqlikdagi unliga aylanadi. Masalan, bu yoqqa> buoqqa>ba:qa> baqa; shu yoqqa> shu oqqa> sha:qa>shaqqa.⁴¹

[y] undoshi o’pkadan chiqayotgan havo oqimining kuchiga ko’ra⁴² va akustik belgisiga ko’ra unli bilan umumiylik belgisiga ega. SHuning uchun bu undosh intervokal holatda to’siqlik belgisini yo’qotishi va vokalizatsiyalashishi mumkin.

Dissimilyatsiya. Leksema nomemasi tarkibidagi ma’lum belgisiga ko’ra ikki o’xshash undosh tovushning so’zlovchining talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli o’xshash belgilarning yo’qotilishi dissimilyatsiya hodisasini keltirib chiqaradi. Bunday hodisaning ro’y berishi esa leksema nomemasining og’zaki so’zlashuvga xos variantining hosil bo’lishiga olib keladi. Masalan, **biror** leksemasi tarkibidagi ikkita r undoshi titroqlik umumiy belgisiga ega bo’lganligi tufayli, ikkinchi undosh burun tovushga almashinadi. Natijada bir leksemaning **biror** va **biron** variantlari paydo bo’ladi. SHuningdek, **mo’may** leksemasidagi ikki bir xil undoshning birinchisi lab undoshlik belgisini yo’qotib, til oldi undoshiga aylanib, talaffuz qulayligini hosil qiladi. Buning natijasida bir leksemaning **mo’may** va **no’may** variantlari vujudga keladi.

Fuziya. Turkiy tillarning aglyutinatив tabiati barchaga ma’lum. Aglyutinatsiyaning fuzyiadan muhim farqlovchi belgilari sifatida har bir grammatik ma’noning alohida-alohida shakllar yordamida ifodalanishi, grammatik ma’noni ifodalovchi grammatik shakllarning ko’payishi bilan so’zning chapdan o’ngga qarab cho’zilib borishi, leksik va grammatik morfemalarning bir-biriga qo’shilish chokining ajralib turishi, shuningdek, grammatik shakllarning qo’shilishi o’zak morfemaning fonetik tuzilishini o’zgartirmasligi kabi belgilar ta’kidlanadi.

³⁸ Ряснян М. Материалы по исторической фонетике тюркских языков. -М.,1955. -С.98; Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. -М.,1970. -С.101.

³⁹ Акбаев Ш.Х. Фонетика диалектов карачаево-балкарского языка. -Черкеск.,1963. -С.79.

⁴⁰ Нурмонов А. Ўзбек тилининг фонетик ўзгаришларида экономия принциплари. Филол.фан.ном....дисс. - Тошкент,1973. -Б.62.

⁴¹ Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. -Тошкент, 1962. -Б.128.

⁴² Барашков П.П. Звуковой состав якутского языка. -Якутск, 1953. -С.25.

Ba'zi hollarda turkiy tillarga xos bo'lgan bu umumiy tamoyildan chetlanish holatlari, fuziya elementlari ko'zga tashlanadi.⁴³ Xususan, leksik morfemaga grammatik morfemalar qo'shilganda, o'zak (leksik) morfemaning fonetik tarkibida o'zgarish ro'y beradi. Masalan, *ong –angla, qashi-qashla, singil-singli, qizil-qizar* kabi. Natijada bir invariant leksik morfemaning bevosita nutqiy jarayonda *ong-ang, qashi-qash, singil-singl, qizil-qiz* kabi bir necha kombinator variantlar orqali namoyon bo'lishiga olib keladi.

Tildagi har qanday o'zgarish biron bir sabablarsiz ro'y bermaydi. Demak, ko'p morfemali so'z shakllarining o'zak morfema tarkibidagi fonetik o'zgarishning ro'y berishi ham muayyan sabablar asosida vujudga keladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, leksik morfemaga qo'shilgan affiks morfemalar tarixan ikki xil nisbat (o'zlik va orttirma) nisbat shakllari bo'lib, ular o'rtasida neytrallashuv ro'y bergan. Shuning uchun bir xil qurshovda ma'noga ta'sir etmagan holda o'zaro erkin almashinish distributsiya munosabatida bo'lgan. O'zaro erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo'lgan birliklar esa bir invariantning turli variantlari bo'ladi.⁴⁴ Shunday qilib, turkiy tillarda so'z morfemik tuzilishida garchi agglyutinatsiya etakchilik qilsa ham, ayrim hollarda fuziya holatlari ham ko'zga tashlanadi. So'zlarning o'zak morfemasida fuziyaning ro'y berishi leksik morfemaning variantlanish darajasining ko'payishiga olib keladi.

Akkomodatsiya-(muvofiqlashuv). Yonma-yon kelgan undosh va unli tovushlar artikulyasiyasining bir-biriga uyg'unlashuvi; i—u, k—g; kiyik, sigir, bugun, gul. i—u, q —k; qiyin, g'ujum, g'ijim.

Apokopa. So'z o'zagidagi oxirgi unli yoki undoshnig tushishi; do'st-do's, xursand-xursan kabi.

O'zbek tilidagi bu fonetik jarayonlar nutqning qulayligi hamda tejamkorligi uchun xizmat qiladi.

9-ma'ruza. Orfoepiya va orfografiya.

Reja:

1. Adabiy til me'yorlari.
2. To'g'ri talaffuz qilish qoidalari.
3. To'g'ri yozish qoidalari
4. Kirill va lotin yozivi qoidalari..

Tayanch iboralar: *adabiy til, adabiy til shakllari, adabiy til sohalari, orfografiya, orfoepiya.*

⁴³ Кононов А.Н. О фузии в тюркских языках. / Структура и история тюркских языков. -М.:Наука, 1971. -С. 158

⁴⁴ Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. -М.,1959. -С.15.

O'zbek tili o'zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida fonetik, leksik, grammatik jihatdan takomillashdi. Boshqa tillar tojik (fors) tili bilan yaqin munosabatda bo'lib keldi. O'zbek tili turkiy tillar ichida o'zining fonetik, leksik va grammatik jihatidan umumiy o'xshash va farqli belgilarga ega. O'zbek tili boshqa turkiy tillardan singarmonizmning yo'qolganligi va zaiflashgani bilan farqlanib turadi. Hozirgi turkiy tillar singarmonizm qonunining u yoki bu darajada mavjudligi bilan o'zbek tilidan farqlanib turadi.

O'zbek adabiy tili umumxalq tilining ishlagan, sayqallashgan qonun-qoidalariga asoslangan va ma'lum normaga solingan formasidir. Adabiy til xalq tili zaminida yaratiladi. Adabiy tilga shu adabiy til tarmog'idagi biror sheva yoki shevalar asos qilib olinadi.

O'zbek adabiy tiliga Toshkent va Farg'ona (qarluq) shevalari asos qilib olingan.

Har bir davrning o'z adabiy tili bo'lib, u boshqa davr tilidan fonetik va leksik hamda grammatik jihatidan farqlanib turadi. Masalan, Alisher Navoiy davri o'zbek adabiy tili hozirgi va qadimgi o'zbek adabiy tilidan farqlanadi.

O'zbek adabiy tilining tarixi uch katta davrni o'z ichiga oladi.

1. Qadimgi turkiy adabiy til.
2. Eski o'zbek adabiy tili.
3. Hozirgi o'zbek adabiy til.

O'zbek adabiy tili dastlabki davrlarda umum turk adabiy tili sifatida X-XI asrlarda tashkil topgan. Bu davr adabiy tili faqat o'zbeklarning adabiy tili bo'lmay, O'rta Osiyoda yashagan boshqa turkiy xalqlarning umumiy adabiy tili bo'lgan. Shuning uchun ham bu adabiy til qadimgi turkiy til deb ataladi.

Eski o'zbek adabiy tili XIII-XV asrlarda shakllangan bo'lib, u XX asr boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Bu davr adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida Alisher Navoiyning hissasi katta bo'ldi. U o'zining bir qator adabiy-badiiy, tarixiy va ilmiy asarlari bilan, shuningdek, mashhur lingvistik asari "Muhokamatul lug'atayn" asari bilan o'zbek tilining boy va tuganmas imkoniyatlarini ko'rsatib berdi.

Eski o'zbek adabiy tili asosan XIV asrlardayoq shakllanib bo'lgan edi. Bu davr adabiy tili ko'p jihatdan o'zining xalq tiliga yaqinligi bilan xarakterlanadi. Bu davrda bir qator asarlar o'zbek tilida yaratildi. Jumladan, Rabg'uziyning "Qissasul anbiyo", A.Yassaviyning "Hikmat"lari, Xorazmiy va Durbek asarlari shu tilda bitildi.

Eski o'zbek adabiy tili davrida adabiy til arab, fors-tojik tillarini ta'sirida rivojlandi. Bu tillardan ko'plab so'z va qo'shimchalar o'tib o'zlashdi. Bu narsa XX asr boshlarigacha davom etdi.

Hozircha o'zbek adabiy tili o'zbek millatining milliy adabiy tilidir. Bu til o'zbek xalqining o'zaro aloqa va fikr olishi quroli, shu xalqning hamma a'zolari uchun umumiy bo'lgan tildir.

O'zbek milliy tilining shakllanishi o'zbek milliy tilining shakllanishi bilan bog'liqdir.

O'zbek adabiy tili milliy til bosqichiga ko'tarilganga qadar urug' tili, qabila tili va elat tili tarzida rivojlanib-yashab keldi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining boyishi, rivojlanishi va mukammallashuvi eski o'zbek adabiy tili an'analari, xalq tili mahalliy dialektlar va sho'obalarning materiallari ta'siri kuchli bo'ldi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanishida lingvistik va ekstrolingvistik faktorlar katta rol o'ynaydi.

Fonetika bo'limida o'zbek tilidagi tovushlar, ularning turlari, tovush o'zgarishlari, bo'g'in va urg'u kabi hodisalar o'rganiladi.

Leksikologiya bo'limida tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar, ularning maonolari, ko'chma maonoli so'zlar o'rganiladi.

Grammatika bo'limida so'zlarning turkumlari, so'z yasalishi yo'llari, so'z birikmasi va gap, gapning mazmun jihatdan turlari, sodda va qo'shma gaplar tahlil qilinadi.

Orfografiya bo'limida so'zlarni to'g'ri yozish qonun-qoidalari, ularning prinsiplari o'rganiladi.

Orfoepiyada to'g'ri talaffuz me'yorlari, nutq madaniyati shakllari yoritiladi.

Punktuasiya o'zbek tilida tinish belgilarining ishlatilishi o'rinlari, tinish belgilari va yozma nutq masalalaridan bahs qiladi.

Uslubiyatda o'zbek adabiy tili uslublarining xususiyatlari, ularning ko'rinishlari, uslublarning bir-biridan farqi, uslub yaratuvchi vositalar o'rganiladi.

Adabiyotlar.

1. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. Darslik. 1983.
2. I.Qo'chqortoev, R.Qo'chqortoeva. Tilshunoslikka kirish. T., 1981.
3. Головин Б.Н. Введение в языкознание. М., 1977.
4. Реформатский А.А. Введение в языкознание. М., 1960.

10-ma'ruza. Leksikologiya kursiga kirish

Reja:

1. Tilning lug`at tarkibi haqida ma'lumot.
2. Leksikologiyaning tarmoqlari va qismlari.
3. Leksikologiyaning o'rganish ob'ekti, maqsad va vazifalari.

Tayanch iboralar: *leksikologiya, leksika, lug`at tarkibi, lug`aviy birlik, leksik birlik, frazeologik birlik, umumiy leksikologiya, xususiy leksikologiya, qiyosiy leksikologiya, tarixiy leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, onomasiologiya, onomastika.*

Leksikologiya grekcha lekhikos – soʻz va logos – taʼlimot soʻzlaridan olingan boʻlib, tilshunoslikning tilning lugʻat tarkibini, soʻz boyligini oʻrganuvchi, tadqiq etuvchi alohida bir sohasidir.

Tilning lugʻat tarkibi muayyan tilda mavjud boʻlgan soʻz va iboralar majmuidan iboratdir. Soʻz va iboralar birgalikda tilning lugʻaviy birliklarini tashkil etadi. Soʻz – leksik birlik, ibora esa frazeologik birlik deb yuritiladi.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibi keng maʼnoda adabiy tildagi soʻzlar bilan bir qatorda shevalar hamda kasb-hunarga, shuningdek, maʼlum ijtimoiy guruhga oid soʻzlarni ham oʻz ichiga qamrab oladi. Kishi ismlari, laqablar, taxalluslar (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), yulduz va sayyoralar nomlari (astroponimlar), hayvonlarga berilgan maxsus nomlar (zoonimlar) kabi atoqli otlar ham tilning lugʻat tarkibiga kiradi. Lugʻat tarkibi tilning boyligini oʻzida aks ettiradi. Qaysi til soʻzga boy boʻlsa, oʻsha til shunchalik taraqqiy etgan hisoblanadi.⁴⁵

Tilning lugʻat tarkibi doimo oʻsishda, oʻzgarishda boʻladi. Bunda oʻtmishda ishlatilgan bir qancha soʻzlarning eskirib isteʼmoldan chiqishi, avvallari faol qoʻllangan soʻzlarning nafaol qatlamga oʻtishi, ilgarilari kam ishlatilgan soʻzlarning faollashishi, soʻz maʼnosining kengayishi va torayishi, soʻzlarning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi kabi holatlar kuzatiladi. Jamiyat taraqqiy etib borishi natijasida tilning lugʻat tarkibi ikki omil: ichki va tashqi manbalar asosida boyib boradi. Ichki omil deyilganda oʻzbek tilining oʻz imkoniyatlari, qonun-qoidalar asosida yangi soʻzlar hosil qilinishi, yasalishi hamda sheva va lahjalardan adabiy tilga soʻz qabul qilinishi tushuniladi. Lugʻat tarkibi tashqi manba – boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish orqali ham boyiydi.

Tilning lugʻat tarkibi maʼnosida leksika atamasi ham qoʻllaniladi. Darhaqiqat, leksika – tildagi soʻzlarning yigʻindisi, majmuidir. Leksika atamasi adabiy tilning lugʻat tarkibi maʼnosida qoʻllanishi bilan bir qatorda biror sheva yoki lahjaning, maʼlum bir kasb-hunar, sohaning lugʻat tarkibini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Masalan, oʻzbek shevalari leksikasi, oʻgʻuz lahjasi leksikasi.

Leksikologiyaning tarmoqlari va qismlari. Leksikologiyaning bir necha tarmoqlari bor: 1) umumiy leksikologiya, 2) xususiy leksikologiya, 3) qiyosiy leksikologiya, 4) tarixiy leksikologiya, 5) hozirgi leksikologiya.⁴⁶

Umumiy leksikologiya barcha tillar leksikasiga xos boʻlgan umumiy qonuniyatlar, hodisalarni oʻrganish bilan shugʻullanadi. Xususiy leksikologiyada muayyan bir tilning soʻz boyligi oʻrganiladi. Qiyosiy leksikologiyada bir necha qarindosh tillar leksikasi bir-biriga chogʻishtirish, qiyoslash asosida tekshiriladi, ular oʻrtasidagi bir xillik va tafovutlar ochib beriladi. Tarixiy leksikologiyada aniq bir tilning oʻtmishdagi, maʼlum bir davrdagi leksikasi tadqiq etiladi. Hozirgi leksikologiya biror til leksikasining hozirgi davrdagi holatini oʻrganadi. Leksikologiyaning qayd etilgan bu tarmoqlari oʻzaro mustahkam bogʻlangandir. Ular bir-birining materialiga tayanib ish koʻradi.

Leksikologiya bir necha qismlardan iborat: 1) semasiologiya, 2) etimologiya, 3) onomasiologiya, 4) onomastika.⁴⁷

⁴⁵ Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: 2009.

⁴⁶ Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: Фан, 1981.

Semasiologiyada soʻz va uning maʼnosi, leksik maʼno tiplari, semema va uning tarkibi, leksik maʼno taraqqiyoti, leksik maʼnoning miqdoriga koʻra tiplari, soʻzlarning maʼnoviy munosabatiga koʻra turlari, soʻzlarning shakliy munosabatiga koʻra tiplari oʻrganiladi. Etimologiya soʻzlarning kelib chiqishi masalalari bilan shugʻullanadi. Onomasiologiya narsa va hodisalarga nom berish jarayonini oʻrganadi. Onomastika atoqli otlarni oʻrganuvchi, tadqiq etuvchi alohida bir sohadir. Uning antroponimika (kishi ismlarini ilmiy jihatdan oʻrganadi), toponimika (joy nomlarini oʻrganadi), etnonimika (urugʻ, qabila, qavm, millat nomlarini oʻrganadi), kosmonimika (osmon jismlari – yulduzlar, sayyoralar, yulduzlar turkumlari nomlarini oʻrganadi), zoonimika (qush va hayvonlar uchun maxsus qoʻyilgan laqab-nomlarni oʻrganadi), ktematonimika (maʼnaviy, madaniyat obidalarining, ilm-fan, texnikaga hamda badiiy adabiyotga oid asarlarning nomlarini oʻrganadi) singari tarmoqlari bor.

Leksikologiyaning oʻrganish obʼekti, maqsad va vazifalari. Leksikologiyaning obyekti tilning luat boyligidir. Bu boylik tilshunoslikda leksika deb ataladi, u muayyan tildagi barcha shzlarni va shu shzlar bolanishidan tarkib topgan khchma maonoli oʻurilmalarni (iboralarni) hz ichiga oladi.

Leksikologiyaning predmeti – luu boyligining tuzilishi va sistemaviy xususiyatlarini, taraoʻoʻiyot oʻonuniyatlarini, tilning boshhoʻa satxlari bilan alooʻasini tadoʻioʻ oʻilishdir.

Leksikologiyaning vazifalari: a) biror til luat boylagidagi eskirish va yangilanish jarayolarini, bu jarayotlarda lisoniy va nolisoniy omillarning ishtirokini hrganish; b) luaviy birliklarning vazifaviy – maonoviy tavsifini berish shzlarning maono guruʻlarini anioʻlash, yangi va zamonaviy oʻatamlarni tadoʻioʻ etish; s) talabalarni leksikaga oid nazariy bilimlar bilan oʻurollantirish, leksik taxlil namunalarini oʻrgatish.

11-maʼruza. Leksemaning semantik tarkibi

Reja:

1. Soʻzning semantik tarkibi haqida umumiy maʼlumot.
2. Leksik maʼno turlari.
3. Qoʻshimcha ottenka. Soʻzlarda hissiy buyoq va uslubiy belgining ifodalanishi.
4. Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar

Tayanch iboralar: *leksik maʼno, leksik maʼno va tushuncha, bosh maʼno va hosila maʼno, toʻgʻri maʼno va koʻchma maʼno, nominativ maʼno va majoziy maʼno, erkin maʼno va bogʻli maʼno, etimologik leksik maʼno, qoʻshimcha ottenka, hissiy boʻyoq, uslubiy belgi.*

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981.
4. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.
6. www. ziyonet.uz.

Soʻzning semantik tarkibi shu soʻzga xos boʻlgan ikki hodisani: leksik maʼno va qoʻshimcha oʻttenkani oʻz ichiga oladi. Soʻzning semantik tarkibiga aloqador boʻlgan mana shu hodisalarni oʻrganuvchi soha semasiologiya deyiladi.⁴⁸

Maʼlumki, tildagi barcha soʻzlar muayyan bir maʼnoga ega boʻladi. Lekin ular obʼektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, harakat kabilarni bildirishi (tushuncha ifodalashi) va bunday xususiyatga ega boʻlmasligi mumkin. Xuddi mana shu nuqtai nazardan soʻzlar ikki guruhga: 1) tushuncha ifodalaydigan soʻzlar va 2) tushuncha ifodalamaydigan soʻzlarga boʻlinadi. Tushuncha ifodalash – faqat mustaqil soʻzlarga (olmosh bundan mustasno) xos xususiyatdir. Masalan, paxta, suv, kitob, oq, qizil, tekis, tez, sekin, oʻylamoq, yugurmoq, ushlamoq soʻzlari maʼlum narsa, belgi, harakatni bildiradi, shu narsa, belgi, harakat haqidagi tushunchani ifodalaydi. Bu xususiyat shu soʻzlarning maʼnosi hisoblanadi.⁴⁹

Mustaqil soʻz turkumlaridan boshqa turkumlarga oid soʻzlar, chunonchi, yordamchi soʻzlar (bilan, uchun, va, hamda, agar, hatto, basharti kabilar), undovlar (eh, ehe, oh, voh, uf, ey, voy singarilar), taqlid soʻzlar (taq, gup, ship, lip-lip, yilt-yilt, dup-dup, duk-duk va boshqalar), modal soʻzlar (albatta, darvoqe, ehtimol, shubhasiz, darhaqiqat kabilar) tushuncha ifodalamaydi. Chunki bu soʻzlar obʼektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni atamaydi. Shu bois ularda tushuncha ifodalash xususiyati yoʻq.

Demak, aytilganlardan anglashiladiki, faqat tushuncha ifodalaydigan soʻzlargina leksik maʼnoga ega boʻladi. Tildagi soʻzlarning asosiy qismini ana shu tipdagi soʻzlar tashkil etadi.

Leksik maʼno va uning turlari. Soʻzning obʼektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat va shu kabilar haqida maʼlumot beruvchi mazmuni leksik maʼno deyiladi. Masalan, olma, oʻrik, tosh, kitob, daftar, qoʻl, ruchka, qalam soʻzlari predmet-narsalarning maʼlum bir turini; shoʻr, achchiq, nordon, katta, kichik, chuqur soʻzlari maʼlum bir belgini; urmoq, chopmoq, ushlamoq, ishlamoq, oʻynamoq, sakramoq soʻzlari maʼlum bir harakatni; uch, besh, oʻn, yigirma, ellik, yuz, ming soʻzlari maʼlum miqdorni bildiradi, shular haqida maʼlumot beradi. Bular mazkur soʻzlarning leksik maʼnosi hisoblanadi.

Leksik maʼnoli soʻzlar narsa, belgi, harakat kabilarning aynan oʻzini emas, balki ular haqidagi tushunchani ifodalaydi. Tushuncha esa bu obʼektiv borliqdagi

⁴⁸ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

⁴⁹ Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981.

narsa-hodisa, belgi, harakatning kishi ongidagi umumiy in'ikosidir. Tushuncha bir turdagi narsa-hodisalarga xos bo'lgan belgilarni umumlashtiradi. Masalan, daraxt, tog`, tosh haqidagi tushuncha barcha tog`, tosh va daraxtlarga xos umumiy belgilarni birlashtiradi. Darhaqiqat, borliqda daraxtning turi juda ko'p, uning miqdori behisob. Daraxt so'zi shulardan aniq bittasini atamaydi, balki shu predmet haqidagi umumiy tushunchani ifodalaydi.⁵⁰

Leksik ma'no va tushuncha o'zaro uzviy bog'liqdir. Har ikkisi so'zning semantik tarkibidagi asosiy hodisalar sanaladi. Ammo leksik ma'no va tushuncha teng hodisalar emas. Leksik ma'no tilga oid hodisa, tushuncha esa tafakkurga xos hodisadir.

Leksik ma'noning bir qancha turlari bor. Bular lingvistik adabiyotlarda bosh ma'no va yasama (yoki hosila) ma'no, to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no, nominativ (nomlovchi) ma'no va majoziy ma'no, erkin ma'no va bog'li ma'no, asos ma'no va yasama ma'no, genetik ma'no va hosila ma'no, o'zak ma'no va yasama ma'no, asos ma'no va tobe ma'no, etimologik ma'no singari tiplarga ajratilib talqin etiladi. Bu leksik ma'noga turlicha, har xil nuqtai nazardan yondashilganligini ko'rsatadi.

Bosh ma'no va yasama (hosila) ma'no. So'zning birlamchi, dastlabki, asosiy ma'nosi bosh ma'no deyiladi. Boshqacha qilib aytganda u yoki bu leksik ma'noning vujudga kelishi, o'sib chiqishi uchun asos bo'ladigan ma'no bosh ma'nodir. Bosh ma'no taraqqiyoti asosida hosil bo'lgan ma'no yasama ma'no deb yuritiladi. Masalan, ochiq suzsining bosh ma'nosi "berklanmagan" demakdir: ochiq deraza, ochiq darvoza. Eshik va darichalar ochiq bo'lsam ham, uyda birov ko'rinmadi (A.Qodiriy). Ochiq suzsining mana shu bosh ma'nosi ta'sirida yuzaga kelgan: 1) "aniq, ravshan, yashirmay" (ochiq bajarmoq, ochiq aytmoq, ochiq so'zlamoq. Elmurod ko'nglidagini ochiq aytib qo'ya qoldi – P.Tursun); 2) "xushfe'l, xushmuomala" (ochiq qiz, ochiq odam. U ichi kirsiz, serkulgi, ochiqqina bir yigit edi – A.Qodiriy) ma'nolari yasama (hosila) ma'nolardir.

To'g'ri ma'no va ko'chma ma'no. Leksik ma'nolarning bu ikki turi yuqorida qayd etilgan bosh ma'no va yasama ma'nolarga o'xshash. Darhaqiqat, suzning bosh ma'nosi odatda to'g'ri ma'no deb, yasama ma'no esa ko'chgan ma'no deb qaraladi. Masalan ko'z so'zining bosh ma'nosi uning odam a'zolaridan birining nomini – ko'rish organini ifoda etishidir. Bu ayni vaqtda to'g'ri ma'no hamdir (Bobomning ko'zi hali yaxshi ko'radi). Ko'z suzsining derazaning ko'zi, buloqning ko'zi, yog'ochning ko'zi, uzukning ko'zi, xurjunning ko'zi birikmalaridagi ma'nolari yasama ma'nolar, shuning bilan bir qatorda ko'chma ma'nolardir. Shuningdek, burun, quloq, tish, og'iz so'zari odamning burni, odamning qulog'i, odamning tishi, odamning og'zi bog'lanishlarida bosh va to'g'ri ma'noda, choynakning burni, qozonning qulog'i, arraning tishi, g'orning og'zi birikmalarida esa yasama va ko'chma ma'noda ishlatilgan.

Nominativ (nomlovchi) ma'no va majoziy ma'no. Ob'ektiv borliqdagi bevosita tushuncha bilan bog'lanuvchi narsa – hodisa, belgi, harakatni ifodalovchi, uning nomi bo'lib xizmat qiluvchi leksik ma'no nominativ (nomlovchi) ma'no deyiladi.

⁵⁰ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.

Nominativ ma'no voqelik bilan bevosita bog'lanadi. Masalan, gul, til, kalit, qizarmoq, terlamoq so'zarining bosh ma'nolari nominativ ma'nolardir. Majoziy ma'no narsa, belgi, harakat bilan bevosita bog'lanmaydi. U nominativ ma'no orqali ularga aloqador sanaladi. Chunonchi, gul suzsining nominativ ma'nosi o'simlik turlaridan birining nomini anglatib kelishidir. Shu suz yigitlarning guli birikmasida "noyob", "sara" ma'nosini anglatadi. Bu – majoziy ma'no sanaladi. Gul – o'simlik nomi sifatida bevosita voqelik bilan bog'langan. Majoziy ma'noda esa voqelik bilan suzning nominativ ma'nosi orqali bog'lanib kelgan. Til suzsi odamning tili birikmasida "og'izda joylashgan va ta'm – maza bilishga xizmat qiladigan a'zo" ma'nosini – nominativ ma'noni anglatga, dehqonchilikning tilini bilmoq, mashinaning tilini bilmoq bog'lanishlarida "nozik tomon", "sir" ma'nosini – majoziy ma'noni bildiradi.

Erkin ma'no va bog'li ma'no. Nutqda reallashish holatiga ko'ra leksik ma'no ikki turga: erkin ma'no va bog'li ma'noga bo'linadi. Professor A.Hojievning ta'kidlashicha, erkin ma'no narsa, belgi, harakat bilan bevosita bog'lanadigan ma'no bo'lib, uning reallashuvi ma'lum kontekstga, so'z qurshoviga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, o'yin so'zining raqs ma'nosi, chekmoq so'zining ichga tortmoq ma'nosi, yugurmoq fe'lining chopmoq ma'nosi, chap so'zining o'ngning aksi ma'nosi erkin ma'no hisoblanadi. Bu ma'nolar hech qanday qo'shimcha vositaga bog'liq bo'lmagan holda reallasha oladi.

Bog'li ma'no ma'lum so'z yoki so'zlar qurshovidagina reallashadi. Bunday ma'noning yuzaga chiqishi uchun ma'lum so'z shu bog'liq ma'noni reallashtiradigan so'z yoki so'zlar bilangina qo'llanadi. Masalan, chekmoq fe'li "boshidan o'tkazmoq" ma'nosini anglatishi uchun g'am, alam, tashvish, ozor so'zlari bilan qo'llanishi lozim. Bu so'zlarsiz chekmoq fe'lining yuqoridagi ma'nosi nutqda namoyon bo'lmaydi. Shu bois ushbu suzning ma'nosi bog'li ma'no sanaladi.

Qo'shimcha ottenka. So'zning semantik tarkibida leksik ma'nodan tashqari qo'shimcha ottenka ham mavjud bo'ladi. Qo'shimcha ottenka deyilganda hissiy bo'yoq va uslubiy belgi tushuniladi. Hissiy buyoq leksik ma'noga qo'shimcha tarzda sub'ektning turli hissiy munosabatlarini (his-tuyg'ularini, kayfiyatini) ifodalaydi. Hissiy bo'yoq ikki xil: 1) ijobiy, 2) salbiy bo'lishi mumkin. Chunonchi, yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol so'zari leksik ma'no anglatishi jihatidan bir xil, hissiy bo'yoqqa ko'ra esa farqli. Bulardan aft, bashara, turq - salbiy hissiy bo'yoqni, chehra, jamol – ijobiy hissiy bo'yoqni anglatadi. Jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq so'zarida jilmaymoq sub'ektning ma'lum darajada ijobiy munosabatini, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq esa salbiy his-tuyg'uni ifodalaydi. Indamas, pismiqlik, ming'aymas sinonimik qatorida pismiqlik, ming'aymas so'zlari salbiy ottenka belgisiga ega. Novcha va naynov so'zarida naynov so'zi salbiy munosabatni bildiradi. Novcha so'zi esa hech qanday hissiy bo'yoqqa ega emas. Demak, so'zning semantik tarkibida hissiy bo'yoq bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.⁵¹

Uslubiy belgi so'zning biror nutq uslubiga xoslanganligini ko'rsatadi. Masalan, ozod va hur, ovoz va nido so'zlarida hur hamda nido so'zari badiiy uslubga

⁵¹ Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 2009.

xoslanganligi bilan ajralib turadi. Lolagun, ishvanoz, dilband, jilvakor, sanam, farah, yovqur, gulgun, bashar, sarafroz, nigoron, tug`yon, yanglig`, mohtob so`zlari ham badiiy uslubga xos so`zar hisoblanadi. Chiroyli va ketvorgan, pul va mullajiring, chidam va to`zim, ofarin, o`lmang, yashang so`zlari qatorida ketvorgan, mullajiring, to`zim, o`lmang, yashang so`zari oddiy so`zlashuv uslubiga xosdir. Uslubiy belgi semantik tarkibda albatta bo`lishi shart emas. Qayd etgan yuqoridagi misollarimizda chiroyli, pul, chidam, ofarin so`zlarining biror uslubga xoslik belgisi yo`q.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, so`zning semantik tarkibi leksik ma'no va qo`shimcha ottenkadan tashkil topadi. Leksik ma'no turli nuqtai nazardan bir necha tiplarga ajratilib o`rganiladi. So`z ma'nolarini chuqur o`rganish uning semantik qurilishini tasavvur qilish imkonini beradi.

Bir ma'noli va ko`p ma'noli so`zlar. So`zlar bir ma'noli va ko`p ma'noli bo`ladi. Bir ma'noli so`zlar monosemiya, ko`p ma'noli so`zlar polisemiya deb yuritiladi.⁵²

Faqat bitta leksik ma'noni ifodalovchi so`zlar bir ma'noli so`zlar (monosemiya) deyiladi: shahar, qishloq, poytaxt, mahalla, vazir, askiya, din, jilg`a, zovur, kechuv, kitob, daftar, traktor kabi. Ko`pincha ilmiy atamalar bir ma'noli bo`ladi: tuyuq, ruboiy, peyzaj, misra, g`azal, masnaviy, qofiya (adabiyotshunoslikda), kelishik, metateza, urg`u, fonema, sifatdosh, ravishdosh, kesim, to`ldiruvchi (tilshunoslikda), oqsil, azot, vodorod, kaltsiy, xlor (ximiyada), kompas, meridian, masshtab, xarita, ekvator (geografiyada), maxraj, musbat, manfiy, surat, kub, sinus, kosinus, kvadrat (matematikada), jism, energiya, magnit, bug`lanish (fizikada) singari.

Ikki yoki undan ortiq ma'noni ifodalovchi so`zlar ko`p ma'noli so`zlar (polisemiya) deb ataladi. Ko`p ma'noli so`zlar deyarli barcha so`z turkumlarida uchraydi. Ularga er, ko`z, bosh, yo`l, dunyo, kuch (otlar), oq, qora, baland, past, katta, kichik, o`tkir (sifatlar), ko`tarmoq, o`chirmoq, bo`lmoq, olmoq, ajratmoq (fe'llar) so`zlarini kiritish mumkin.

Polisemiya ikki yo`l bilan yuzaga keladi: 1. So`zning yangi ma'nolar kasb etishi natijasida. 2. Ko`p ma'noli so`zdan yoki ko`p ma'noli affiks vositasida so`z yasaliishi natijasida.

Birinchi yo`l – so`zning yangi ma'nolar kasb etishi asosiy va etakchi yo`l hisoblanadi. Bu yo`l vositasida tilimizda juda ko`plab polisemem so`zlar hosil qilingan. Shu yo`l asosida yuzaga kelgan ko`p ma'noli so`zlarga er, til, ko`z, gul, qalin, katta, o`chirmoq, termoq, ko`tarmoq, olmoq kabi so`zlar misol bo`la oladi. Bu so`zlar 4 tadan tortib 20 tagacha ma'no ifoda etadi. Misol tariqasida qalin so`zining quyidagi gaplardagi ma'nolarini ko`rsatish mumkin: Qalin ko`rpacha ustida savol – javobga quloq solib o`tirdi (M.Ismoiliy). Quyosh sekin-asta ko`tarilib, qalin shoxlar orasidan mo`ralay boshladi (I.Rahim). Jinchiroq ham ko`rinmaydi, uy ichi qalin tutun (Oybek). Bozor kuni bo`lganidan rastalarda odam qalin (Oybek). Nizomjonning eng qalin oshnasi Karimjon ham frontga ketdi (S.Ahmad). Misollarimizda qalin so`zi “serpaxta, issiq”, “bir-biriga yaqin, zich joylashgan”, “quyuq, zich”, “ko`p, mo`l”, “qadrdon, yaqin, jonajon” ma'nolarini ifodalamoqda. Qalin so`zining yuqoridagi

⁵² Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.

ma'nolariga e'tibor berilsa, ular o`rtasida aloqa (bog`lanish) borligini yaqqol sezish mumkin. Bu shu ma'nolarning biri boshqasidan kelib chiqqanini ko`rsatadi.

Polisemem so`zlarning hosil bo`lishida ikkinchi yo`lning ham alohida o`rni bor. Bunda ko`p ma'nolilik yasama so`zlar vositasida yuzaga keladi. Agar so`z (o`zak) ko`p ma'noli bo`lsa, undan yasalgan yasama so`zlar ham ko`p ma'noni ifoda qiladi.

Polisemem so`z baland so`zidan –la qo`shimchasi orqali fe'l yasalganda, yasama so`z (balandlamoq) ham ko`p ma'noga ega bo`ladi: Ko`tarma ko`zga ko`rinib, suv balandlab bordi (I.Rahim). Hamsuhbatim gapini shivirlab boshlasa ham, bir zumda ovozi balandlab ketdi (“Mushtum”dan). Narx-navo ancha balandlab qoldi (So`zlashuvdan). Keltirilgan misollarda balandlamoq so`zi “yuqorilashmoq”, “kuchaymoq”, “ortmoq, qimmatlashmoq” ma'nolarini ifoda etmoqda.⁵³

Polisemantik so`zlarning bir guruhi yasovchi qo`shimchalarning ko`p ma'noliligi asosida hosil bo`lgan. Masalan, yog`li yasalmasi: 1) “yog` yuqli” va 2) “seryog`” ma'nolarini anglatadi. Yog`li qo`lini sochiqqa arttdi. Dasturxonga yog`li palov keltirildi. Bunda yog`li so`zining ko`p ma'noli bo`lishiga –li qo`shimchasining polisemantikligi sabab bo`lgan. Gulchi so`zi – “gul ekib, uni etishtiruvchi” va “gul sotuvchi” (gulfurush) ma'nolarini bildiradi.

12-ma'ruza. Leksik ma'no taraqqiyoti.

Reja:

1. So`zning semantik tarkibi (strukturasi)ning o`zgarishi haqida umumiy ma'lumot.
2. So`zning yangi ma'no kasb etishiga olib keluvchi omillar.
3. Nom ko`chishi asosida yangi ma'no hosil qilishning turlari – metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik.
4. Lisoniy omil asosida yangi ma'noning hosil bo`lishi.

Tayanch iboralar: *semantik tarkib (struktura), ko`p ma'nolilik, leksik ma'no, ma'no miqdori, nolisoniy omil, lisoniy omil, nom ko`chishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, ellipsis, kalka, semantik kalka, yangi ma'no, ma'noning kengayishi, ma'noning torayishi.*

So`z semantik tarkibining o`zgarishi – til taraqqiyoti jarayonini belgilovchi muhim omillardandir. Semantik tarkibning o`zgarishida ikki holat – leksik ma'no nuqtai nazaridan o`zgarish va qo`shimcha ottenkalar bo`yicha o`zgarish ko`zga tashlanadi. Leksik ma'no nuqtai nazaridan bo`ladigan o`zgarish: 1) leksik ma'no

⁵³ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.

miqdorining o'zgarishi va 2) leksik ma'no hajmining o'zgarishi hodisalarini o'z ichiga oladi.⁵⁴

Leksik ma'no miqdorining o'zgarishida ikki narsa – ma'no miqdorining ortishi va ma'no miqdorining kamayishi kuzatiladi. Ma'no miqdorining ozayishi kam uchraydigan hodisadir. Bunga ko'ra o'tmishda ko'p ma'noni bildirgan so'zlarning ba'zi ma'nolari davrlar o'tishi bilan yo'q bo'lib ketadi, o'sha ma'noda qo'llanmaydi. Masalan, eski o'zbek tilida tom so'zi: 1) tamba, tirgovich; 2) devor; 3) uy; 4) uyni tepa qismi ma'nolarida ishlatilgan. Hozirda bu so'zning 1, 2, 3-ma'nolari qo'llanilishdan qolgan. Demak, tom so'zining ma'no miqdori kamaygan.

So'z ma'no miqdorining ortib borishi – ko'p ma'nolilik til taraqqiyoti darajasini, rivojlanishini ko'rsatuvchi asosiy omillardan sanaladi. Aytish zarurki, so'zlar dastlab paydo bo'lgan vaqtda birgina ma'noni ifoda etgan. Keyinchalik ob'ektiv borliqdagi narsa-hodisalarning o'zgarishi, ijtimoiy hayotda bo'ladigan har xil o'zgarishlar va boshqa shu singari turli sabablar tufayli so'zlar yangi ma'nolar kasb eta boshlagan.⁵⁵ Darhaqiqat, so'zlarning birdan ortiq ma'noga ega bo'lishi o'sha so'zlar hayotining keyingi davrlariga borib taqaladi. Masalan, olmoq fe'li hozirgi o'zbek tilida 30 ga yaqin ma'noni bildiradi: 1) narsani ushlab yoki biror asbob bilan tutib qo'lga kiritmoq: chaqalarni olmoq, ariqdan suv olmoq; 2) qabul qilmoq: ishga olmoq; 3) bo'shatmoq: ishdan olmoq; 4) tushirmoq, bo'shatmoq: elkasidan yukini olmoq; 5) qo'lga kiritmoq, ega bo'lmoq: paxtadan mo'l hosil olmoq; 6) xarid qilmoq...

So'zning yangi ma'no kasb etishi ma'lum bir ob'ektiv sabablar asosida ro'y beradi. So'zning yangi ma'no kasb etishiga olib keluvchi omillar ikki turlidir: 1) nolisoniy omil, 2) lisoniy omil.

Nolisoniy omil deyilganda nom ko'chishi asosida yangi ma'noning hosil bo'lishi tushuniladi. Nom ko'chishi – so'zning yangi ma'no hosil qilishida asosiy hodisa hisoblanadi. Bunda ma'lum narsa, belgi, harakat bildiruvchi so'z qandaydir o'xshashlik, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik kabilar asosida boshqa bir narsa, belgi, harakatni ham ataydigan bo'lib qoladi, uning ham nomi sifatida ishlatila boshlaydi.⁵⁶

Nom ko'chishi asosida yangi ma'no hosil qilishning to'rt turi mavjud. Bular quyidagilardir: 1) metafora, 2) metonimiya, 3) sinekdoxa, 4) vazifadoshlik.

Metafora. Nom ko'chishi yo'li bilan yangi ma'no hosil qilishdagi asosiy hodisalardan biri metafora hisoblanadi. Biror narsa, belgi, harakat nomining o'zaro tashqi o'xshashligi bo'lgan boshqa narsa, belgi, harakatga nom qilib ko'chirilishi metafora deb yuritiladi. Bunda birorta tomoni – shakli, ko'rinishi, rangi, mazasi, ta'mi, joylashish o'ri va boshqa xususiyatlari o'xshash bo'lgan ikkita predmet, belgi, harakatdan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Masalan, tish so'zi aslida "odamning tishi" ma'nosi ifoda etgan. Keyinchalik u shakliy, qisman vazifaviy o'xshashlik asosida "arraning tishi" ma'nosini ham anglata boshlagan. Bel so'zi dastlab "odamning beli" ma'nosida qo'llangan, so'ng joylashish o'ri, qismi jihatidan

⁵⁴ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

⁵⁵ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.

⁵⁶ Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 2009.

o`xshashlik tufayli “tog`ning beli” ma'nosida ham ishlatilib ketgan. “Qatnov joyi” ma'nosini ifodalovchi yo`l so`zining (katta yo`ldan ketish) “satr, qator” (to`rt yo`l she'r) ma'nosida ishlatilishi ham shakliy o`xshashlikka asoslangandir.

Metafora asosida nom ko`chishining bir necha ko`rinishlari bor. Ular asosan ot, sifat, fe'l turkumiga oid so`zlarda uchraydi. Bularni tubandagicha ko`rsatmoq mumkin.

1. Bir narsaning nomi o`zaro o`xshashligi bo`lgan ikkinchi boshqa narsaga ko`chiriladi, uning ham atamasiga aylanadi: og`iz (odamning og`zi – shishaning og`zi), yoqa (ko`ylakning yoqasi – soy yoqasi), etak (choponning etagi – tog`ning etagi), ko`z (odamning ko`zi – derazaning ko`zi), palla (tarozining pallasi – tarvuzning pallasi), tumshuk (laylakning tumshug`i – kemaning tumshug`i), qosh (odamning qoshi – egarning qoshi), cho`qqi (tog` cho`qqisi – fan cho`qqisi) kabilar.

2. Biror narsaga xos belgi nomi boshqa narsadagi belgiga ko`chiriladi: shirin (shirin olma – shirin so`z), iliq (iliq suv – iliq munosabat), sovuq (sovuq suv – sovuq xabar), egri (egri tayoq – egri ish), beg`ubor (beg`ubor osmon – beg`ubor odam), og`ir (og`ir tosh – og`ir yumush), achchiq (achchiq qalampir – achchiq gap), qattiq (qattiq bodom – qattiq uyqu), yumshoq (yumshoq non – yumshoq ovoz), tez (tez yurmoq – tez odam), taqir (taqir cho`l – taqir bosh), uzoq (uzoq yo`l – uzoq qarindosh), yaqin (yaqin masofa – yaqin kishi), xom (xom hosil – xom gap), toza (toza suv – toza qalb), tiniq (tiniq havo – tiniq fikr), baland (baland bino – baland baho) singarilar.

3. Biror narsaga xos harakatning nomi boshqa narsadagi harakatga ko`chiriladi: ulamoq (arqonni ulamoq – gapni gapga ulamoq), bo`g`ilmoq (arqonga o`ralib bo`g`ilmoq – ishtahasi bo`g`ilmoq), cho`kmoq (imoratning cho`kishi – kishining keksayganda cho`kishi), tushmoq (tomdan tushmoq – mudirlikdan tushmoq), tashlamoq (supurgini tashlamoq – qo`lni elkaga tashlamoq), uchmoq (qushlarning uchishi – samolyotning uchishi), buzmoq (changalzorni buzmoq – rejani buzmoq) kabilar.

Nomning metafora yo`li bilan ko`chirilishida ko`proq quyidagilar asos bo`lib xizmat qiladi: 1) kishi tana a'zolarining nomlari (yuz, bet, bosh, elka, oyoq, qosh, lab, biqin, og`iz, bel, ko`z, iyak, bo`yin, burun kabilar); 2) kiyim-kechak qismlarining nomlari (etak, yoqa); 3) hayvon, parrandalarning a'zolari nomlari (qanot, dum, tumshuq); 4) o`simlik qismlarining nomlari (ildiz, tomir); 5) turli belgilarni ifodalovchi so`zlar (baland, past, egri, shirin, og`ir, xira, chuqur, engil, bemaza, xom singarilar); 6) harakatni ifoda qiluvchi so`zlar (tashlamoq, uchmoq, ulamoq, savalamoq, cho`kmoq, tushmoq, buzmoq, ayirmoq kabilar).

Metonimiya. (yunoncha metonimiya – o`ayta nomlash. Bunday khchirish predmetlar yoki xodisalarining hzaro aloo`adorligiga asoslanadi. Buning o`uyidagi khrinishlari bor:

a) hsimlikning nomishu hsimlik mevasidan yoki bosho`a biror o`ismidan tayyorlangan maxsulotga khchiriladi: choy (hsimlikning bir turi) – choy (shu hsimlikning barglaridan tayyorlangan ichimlik), o`axva (o`axva daraxti) – o`axva (shu daraxt mevasidan tayyorlangan ichimlik)

b) zamon va makonda bir birining bhlisin tao`ozo o`ilgan 'amda birga o`hllanadigan ikki yoki bir necha predmetdan birining nomi ikkinchisiga khchiriladi:

bir piyola choy ichmoo` (piyola hz maonosida) – bir piyola ichmoo` (piyola khchma maonoda)

v) bir predmetning nomi shu predmetdagi bosho`a bir voo`elikka khchiriladi: sinf (ho`uv xonasi) – sinf (ho`uvchilar guru'i)

g) narsa nomi shu narsaga asoslangan hlchov birligiga nom bhlib khchada: kun (o`uyosh) – kun (sutkaning yorio` o`ismi)

d) belgining nomi shunday belgisi bor bhlgan narsaga khchiriladi: khk (rang nomi) – khk (khkat)

e) asar muallifining nomi nuto`da asar maonosida o`hllangan bhlishi mumkin: Navoiyni ho`idim kabi.⁵⁷

Sinekdoxa hodisasi ko`proq o`simlik nomlarida uchraydi. Darhaqiqat, tilimizda meva nomlari (olma, anor, bodom, o`rik, gilos, yong`oq, shaftoli, jiyda, tut kabilar) bilan shu mevalarni beruvchi daraxtlarni atash keng tarqalgan. Bularda qism orqali butun ifodalangan. Quyidagi misollarni qiyoslang: Men go`sht-yog`ni tashlab bo`lib, hovlining to`riga o`rik tergani bordim (M.Ismoiliy). Derazamning oldida bir tup o`rik oppoq bo`lib gulladi (H.Olimjon). Ular boqqa chiqib to`kilgan yong`oqlarni terib turganda, Jonizoq oqsoqol qaytib keldi (S.Anorboev). Adolat chiroqlarni yoqib yuborib, yong`oq tagidagi supaga joy qildi (I.Rahim).

Vazifadoshlik. Ma'lum bir narsa nomi bajaradigan vazifasidagi birlik asosida yangidan paydo bo`lgan ikkinchi bir narsaga nom bo`lib ko`chishi mumkin. Bu vazifadoshlik asosida nom ko`chishi deyiladi. Masalan, o`q so`zi dastlab kamon (yoy) bilan otiladigan to`g`ri, uzun qurolni bildirgan. Keyinchalik miltiq, pulemyot, zambarak, to`p ixtiro qilingach, ulardan otiladigan qurol ham o`q nomi bilan yuritilib ketgan. Bu vazifasi jihatdan o`zaro o`xshashlik tufayli yuz bergan. Darhaqiqat, kamon o`qi bilan zamonaviy qurollardan otiladigan o`qlar o`rtasida bajaradigan vazifasidan boshqa birorta o`xshashlik mavjud emas.

Vazifadoshlik asosida nom ko`chishida narsalarning shakli, yasalishi, materiali e'tiborga olinmaydi. Bunda narsalarning bajaradigan vazifasidagi o`xshashlik tomonlari nazarda tutiladi. Ilgari tugma so`zi asosan bog`ich ma'nosida ishlatilgan. U tilimiz tarixini ko`rsatuvchi ko`pgina yodgorliklarda o`z aksini topgan. Kiyimning ochiq joyini yopish, yopiq joyini ochishda tugma-bog`ichlardan foydalanilgan. Tugma-bog`ichni ifoda etgan narsa turmushda eskirib qo`llanmaydigan holga kelib qolgandan keyin uning o`rnida plastinkacha qo`llana boshlagan. Tilimizda plastinkachani mazkur tugma so`zi ifodalaydigan bo`lgan. Har ikki tugmaning shakli, materiali bir-biridan farq qiladi. Ular o`rtasida faqat vazifaviylik jihatdan o`xshashlik bor, xolos.

13-ma'ruza. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti

⁵⁷ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

Reja:

1. Nom ko'chishi asosida yangi ma'no hosil qilishning turlari – metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik.
2. Lisoniy omil asosida yangi ma'noning hosil bo'lishi.
3. Ma'noning kengayishi va torayishi.

Tayanch iboralar: *ko'p ma'nolilik, leksik ma'no, ma'no miqdori, nolisoniy omil, lisoniy omil, nom ko'chishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, ellipsis, kalka, semantik kalka, yangi ma'no, ma'noning kengayishi, ma'noning torayishi.*

Yangi ma'noning hosil bo'lishida lisoniy omil ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda ikki yo'l: 1) ellipsis va 2) semantik kalka vositasida yangi ma'no hosil qilinadi.

Ellipsis asosida yangi ma'no yuzaga kelganda aslida birikmaga teng birlik tarkibidan biror so'z tushib qoladi. Natijada shu birikmaga xos ma'noni bir so'z ifodalaydigan bo'lib qoladi. Masalan, Bozordan qaytishga tayyorlangan ovqat ugra ekan (Sh.Rizo). Ushbu gapda ugra so'zi asli ugra oshi birikmasini bildirgan. Bu birikmadagi osh so'zi ellipsisga uchrab qo'llanmasligi natijasida birikmaga xos ma'no ugra so'zining o'ziga taalluqli bo'lib qolgan, ya'ni ugra ovqatning nomiga ham aylangan. Dafnga tayyorgarlik ko'ra beringlar. Juda nari borsa ertaga, bo'lmasa shu bugun kechasi uziladi (P.Tursun) gapida uzilmoq fe'li "o'lmoq" ma'nosiga ega. Aslida bu joni uzilmoq birikmasiga xos ma'no. Birikma tarkibidagi jon so'zi qo'llanmaydigan bo'lib borishi tufayli birikmaga xos ma'noni ("o'lmoq" ma'nosini) uzilmoq so'zining o'zi ifoda etib kelmoqda.

Yangi ma'no hosil bo'lishiga olib keluvchi lisoniy omillardan yana biri semantik kalkadir. Bunda chet, chunonchi, ruscha so'zlarga xos ma'no (yoki ma'nolar) tilimizga o'zlashtiriladi. Masalan, san'at saroyi, madaniyat saroyi birikmalaridagi saroy so'zining ma'nosi bevosita dvorets isskustva, dvorets kulturo' birikmalarining kalka yo'li bilan o'zlashtirish asosida vujudga kelgan. Sirtqi so'zining sirtqi o'qish birikmasidagi ma'nosi zaochnoe obuchenie birikmasining kalkasi tufayli paydo bo'lgan. Semantik kalka vositasida yangi ma'no hosil bo'lishi, ayniqsa, terminologik leksikada ko'p uchraydi.

Leksik ma'no nuqtai nazaridan bo'ladigan o'zgarishning ikkinchi bir turi leksik ma'no hajmining o'zgarishidir. Leksik ma'no hajmining o'zgarishi deyilganda ma'noning kengayishi va ma'noning torayishi tushuniladi. So'z ma'nolarining kengayishi va torayishi so'zlarning ma'no taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Ma'noning kengayishi. Jamiyat va til taraqqiyoti so'z ma'nolarining kengayishi uchun imkoniyat yaratadi. Bunda bir ma'no asosida ikkinchi leksik ma'no (yasama ma'no) yuzaga kelmaydi, faqat shu leksik ma'noning hajmi kengayadi. Masalan, tilimizda vatan so'zi ilgari uy-joy, tug'ilib o'sgan qishloqni ifodalagan, hozir u butun mamlakat, ona-yurtni anglatadi. Yurak so'zi kishi a'zolaridan biri ma'nosidan tashqari keng ma'noda – ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'idagi organlarni ham ifodalaydi.

Ma'noning torayishi. Leksik ma'noning torayishi so'z ma'nosining kengayishiga zid hodisadir. Ma'noning torayishi avvalambor umumiylikni

ifodalovchi soʻzning ayrim, xususiy maʼnoni ifodalashi natijasida yuzaga keladi. Masalan, tariq soʻzi oʻtmishda umuman don maʼnosida qoʻllangan, hozir esa donning bir turini ifodalaydi. M.Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida qayd etilishicha, XI asrda kiyik soʻzi barcha vahshiy hayvonlarga nisbatan ham qoʻllangan, soʻng hayvonlarning bir turi – ohuni ifodalashga xoslanib qolgan. Osh soʻzi bir vaqtlar issiq ovqatning barcha turini anglatgan, keyinchalik uning maʼnosi torayib, faqat palov maʼnosini ifodalash uchun qoʻllanadigan boʻlib qolgan.⁵⁸

Tilimizning lugʻat tarkibida oʻzimizniki boʻlgan soʻzlardan tashqari boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar ham mavjud. Bu tabiiy holdir. Chunki oʻzbek xalqi oʻz tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada boʻlib kelgan. Mana shu aloqa-aralashuv natijasi oʻlaroq tilimizga boshqa tillardan soʻzlar kirib, oʻzlashib ketgan. Shu nuqtai nazardan adabiy til soʻzarini tarixiy kelib chiqishiga koʻra ikki guruhga ajratish mumkin: 1. Oʻz qatlam soʻzari. 2. Oʻzlashgan qatlam soʻzari.

Oʻzbek tilining oʻz ichki imkoniyatlari, qonun-qoidalar asosida yaratilgan soʻzlar oʻzbekcha soʻzlar deb yuritiladi. Oʻzbekcha soʻzar quyidagi yoʻllar asosida yaratiladi:

1. Asli oʻzbekcha soʻzlarga shu tilga oid qoʻshimchalarni qoʻshish orqali yasalgan soʻzlar. Bunda –chi, -ma, -lik, -gich, -im singari oʻzbekcha qoʻshimchalar vositasida yasama soʻzlar hosil qilinadi: suvchi, terimchi, oʻquvchi, oʻqituvchi, boshlovchi, kesma, terlama, boshqarma, qorishma, bosma, otalik, onalik, bolalik, yaxshilik, yomonlik, suzgich, muzlatgich, oʻgʻitlagich, sovitgich, terim, yigʻim, boʻlim va boshqalar.

2. Boshqa tillardan kirgan soʻzlarga oʻzbekcha qoʻshimchalarni qoʻshish orqali yasalgan soʻzlar. Bunda oʻzbekcha soʻzar quyidagicha hosil qilinadi: 1) tojikcha soʻzlarga oʻzbekcha qoʻshimchalarni qoʻshish asosida yaratiladi: jangchi, mardlik, tanburchi, dutorchi, vayronalik, sabzavotchilik, chorvachilik; 2) arabcha soʻzlarga oʻzbekcha qoʻshimchalarni qoʻshish vositasida hosil qilinadi: maorifchi, maslahatchi, jamoatchi, murabbiylik, zamondosh, vazirlik, rahbarlik, ovqatlanmoq; 3) ruscha-baynalmilal soʻzlarga oʻzbekcha qoʻshimchalarni qoʻshish orqali yasaladi: traktorchi, sportchi, shofyorlik, demokratlashtirish, elektrlashtirish, mexanizatsiyalashtirish, betonlamoq singarilar.

3. Boshqa tillardan oʻtgan yasovchi vositalar yordamida oʻz va oʻzlashma qatlamdan hosil qilingan soʻzlar. Bunda qoʻshimcha oʻzga tilga oid boʻladi, asos soʻz oʻzbekcha, tojikcha, arabcha, ruscha soʻzlardan tashkil topadi: kitobxon, jurnalxon, bilimdon, savodxon, maʼrifatparvar, adabiyotshunos, tilshunos, partiyaviy, ommaviy, soatsoz, vagonsoz, uysoz, mashinasoz, noaniq, serish, sertarmoq, serhosil, madadkor, bunyodkor, notinch, beish, chizmakash, yoʻlsoz, ilmiy, tarbiyaviy, oilaviy kabilar.

Til leksikasidagi soʻzlar zamonaviyligi hamda eskilik va yangilik boʻyogʻi borligiga koʻra 3 qatlamga ajratiladi: 1) zamonaviy qatlam, 2) eski qatlam, 3) yangi qatlam.

Eski qatlam. Bugungi adabiy til nuqtai nazaridan eskilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlar eski qatlamni tashkil qiladi. Eski qatlamga oid soʻzlar asosiy farqli

⁵⁸ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. –Тошкент: Фан, 1983.

xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) tarixiy so'zlar (istorizmlar), 2) arxaizmlar.

14-ma'ruza. Leksik – semantik guruhlar

Reja:

1. Tilshunoslikda maydon nazariyasi.
2. Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar.
3. Mavzuviy guruhlar.
4. Leksik-semantik guruhlar.

Tayanch iboralar: *maydon nazariyasi, maydon yadrosi, pereferiya qismi, paradigmatic va sintagmatik munosabatlar, mavzuviy guruhlar, leksik-semantik guruhlar..*

Har bir kasb sohasi terminlari o'zbek tili leksik sistemasida maxsus qatlamni tashkil qiladi. Bu qatlam o'z ichida semantik jihatdan umumiy va xususiy belgilariga ko'ra bir necha leksik-semantik guruhlariga bo'linadi. Inson mehnat faoliyati bilan aloqador bo'lgan har qanday kasb o'tmishda ham, hozirda ham o'z terminlarini yaratadi. Umumiste'moldagi xohlagan so'z kasb-kor, soha doirasida maxsus ma'noga ega bo'lishi, termin ma'nosini anglatishi mumkin. Chunonchi, ship, devor, oshxona umumiste'moldagi oddiy so'z, ammo me'morlar, quruvchilar nutqida termindir.⁵⁹

Me'morlik san'ati bilan aloqador bo'lgan ganchkorlik, naqqoshlik, o'ymakorlik, koshinpazlik kabi amaliy san'at tarmovlari terminlarini quyidagi leksik-semantik guruhlariga ajratish mumkin:

1. Soha-kasb ma'nolarini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi.
2. Kasb egalari ma'nosi, shug'ullanuvchi shaxs ma'nosini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi.
3. Me'morlik san'ati – arxitektura ilmiga xos ma'no ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi.
4. Me'moriy bezak detallar va ularning qismlarini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi.
5. Loyihachilik terminmalari leksik-semantik guruhi.
6. Murakkab naqsh sistemasini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi.
7. Tugallangan naqsh kompozitsiyasi ma'nosini ifodalovcha terminlar leksik-semantik guruhi.
8. O'ymakorlik, naqqoshlik usulida ishlangan yozuvli naqshlarga oid terminlar

⁵⁹ Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. М.: Просвещение, 1979. С.264.

9. Me'moriy qurilmalar va ularning tarkibiy qismlarini ifodalovchi terminlar
10. Bino qismlari va ularning va ularning turlarini ifodalovchi
11. Me'morchilikda ishlatiladigan yarim tayyor mahmulot nomlarini ifodalovchi
12. Xom ashyo nomlarini ifodalovchi terminlar
13. Me'morchilikda ishlatiladigan ish qurollari terminlari
14. Mehnat jarayoni ma'nosini ifodalovchi terminlar
15. O'yish usullari va pardo turlarini ifodalovchi
16. Naqsh ishlanadigan yuza – sath ma'nolarini ifodalovchi terminlar
17. Naqsh turlarini ifodalovchi terminlar
18. Me'morlik inshootlarini bezash usullari va turli usul bilan hosil qilingan bezak turlarini ifodalovchi terminlar
19. Rang va bo'yoq turlarini ifodalovchi terminlar
20. Naqqoshlik o'ymakorlik usulida ishlab qiqariladigan predmetlar va ularning qismlarini bildiruvchi terminlar.

Soha-kasb ma'nolarini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhiga me'morlik san'ati bilan bog'liq bo'lgan san'at turlari va kasb-kor tarmoqlariga oid terminlar kiradi. Chunki loyiha chizishdan boshlab, qurish, bezash ishlari me'morlik san'atining tarkibiy qismlaridir. Masalan, *imoratsozlik, uysozlik, duradgorlik, binokorlik, sirkorlik, naqqoshlik, toshtaroshlik-sangtaroshlik, o'ymakorlik, oynazand o'ymakorlik, koshinkorlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, marmar o'ymakorligi, bo'yoqchilik, suvoqchilik, ta'mirchilik, restavratsiya, chizmakashlik, loyihachilik, mayolika, moziika, lepka.*

Maloyika (ital.) sirli koshinlardan naqsh ishlash san'ati. Maxsus formalarda pishirilgan rangli, gulli koshin; yirik inshootlar devorlariga mayolika usulida naqsh-tasvirlar ishlanadi. *Mozaika* (ital.) rang-barang shisha, tosh, yog'och, faner va boshqa buyum qiyqindilarini bir-biriga yopishtirish usuli bilan naqsh-tasvir, rasm ishlash kasbi. *Lepka* (rus.) turli tasvir shakllarni yuzaga (devor yuzasi) yopishtirish usuli bilan naqsh detallarini yaratish san'ati.

Kasb egalari ma'nosi, shug'ullanuvchi shaxs ma'nosini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhiga kiruvchi terminlarni kasb egalari o'rtasidagi ayrim urf-odatlar, sotsial munosabatlarga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) *arxitektor, restavrator, banno, me'mor, muhandis, tarroh, panjaraboz, binokor, ganchkor, sirkor, koshinkor, o'ymakor, koshitarosh, sangtarosh, lepszchik, loyihachi, muqarnaschi, sayqalchi, ta'mirchi, shlifovkachi, chizmachi, loyihalovchi, o'ymakor naqqosh, tiklovchi rassom, ta'mirchi usta, g'isht teruvchi, arrakash* va b.; b) kasb egalarining o'zaro rasmiy munosabati, ish boshqarishi, darajasiga ko'ra berilgan nomlarni ifodalovchi terminlar: *ustoz, ustazoda, naqqoshzoda, shogird, g'olib, oqsaqol, pudratchi, usta, oqsaqol, master, ustaboshi, korgar, bosh me'mor, najjorboshi* kabi.

Cho'bkor (f-toj.) – sinchli imoratlar ustasi, quruvchi me'mor ma'nosini bildiradi. Cho'bkor termini me'morlik leksikasida umumlashgan xarakterdagi ma'no bildiruvchi termin. Buning sababi cho'bkorlik o'z ichida duradgorlik, durezgilik, najjorlik ishlarini birlashtiradigan maxsus termin.

Duradgor (f-toj.) – yog'och ishlari mutaxassisi, ammo duruzgar (f-toj.) oddiy yog'och ishlari ustasigina bo'lmay, o'ymakor eshiklar, tobadon, panjaralar yasovchi usta hisoblanadi.

Najjor (a.) – yog'och ishlari bilan shug'ullanuvchi usta. Bu termin tojik tillaridagi duradgor, rus tilidagi plotnik, stolyar ma'nosini beradi. O'zbek tilida najjor termini tojik tilidan o'zlashgan duradgorning sinonimi, ammo najjor hozirgi o'zbek tilida passiv iste'moldagi eskirgan so'zdir.

Yana bir qanchasi najjoru naqqosh,
Bo'lolmas hech kim o'z davrida tengdosh.

(Habibiy)

Me'morlik san'ati – arxitektura ilmiga xos ma'no ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi me'morlik, naqqoshlik, o'ymakorlik kabi san'at sohalari bilan aloqador qonuniyatlar, qurish, ta'mirlash, naqsh yaratish usullariga oid terminlar kiradi: *arxitektura ansabli, assimetriya, gotika uslubi, gabarit, garmoniya, gumbaz-ravoqli konstruksiya, dekoratsiya, deformatsiya, yog'och strukturasi, ichki interer, kontrast uslub, kompozitsiya, kompanovka, kolorit, kontur, kompleks, konservatsiya, maket, mutanosiblik, mayda struktura, bichim, namoyon proportsiyasi, ornament kompozitsiyasi, plastik echim, rang garmoniyasi, stilizatsiya, simmetriya, soya, rapport, taqsim, hajmli arxitektura detali, murakkab hajmli detal* va b.

Me'moriy bezak detallar va ularning qismlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi yirik inshootlar, ijtimoiy binolar, ayniqsa, milliy-madaniy traditsiyalar, diniy urf-odatlar bilan bog'liq me'moriy qurilmalarda turli bezak detallardan foydalaniladi. Bunday bezak detallaor shaklan binoning tarkibiy qismi kabi ko'rinadi va amaliy funktsiyalardan tashqari, ko'proq estetik talab, go'zallik uchun xizmat qiladi. Masalan, *abak, arkada, aroqi, bag'al, guldasta, gumbaz, davra qavasa, davra ravoq, karniz, kolonna, ko'zagi, kapitel (bosha), ravoqli kosacha, kosamon, pilamon, kitoba, minora, muqarnas, qubbali fonus, timpan, ravoq, peshtoq, toq, hovzak* va b.

Loyihachilik bilan aloqador terminlar leksik-semantik guruhiga me'moriy inshootlar, me'moriy bezak detallar, murakkab naqsh sistemalari, ta'mirlash ishlari bilan aloqador loyihalar yaratishga oid terminlar kiradi. Misollar: *ornament chizmasi, naqsh loyihasi, namoyon o'lchami, kapitely chizmasi, chizma, gumbaz chizmasi, geometrik chiziq, gul eskizi, bichim chizmasi, o'q chizig'i, eskiz, egri sirt, chiziqsiz sirt, tarh, loyiha, radius chizig'i, proekt, plan, perimetr, paralleloped, musavvada, millimetrovka, mashtab katagi, kontur chiziq, konoid, ichki yoy chiziq, yordamchi chiziq, yoy radiusi, yoy kesishmasi* va b.

Murakkab naqsh sistemasini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. Murakkab naqsh sistemalari asosida murakkab hajmli naqsh detallari hosil qilinadi. Murakkab hajmli naqsh detallariga ganchkorlik va yog'och o'ymakorligi usulida ishlanadigan muqarnas, iroqi, sharafa tipidagi me'moriy bezak detallar kiradi. Muqarnas (a.)- minoraning tepa qismi, ustun boshasi (kapitel), xona shifti, hovzak, karniz va mehrobiy tokchalarga ishlanadigan murakkab naqsh sistemasi. Muqarnas qator bo'ylab geometrik formada terib chiqiladigan ravoqli kosachalardan shakllanadi. "Kocha"larning ma'lum tartibda terilishi yoki o'yilishi asosida g'orlarda yoki tom bo'g'otlarida osilib turadigan sumalak (rus. stalaktit) ko'rinishlariga o'xshash murakkab hajmli arxitektura bezak detali hosil bo'ladi. muqarnasning ikki turi mavjud: muqarnas tipi, iroqi tipi. Muqarnas tipida murakkab naqshli ravoqli kosachalarga o'xshash qismlari aloqida detallardan terib chiqiladi. Iroqi tipida

naqshning ravoqli kosachaga o'xshash detali tekis ganch yuzaning o'zida o'yib hosil qilinadi. Muqarnas naqsh sistemasi bir necha usul bilan hosil qilinadi: taxta muqarnas, quyma muqarnas (qolipli ganch muqarnas), o'ymakor ganch muqarnas, koshinkoriy muqarnas kabi.

Sharafa (a) – ganchkorlikda, asosan to'g'ri yuzada qo'llanadigan, shift bilan devorni bir-biridan belbog' shaklida ajratib turadigan murakkab naqsh sistemasi. Sharafa ham muqarnasga o'xshab geometrik shaklda qator bo'ylab bir-birining ustiga terib chiqiladigane detallardan shakllanadi. Sharafa xonalarning naqsh kompozitsiyasini ajratish, bo'rttirish, muqarnas esa gumbaz ichida, xona shiftlarida, qandil atroflarida ishlanib, markazni bo'rttirish uchun xizmat qiladi.

Tugallangan naqsh kompozitsiyasi ma'nosini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. Naqqoshlik, ganchkorlik usulida ishlanadigan naqsh elementlarining qo'shilishidan hosil bo'ladigan ko'rinish, manzara tugallangan kompozitsiya sanaladi. Tugal kompozitsiya sanaladigan naqsh "namoyon" nomlanadi. Namoyon (f-toj.) nusxalari uchun turunj, guldondagi gul, medal'on, madohil kabi naqshlar asos bo'ladi. naqqoshlik, ganchkorlik usulida ishlanadigan tugallangan naqsh kompozitsiyalari (namoyonlar) xona devorlari va shiplarga ishlanadi.

Namoyonning quyidagi turlari mavjud: *naqshi namoyon*, *o'ymakor namoyon*, *mehrobi namoyon*, *chorsi namoyon*, *serafor shabaki namoyon*, *majnuntol panno*, *majnuntol paxta gulli palak* ("Navoiy" teatri sirtqi zali devorlariga Usta Toshpo'lat Arslonqulov tomonidan ishlangan toshkent palagi nusxali namoyon), *turunj namoyon* va b.

O'ymakorlik, naqqoshlik usulida ishlangan yozuvli naqshlar. Qadimgi me'morlik yodgorliklarida turli yozuvli naqshlar ishlangan. Yozuvli naqshlar arab yozuvi bilan o'ymakor ustunlar, eshiklar, yog'och taxtalarga yozilgan. Bunday yozuvli naqshlar g'isht terish usuli bilan ham ishlangan. Misollar: sexat (f-toj-a), kitoba (a) – naqqoshlik usuli bilan devor yuqorisiga ishlangan naqsh; xatti nasxiy (f-toj.) – XVI asr Xiva obidalarida o'ymakor ustunlarga bitilgan naqsh; *xatti ko'fiy* (f-toj.) – o'ymakor ustun naqshi; *kalima* – arab yozuvida bitilgan naqsh turi; *xatti suls* (f-toj-a) – kesma koshin bilan terib yozilgan naqsh.

Me'moriy qurilmalar va ularning tarkibiy qismlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. Me'morlik inshootlari turli davrlar mahsuli sifatida qadimiylilik va zamonaviylilik xususiyatiga ega. Qadimiylilik xususiyatiga ega bo'lgan terminlar: *arka*, *ayvon*, *avanzal*, *aylanma zina*, *daxma*, *dalon*, *koshona*, *ko'shk*, *madrasa*, *sardoba*, *tim*, *xonaqoh*, *shohnishin*, *shahriston*, *chortoq*, *qal'a*, *kox*, *saroy*, *shiypon*, *peshtoqli darvoza*, *davra ko'shk*, *qafasa*, *fonus* kabi. Zamonaviy xususiyatga ega bo'lgan terminlar: *kottedj*, *pavilon*, *balkon*, *veranda*, *vestibyul*, *mehmonxona*, *kontrfors*, *kalorifer* kabi.

Bino qismlari va ularning turlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. Bino qismlarining ham o'ziga xos nomlari mavjud: *boza*, *bozu*, *bel*, *balka*, *dila*, *o'rta dila*, *deraza qanoti*, *izora*, *taxmon*, *tokcha*, *panel*, *poydevor*, *qalam*, *fundament*, *xari*, *piramon*, *pillapoya*, *peshtaxta*, *mauerlat*, *ustun*, *chorcho'p*, *bag'dodi*, *nishon*, *xotamkoriy eshik*, *Huvaydo bog'dodiy*, *hovuzakli ship*, *qo'shsinch*, *xarsangtosh poydevor*, *ravoqli eshik*, *osma shift*, *naqshin eshik*, *mehrobi tokcha*, *lampa shift*, *koshinkoriy izora* va b.

Me'morchilikda ishlatiladigan yarim tayyor mahsulot nomlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. Me'morchilikda quyidagi yarim tayyor mahsulot nomlari mavjud: *asal, muloyim, ganchtaxta, ganchplita, ganchxok, ganchin taxtacha, xobonda ganch, xovonda xok ganch(qorishma), qir qorishmasi, ohak qorishmasi, gipsli qorishma, tsementli qorishma, haftjo'sh, kapganch, ganch qormasi, alebastr qorishmasi, tezganch, gulganch* va b.

Xom ashyo terminlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. Bu guruhga me'morlik, ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan xom ashyo mahsulot nomlari kiradi: *akvarelb, alebaster, alif, albbumin, beis, belila, Bf, bo'r, ganch, gilmoya, gilvata, granit, garafit, grunt, guashb, elim, yog'och, zarhal, kafelb, koshin, lux, malaxit, marmar, lok, moy bo'yoq (emalb), morilka (tezob), ohor, parchin, PVA, pigment, plita, sadaf, taxta, terrakota, toshoyna, to'zg'oq faner, jaydari g'isht, kvadrat g'isht, musulmon g'isht, rus g'ishti, sirkor sopol, qizil kesak, o'rik elimi* kabi.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan yog'och turlari: *arg'uvon buk, gujum, eman (dub), yong'oq, jo'ka, klyon, ko'k terak., oq terak, mirza terak, sada g'ayrag'och, tilog'och, chinor, o'rik, qayrag'och* va b.

Me'morchilikda ishlatiladigan ish qurollari nomlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. Bu guruh, avvalo, ikki guruhga bo'linadi: a) elektr asboblari; b) qo'l asboblari. Elektr asboblari: *avtoshpunt, avtoranda, kraskaterka (bo'yoq tayyorlash mashinasi), motopilka, reysmus, parmalash stanogi, frezer stanogi, tokarlik stanogi, tebranma elak, elektr arra, elektr parma*. Qo'l asboblari: *arra, andava, belcha, bolg'acha, verstak (dastgoh) burg'i, andaza, ahta, gazcho'p, gurzi, go'niya, dasmol, dasarra, iskana, iskanja, kajava, minkor, mo'yqalam, tig', trafaret, shovun, chekich, chizg'ich, gul randa, gul qalam, gurzi qalam, dudama qalam, zamin iskana qalam, pilta qalam, siyoh qalam* va b.

Mehnat jarayonini ma'nosini ifodalovchi atamlarning leksik-semantik guruhi. Ishlab chiqarish jarayonini ifodalovchi terminlar guruhiga naqqoshlik, ganchkorlik, toshtaroshlik, yog'och o'ymakorligi sohalariga oid mehnat jarayoni bilan aloqador bo'lgan terminlar kiradi: *ganchlash, alebastrlash, zarhallash, tarash, targ'illash, ta'mirlash, tezganch berish, chekichlash, koshin qoplash, tarh chizish, tosh kesish, ship ochish, muqarnas o'yish, eskiz chizish, hal berish* kabi.

O'yish usullari va pardoiz turlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. O'ymakorlik – ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi naqsh solishning o'ziga xos uslublari bor. O'yish usullariga qarab pardoiz usullari kelib chiqadi. Masalan, *bo'rtma, bag'dodiy o'yma, oynavand zaminli o'yma, uch qirralli o'yma, yassi bo'rtmali o'yma, qirma, pargori, uchburchak kesim, ko'ndalang kesim, zaminsiz chizma, ko'p planli bo'rtma uslubi, zaminkor pardoiz, yoyma pardoiz, zaminsiz lo'la pardoiz, choka pardoiz, pax pardoiz, tabaqa pardoiz, yoyma pardoiz, chizma pardoiz* va b.

Naqsh ishlanadigan yuza – sath ma'nolarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. O'ymakor, naqqosh ustalar naqsh ishlashdan avval naqsh tushiriladigan yuzani (yog'och, ganch, devor, taxta) naqsh berishga moslaydilar, mavjud yuzani mo'ljallab ish ko'radilar. SHunga ko'ra yuzalar quyidagicha

nomlanadi: *zamin, katta zamin, kichik zamin, oyna zamin, tekis zamin, tekis sath, fon, chakich zamin, faktura, ko'p planli bsharta yuza* va b.

Naqsh turlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. Amaliy san'at turlarida, jumladan me'morlikda, asosan ikki xil naqsh sistemmasi mavjud. Shu ikkala naqsh guruhning qo'shilishidan uchinchi xil aralash sistema kelib chiqqan:

1. Girih naqsh sistemasi
2. Islimi naqsh sistemasi
3. Aralash yoki murakkab naqsh turi.

Girih (a. girih-chigal tugun) takrorlanuvchi rapport – taksimlar asosida geometrik figuralardan shakllanuvchi handasiy naqsh. Girih naqshi geometrik doira o'qi tevaragida bir xilda takrorlanuvchi geometrik figuralardan hosil bo'ladi. Me'mor-naqqoshlar girih tuzishda pargor va chizg'ichdan foydalanadi. Girih naqshi asosida ma'lum qonuniyat yotadi. SHuning uchun ham geometrik naqsh – girih teng bo'laklarga qoldiqsiz bo'linishi mumkin. O'zbekiston arxitektura yodgorliklarida saqlanib qolgan girih namunalari bu naqsh sistemasining tarixi uzoqligini ko'rsatadi.⁶⁰

Islimi (a) – o'simliksimon (nabotiy) naqsh. Amaliy san'at turlarida keng qo'llanadigan asosiy naqsh gruppalaridan biri. *Ismili naqshi tanob, band, kurtak* kabi o'simlik naqsh elementlarining o'zaro birlashib ketishidan hosil bo'lgan. Islimi naqshi uzluksiz davom etadigan to'liqlik chiziqli shaklini eslatadi. Toshkentlik yog'och o'ymakori Ortiq Fayzullaev islami naqshini “o'suvchi naqsh” deb nomlaydi.⁶¹ Chunki bu naqsh turi daraxt ildizidan tanasi, shoxi, novdasi, bargi, guli o'sib chiqqani kabi bir nuqtadan boshlanib, pechaksimon o'ralib-o'ralib davom etib ketaveradi.

Girih, islami va ularning aralashishidan hosil bo'lgan naqsh turlariga misollar: *to'g'ri chiziqli girih, aralash chiziqli girih, shash girih, pardori girih, belboh girih, qirrali yulduz, gulli bodom, guli burchi, guli islami mug'cha, islami arus, islami bodomcha, islami bargak, qo'shtanob islami, guli girih* va b.

Me'morchilik inshootlari bezash usullari va turli usul bilan hosil qilingan bezak turlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. Me'morlik inshootlarini bezashta, ayniqsa, zamonaviy arxitekturada naqqoshlik, o'ymakorlik, koshinkorlikdan tashqari turli usullardan foydalanadi. Jumladan: a) bezash usuli: *amper* (fr-rus), *alfrey* (ital-rus), *freska* (atal-rus) qo'l suvoq ustidan naqsh berish, *applikatsiya* (lat-rus), *bo'rtma naqsh, qoplama pardoz, sirkor parchin qoplama, koshinkor qoplama, mozaik preska* (ital-rus), *kundal, qolipaki usul* va boshqalar; b) turli usullar bilan berilgan bezak turlarini nomlovchi terminlar: *ganchin bezak, ganchkoriy bezak, bo'rtma hoshiya, o'yma gul, pargori naqsh, o'yma pargori, quyma naqsh, sirkoriy bezak, xotamkoriy, naqshin gul, naqshin bezak, koshin bezak, koshin gul, koshinkoriy bezak* va b.

Rangli va bo'yoq turlarini ifodalovchi terminlar. Ganchkorlik, ayniqsa, naqqoshlik – sirkorlik bezaklarida turli ranglar va bo'yoqlardan foydalaniladi.

⁶⁰ Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана.-Т.;ГИХЛ, 1961, 183-бет.

⁶¹ Турсунова Т. Ўша асар. 94-бет

Masalan, *sovuq ranglar, issiq ranglar, iliq ranglar, axromatik ranglar, xromatik ranglar, moviy rang, lojuvard (fors. to'q ko'k tusli mineral), tillarang, targ'il, zangori, shingarf, kumush kukunli bo'yoq, qo'rg'oshin bo'yoq, emal, emulsiya* va b.

15-ma'ruza. Leksemalarning ishlatilish doirasi

Reja:

1. Iste'mol doirasi jihatidan o'zbek tili leksikasi haqida umumiy ma'lumot.
2. Umumiste'moldagi so'zlar va ularning turkum jihatidan turlari.
3. Iste'mol doirasi cheklangan so'zlar.
4. Dialektizmlar va ularning turlari.
5. Ilmiy atamalar va kasb-hunarga oid so'zlar.
6. Jargon va argolar.

Tayanch iboralar: *umumiste'moldagi so'zlar, iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar, dialektal leksika, dialektizm, shevaga xos so'z, leksik dialektizm, semantik dialektizm, fonetik dialektizm, grammatik dialektizm, terminologik leksika, atama, atamashunoslik, ilmiy atamalar, kasb-hunar leksikasi, professionalizm, jargon, argo.*

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya, 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: Фан, 1981.
4. Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.
6. [www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

Tilimiz lug'at tarkibidagi so'zlar ishlatilish, qo'llanilish doirasi jihatidan avvalo ikki guruhga bo'linadi: 1) umumiste'moldagi so'zlar; 2) iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar.⁶²

Umumiste'moldagi so'zlar. Hozirgi o'zbek tili leksik boyligining asosini umumiste'moldagi so'zlar tashkil etadi. Bunday so'zlar yoshi, kasbi, yashash joyi, madaniy saviyasidan qat'iy nazar o'zbek tilida gaplashuvchi barcha kishilar uchun tushunarli bo'ladi, nutqda keng tarzda ishlatiladi. Umumiste'moldagi so'zlar kundalik turmushda zarur bo'ladigan narsa, belgi, harakat nomlari kabilarni ifodalaydi. Osh, non, yo'l, daryo, dehqon, yuz, ota, ona, uzoq, elak, ovqat, yaxshi, yomon, oq, qora, tez, sekin, kun, olmoq, bermoq, emoq, yotmoq, uxlamoq, ishlamoq singarilar umumiste'moldagi so'zlar jumlasiga kiradi.

⁶² Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.

Umumiste'moldagi soʻzlarning asosiy qismi oʻz qatlamga oid soʻzlardan iborat. Shu bilan birgalikda bunday soʻzlar tarkibida tojik tilidan (sabzavot, chorva, obroʻ, omad, dugona, dutor, xona), arab tilidan (maktab, kitob, machit, anhor, muomala, soat, oila, rais), rus tilidan (radio, televizor, stol, stul, magazin, kino, teatr, ruchka, jurnal) oʻzlashgan soʻzlar ham anchagina miqdorni tashkil etadi. Demak, umumiste'moldagi soʻzlar oʻz qatlamga oid soʻzlardan, shuningdek oʻzlashma soʻzlardan iborat boʻlishi mumkin.

Iste'mol doirasi chegaralangan soʻzlar. Tilimizdagi ayrim soʻzlarning iste'mol doirasi ma'lum jihatdan chegaralangan boʻladi. Qoʻllanish doirasi chegaralangan bunday leksika ishlatilishi hududga koʻra, ishlatilishi kasb-hunarga qarab, ishlatilishi biror ijtimoiy guruhga nisbatan cheklangan boʻlishi mumkin. Xuddi shu nuqtai nazardan ushbu tur leksika chegaralanish xarakteriga qarab uch turga boʻlinadi: 1) dialektal leksika; 2) terminologik leksika; 3) jargon va argolar.⁶³

Dialektal leksika. Ishlatilishi hududga koʻra cheklangan soʻzlar dialektal leksikani tashkil etadi. Dialektal leksika ma'lum hududda yashaydigan barcha kishilar qoʻllaydigan, oʻsha erdagi aholi nutqiga xos boʻlgan soʻzlardir. Binobarin ma'lum bir lahja va shevalarga xos boʻlib, adabiy til leksikasiga kirmaydigan bunday soʻzlar dialektizmlar deyiladi. Misollar: Namangan shevasiga xos boʻlgan soʻzlar: joyish (uyning old qismi), dukort (qaychi), aba (ona), patinjon (pomidor), gudda (buyrak), yova (begona), olvali (olcha); Qoʻqon guruhi shevalariga xos boʻlgan soʻzlar: poʻp (choy qaynatadigan bak), poʻpchil (samovarchi), olamazon (oʻt, olovning gurullab yonishi), rovindik (choyshab), paymanchak (ariqdan suv oladigan maxsus joy), opchin (devor tagidan oʻtkaziladigan suv yoʻli), kulang (havoning aynishi), poychoʻkir (kirishimli, sodda), logʻar (eski), mosov (garang), uvdiq (lanj, boʻshashgan), qirpi (mugʻombir), saltisvoy (bolasiz ayol, xotin), xoʻpitmoq (choʻmilmoq) singarilar.

Dialektizmlar quyidagi turlarga boʻlinadi: 1) leksik dialektizmlar; 2) semantik dialektizmlar; 3) fonetik dialektizmlar; 4) grammatik dialektizmlar.⁶⁴

Dialektizmlarning soʻzlardagi koʻrinishi, soʻz doirasidagi turi leksik dialektizmlar deyiladi. Ular dialektizm – soʻz deb ham yuritiladi: beshaxa – panshaxa (Qarnoq), xalpa – otin, gʻoʻz – yongʻoq (Xorazm), doʻgʻov – sopol idish, dufarak – duradgor (Andijon), belqars – belbogʻ (Qashqadaryo), qiyar – bodring (Shovot), daskalla – barg kesadigan asbob (Qoʻqon), barang – kartoshka (Olmos), gʻoʻlung – oʻrik (Bogʻot), jejak – pakana (Sayram), hapaza – choʻmilmoq (Namangan), barakgirak – chovli (Samarqand), bugʻaq – bulutli havo (Qorakoʻl), kavash – noʻxat shoʻrak (Turkiston), jululi – qirgʻiy (Zomin), kalak – shoxsiz echki (Joʻsh) kabilar leksik dialektizmlarning yorqin namunasi.

Yozilishi va talaffuzi bir xil boʻlgan ayni bir soʻz adabiy tilda ham, shevada ham boʻlishi mumkin. Lekin ular adabiy tilda va shevada boshqa-boshqa maʼnolarda qoʻllaniladi. Demak, biror soʻz adabiy tilda ham, shevada ham mavjud boʻlib, shevada adabiy tilda boʻlmagan maʼnosi bilan qoʻllansa, bunday soʻzlar semantik dialektizmlar deyiladi. Masalan, adabiy tildagi lagan soʻzi Samarqand shevasida

⁶³ Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.

⁶⁴ Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya, 2009.

tog'ora; eshik so'zi Andijon, Marg'ilon shevalarida hovli, uy; toza so'zi Xorazm shevasida yangi; dim so'zi juda ma'nolarida ishlatiladi. – Eshikdagilar tinchmi? (S.Ahmad) gapida eshik so'zi “hovli, uy” ma'nosi bilan semantik dialektizm bo'lib kelgan.

Adabiy tildagi so'zlarni sheva vakillari o'z shevalarining fonetik qonuniyatlariga amal qilgan holda talaffuz etadilar. Tovush o'zgarishi va talaffuziga uchragan bunday so'zlar fonetik dialektizmlar deyiladi: mayram (bayram), michicha (musicha), salqit (sarqit), lodon (nodon), mishiq (mushuk), choch (soch), sov (sog'), obchiq (olib chiq) kabilar. Qipchoq lahjasida y tovushi o'rniga j undoshining (yo'q-jo'q, yuz-juz, yo'l-jo'l, yo'ring-juring, yomon-jomon, yigirma-jigirma kabi), o'g'uz lahjasida adabiy tildagi k o'rnida g tovushining (ko'rish-go'rish, keldi-galdi, ko'mma-go'mma), t tovushi o'rnida d tovushining (tuz-duz, to'rt-do'rt, Turdi-Durdi, til - dil kabi) qo'llanilishi fonetik dialektizmlarni vujudga keltiradi.

Biror shevaning o'ziga xos grammatik shakllari grammatik dialektizmlar deyiladi. Adabiy tildagi “-miz” shaxs-son qo'shimchasi o'rnida Toshkent shevasida “-vuz” qo'shimchasining (boramiz-boravuz, kalamiz-kelavuz kabi), adabiy tildagi “-yapti” hozirgi zamon fe'li qo'shimchasi o'rnida Buxoro shevasida “-opti”, Toshkent shevasida “-votti”, Namangan shevasida “-utti” qo'shimchasining (kelyapti-kelopty, kelavotti-kelutti kabi), adabiy tildagi “-da” o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi o'rnida Samarqand, Buxoro shevalarida “-ga” qo'shimchasining (magazinda-magazinga, urushda-urushga kabi) qo'llanilishi grammatik dialektizmlar hisoblanadi. Qorinlar ham piyoz bo'lib to'xtabtu, nonushtani qaerga qilamiz, Shariyf? – Choyxonaga qilamiz (A.Qodiriy) gapida qaerga, choyxonaga so'zlari grammatik dialektizm bo'lib kelgan.⁶⁵

Dialektizmlar badiiy asarlarda ishlatiladi. Mualliflar voqea-hodisa ro'y bergan joyning ruhini berish, asar qahramonlarining nutqini xususiylashtirish uchun dialektizmlardan foydalanadilar. A.Qodiriy, S.Ayniy, Oybek, A.Qahhor, Said Ahmad, Mirmuhsin, O'.Hoshimov, O.Muxtorovlar asarlarida dialektizmlar o'rinli ishlatilgan. Misollar: Qishloq o'rtasidan ro'd o'tar edi (S.Ayniy). Men sizga inak sog'ishniyam o'rgataman, - dedi Rayhonbibi Oliyaga (O.Muxtorov). Yoshulli, saning qizing bunda galtirilmagan (Mirmuhsin). Jo'ra muzday suvda yuvindi-da, ayvon qozig'idan surgi olib artindi (Oybek). Keltirilgan misollarda ro'd dialektizmi – ariq, inak – sigir, yoshulli – oqsoqol, surgi – sochiq ma'nolarida qo'llangan.

Dialektizmlar adabiy til leksikasini boyituvchi muhim ichki manbalardandir. Hozirda tilimizda qo'llanuvchi elvizak, dugona, jo'ra, elvagay, ko'pkari, zirbak, qirqim, to'l so'zlari asli shevalardan kirib kelgan.

2. Terminologik leksika. Iste'mol doirasi chegaralangan leksikaning ikkinchi katta bir guruhini terminologik leksika tashkil qiladi. Terminologik leksika kasb-hunarga oid so'zlar va ilmiy atamalar majmuidan iborat bo'ladi.

O'zbekiston hududida qadimdan kasb-hunar rivojlanib kelgan. Xalqimiz kulolchilik, kashtachilik, misgarlik, etikdo'zlik, zargarlik, duradgorlik, pichoqchilik, degrezlik, egarchilik, tunukaso'zlik, taqachilik, do'ppido'zlik kabi hunarmandchilik

⁶⁵ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.

sohalari bilan shug'ullanib kelgan. Turli kasb tarmoqlari bilan mashg'ul bo'lish shu sohalarning o'ziga xos so'zlarining vujudga kelishiga, yaratilishiga sabab bo'lgan. Tilimiz kasb-hunarga oid so'zlarga nihoyatda boy. Kasb-hunar leksikasiga quyidagi sohalardan misollar keltirish mumkin: 1) temirchilik kasb-hunaridan: o'choq, otashdon, bozg'onchi, damgar, charxdor, charxkash, zo'g'ata, pesh, peshlash, tana, avra, to'ponchi, teruvgar, yog'lash, yog'lovchi, katta dam, kichik dam kabilar; 2) zargarlik kasb-hunaridan: tillaqosh, tillazulf, zebigardon, bo'yintumor, naychatumor, ko'kraktumor, quymauzuk, anjirbaldoq, qashqarbaldoq, zirak, aravabaldoq, tangajevak, zulukzira, avg'oncha uzuk singarilar; 3) pichoqchilik leksikasilan: gulqalam (pichoqni guldor qilib bezashda ishlatiladigan asbob), kesindi (bir dona pichoq yasash uchun mo'ljallab kesilgan temir bo'lak), qirov (pichoqni charxlaganda tig'ining ikkinchi tomonga qayrilib qolgan ensiz, mayin qismi), qayirmapichoq (tig'i qayriladigan pichoq), qabzagirak (pichoqni qistirib turib, charxga tutiladigan asbob), yulduztamg'a (qushpichoq tig'ining yuziga tushuriladigan naqshning bir turi), qushpichoq (pichoq turlaridan biri), qayqi (tig'ining uchi orqasiga sal qayirib yasalgan pichoq turi), qayirmapichoq (tig'i qayriladigan pichoq) singarilar.⁶⁶

Chegaralangan leksikaga oid so'zlarning yana bir guruhi ilmiy atamalardir. Ma'lum bir fan, san'at, texnikaga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ilmiy atamalar (terminlar) deyiladi. Mamlakatimizda fanning barcha sohalari har tomonlama taraqqiy etib bormoqda. Bu sohadagi o'sish, rivojlanish o'zbek tili leksikasini ilmiy atamalar bilan boyitmoqda. Har bir fan o'zining ilmiy atamalariga ega.

Ilmiy atamalarning yaratilishi, hosil qilinish yo'llari har xildir. Atamalar, birinchidan, oddiy muomaladagi so'zlardan yasaladi. Bunda oddiy muomaladagi so'zlar terminga xos xususiyat kasb etib, ma'lum fanning atamasiga aylanadi. Botanika sohasidagi gul, poya, ildiz, tomir; matematika sohasidagi chiziq, doira, asos, yuz, qo'shish, ayirish; anotomiya sohasidagi suyak, ichak, o'pka, jigar, qon terminlari shular jumlasiga kiradi. Ikkinchidan, ilmiy atamalar ona tilimizdagi so'z va qo'shimchalar yordamida termin yasash orqali vujudga keladi: bosim, uzgich, sig'im, birlik, uzoqlik kabilar. Uchinchidan, boshqa tillardagi terminlarni aynan olish yoki kalkalab o'zlashtirish vositasida atama hosil qilinadi: aksioma, koordinat, kompas, kislorod, meridian, materiya; chislovoe mnojestvo – sonlar to'plami, dekorativno'e rasteniya – manzarali o'simliklar, kvadratnoe uravnenie – kvadrat tenglama, zritelnaya os – ko'rish o'qi va boshqalar.

Tilimizda biror ijtimoiy guruh va to'dalar doirasida qo'llanuvchi so'zlar ham uchrab turadi. Ular jargon va argolar tarzida talqin qilinadi. Yuqori tabaqa vakillarining yashirin, dabdabali so'zlari jargonlar deyiladi. O'tmishda yuqori tabaqa kishilari o'z niyatlarini oddiy xalqdan yashirish maqsadida jargonlardan foydalanar edilar. Husni mutlaq (xudo), ne'mati jannat (mahbuba, yor), olampanoh (podsho), farmoni oliy shon (podsho farmoni), arkoni davlat (podsho, amir), tavaqqush aylang (umid bilan kuting), shoe qiling (bildiring), rijo va tamanno etaman (shunday qilishni

⁶⁶ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.

so`rayman), tanzin deng (foyda deng) singari so`z va iboralar jargonlarga misol bo`la oladi.

Sayoq sozandalar, o`g`rilar, bezorilarning yashirin so`zlari argolar deb yuritiladi. Bunday so`zlar keng xalq ommasi uchun tushunarli bo`lmaydi. Masalan, otarchilar argosiga otar (to`y), otarkas (to`y egasi), ocharchi (to`yni olib boruvchi), danap (o`yinchi xotin), yakan (pul), so`kichak (otarchilarni to`yga olib boruvchi mashina), so`kichakchi (shofyor), noyi, udak (to`yni to`xtatish) kabilarni; o`g`rilar, bezorilar argosiga deg`o (begona), harif (dushman), shabas (menga berib yubor), bedana (to`pponcha), loy (pul), ligavi (militsiya), zamri (jim tur), atanda (qoch) singarilarni misol qilib keltirish mumkin.⁶⁷

Jargon va argolar ko`pincha o`tkinchi bo`ladi. To`da va guruhlarining tarqalib ketishi yoki tugashi bilan jargon va argolar ham unutiladi.

16-ma`ruza. O`zbektili leksikasining emotsional-ekspressivlikka munosabati

Reja:

1. Hissiy bo`yoqsiz va hissiy bo`yoqdor so`zlar.
2. Hissiy bo`yoqdor so`zlarning yuzaga kelishi yo`llari.
3. So`zarda uslubiy xoslanish. Uslublararo so`zar va ularning so`z turkumlari jihatidan turlari.
4. Uslubiy xoslangan so`zar va ularning o`ziga xos xususiyatlari.

Tayanch iboralar: *hissiy bo`yoq, hissiy bo`yoqdor so`zlar, hissiy bo`yoqsiz so`zlar, ijobiy hissiy bo`yoq, salbiy hissiy bo`yoq, uslub, uslublararo so`zar, uslubiy xoslangan so`zar, badiiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, rasmiy uslub, og`zaki so`zlashuv uslubi, poetik so`z (poetizm).*

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –T.: 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: Фан, 1981.
4. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.
5. Абдуллаева А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. –Т.: Фан, 1983.
6. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. –Т.: Фан, 1981.

⁶⁷ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.

7. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi so'zlar so'zlovchining turli his-tuyg'ulari, kechinmalarini ifodalash xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) hissiy buyoqsiz so'zlar; 2) hissiy buyoqdor so'zlar.

Hissiy buyoqsiz so'zlar ma'lum narsa, belgi, harakat haqidagi tushunchani ifoda qiladi, leksik ma'noga ega bo'ladi, lekin ular so'zlovchining turlicha munosabatini bildiruvchi qo'shimcha ottenkaga ega bo'lmaydi. Er, non, tog', joy, kitob, husn, katta, ko'k, bormoq, etmoq, ko'karmoq, ishlamoq singarilar hissiy buyoqsiz so'zlardir.⁶⁸

Hissiy bo'yoqdor so'zlar leksik ma'no bilan birga so'zlovchining ma'nosi anglashilayotgan narsa, belgi, harakatga bahosini, turlicha munosabatini ham ifodalaydi. Chehra, tabassum, miriqmoq, do'mboq, momoqaymoq, badbashara, pismiqlik, kalla, bashara so'zlari hissiy buyoqdor so'zlar sanaladi.

Hissiy bo'yoqdor so'zlar voqea-hodisalarga so'zlovchining ob'ektiv munosabatini ifodalash nuqtai nazaridan ikki guruhga ajratiladi: 1) ijobiy hissiy bo'yoqdor so'zlar; 2) salbiy hissiy bo'yoqdor so'zlar.

Ijobiy hissiy bo'yoqdor so'zlar suyish, erkalash, hurmatlash singari ma'nolarni ifodalaydi. Bularga lobar, tanti, suluv, go'zal, alomat, do'ndirmoq, onajon, kenjatoy, dilbar, tamtam, toyloq so'zlarini kiritish mumkin. U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko'rmadi (M.Ismoilov). Ona bolasini bag'riga bosdi. Terlab tuproqqa qorishgan yuzlaridan o'par, yig'lar edi. Oh, bolaginam, bolaginam (S.Ahmad).

Salbiy hissiy bo'yoqdor so'zlar mensimaslik, nafratlanish, g'azab, kinoya, mazax, kamsitish, haqoratlash singari ma'nolarni bildiradi. Bularga kalla, lapashang, naynov, pismiqlik, bashara, irjaymoq, sanqimoq, likillamoq, vaysamoq, valdiramoq, satang, merov, chaqchaymoq, sulloh, jirillamoq so'zlari misol bo'la oladi. Ie, nega jirillaysan? Seni obketaman deydoyotganim yo'q-ku (O'.Hoshimov). Marat iljayib uning so'zlarini ma'qulladi (S.Abduqahhor).

Hissiy bo'yoqdor so'zlar 4 xil yo'l bilan: 1) s'yzning o'zi bilan; 2) affiksalar bilan; 3) so'zni metoforik qo'llash bilan; 4) kontekst yordamida ifoda qilinadi.⁶⁹

Birinchi usulda hissiy bo'yoq so'z negizining o'zi bilan ifodalanadi. So'zning o'z leksik ma'nosida aslan baholash elementi mavjud bo'ladi. Suluv, sohibjamol, jilmaymoq, bashara, turq, pismiqlik, satang so'zlarida hissiy bo'yoq shu yo'l bilan hosil qilingan.

Hissiy bo'yoq affiksatsiya usuli bilan ifodalanganda so'zga –cha, -xon, -jon, -gina, -loq, -chak, -toy singari qo'shimchalar qo'shiladi. Bunday qo'shimchalar erkalash, kichraytirish, ardoqlash, hurmat, e'zozlash singari ma'nolarni bildiradi. Bunday affiksli so'zlarda ijobiy munosabat anglashiladi: onaxon, dadajon, ayajon, qizgina, bolagina, toyloq, do'ndiqqina, kelinchak, erkatoy, kenjatoy kabilar. Munchalar shirinsiz, o'zimning oyijonginam, munchalar shirinsiz (S.Karomatov). Hammasi taxt, ayajon. Uy ham, ovqat ham bor (S.Ahmad). Alla aytay mehr bilan,

⁶⁸ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

⁶⁹ Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 2009.

uxlab qol, qo'zichog'im (folklor). Ha, etim toylog'im, qaysi go'rlarda besaru somon yo'qolib ketding (G'.G'ulom).

- cha affiksli oyimcha, xonimcha, do'ndiqcha, jononcha singari so'zlarda kinoya, kesatiq ma'nolari ham anglashishi mumkin. Ha, xonimcha, siz ham xo'jayinning yonini olasiz-da-a? (H.G'ulom).

So'zarda uslubiy xoslanish. Lug'at tarkibidagi so'zlar nutqqa, uslubga bo'lgan munosabatlariga ko'ra o'zaro farqlanadilar. Ma'lum bir so'zlar uslubga nisbatan betaraf munosabatda bo'lsa, ayrim so'zlar nutq uslubining biror turiga xos bo'ladi. Shu nuqtai nazardan leksikadagi so'zlar ikki turga bo'linadi: 1) uslublararo so'zar (uslubga nisbatan betaraf bo'lgan so'zlar); 2) uslubiy xoslangan so'zar.

Barcha nutq uslublarida birdek qo'llanaveradigan so'zlar uslublararo so'zar deyiladi. Bunday so'zarda uslubning biror turiga mansublik belgisi bo'lmaydi. Ular umumleksikaning asosini tashkil etadi. Suv, daraxt, tog', o'rmon, ko'z, quloq, tosh, g'alaba, bahor, daryo, tun, kun, ishonch, ikki, uch, besh, o'n, ming, katta, ulkan, hamma, qanday, tez, mo'l, uxlamog, gapirmog, ichmog kabilar uslubga nisbatan betaraf bo'lgan so'zardir.

Ma'lum bir nutq uslubiga oid bo'lgan, qo'llanishi asosan shu uslub doirasi bilan chegaralangan so'zlar uslubiy xoslangan so'zar deyiladi. Uslubiy xoslangan so'zar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) badiiy uslubga xoslangan so'zar; 2) ilmiy uslubga xoslangan so'zar; 3) publitsistik uslubga xoslangan so'zar; 4) rasmiy ish uslubiga xoslangan so'zar; 5) so'zlashuv uslubiga xoslangan so'zar.

Badiiy uslubga xoslangan so'zar rang-barang bo'lganligi bilan ajralib turadi. Bu uslubga xos so'zlar orasida she'riy nutqda qo'llanuvchi poetik so'zlar alohida o'rin egallaydi. Poetik so'zlar badiiy ta'sirchanlikni, obrazlilikni, tantanavorlikni, ko'tarinkilikni oshirish uchun xizmat qiladi. Poetik so'zlarga G'.G'ulom asarlarida uchraydigan mohro'y, eldosh, lolagun, lojuvard, charog'bon, arg'umoq, munis, shafaq, gulgun, sarin, bashar, daryodil, mahbub, charog' so'zlarini; Oybek asarlarida qo'llangan malak, nechun, hayxot, abad, farah, yog'du, nogahon, zarrin, ummon, sunbul, samo, hajr so'zlarini; H.Olimjon asarlarida uchrovchi yanglig', uzra, shuur, misli, nechun, tug'yon, bahoriy, jilvagar, malak, ichra, xotirot, otash, netmak so'zlarini; E.Vohidov asarlarida qayd qilingan nigoh, nido, hilol, falak, siyna, hargiz, rangin, surur, sarfarozi, nigoron, parivash, osuda, qamar, samovot, mohitabon, ishvanov, dilband, ufurmog, g'amguzor so'zlarini; A.Oripov asarlarida ishlatilgan xilqat, pokdomon, purviqor, mahvash, sargashta, og'ush, shukrona, beshak, samoviy, nasim, sarbaland, nisor, nechuk, soniya, poydor, sharora, turfa, yovqur singarilar misol bo'ladi.⁷⁰

Yuqorida keltirilgan poetik so'zlarning aksariyati hozirgi jonli nutqda ishlatilmaydi. Ular asosan poetik nutqda qo'llanishga xoslangan.

Ilmiy uslubga xoslangan so'zar ma'lum bir fan, texnikaga oid tushunchalarni ifodalovchi atamalardan iborat bo'ladi. Atamalar ilmiy uslubning asosini tashkil qiladi. Bunday so'zar ko'p hollarda tor doiradagi mutaxassislarga tushunarli bo'ladi. Ilmiy uslubga xoslangan so'zar jumlasiga tenglama, uchburchak, kvadrat, kub (matematika atamaları), ega, kesim, s'yz, semema, morfologiya, aniqllovchi

⁷⁰ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг систем лексикология асослари.. Т.: Ўқитувчи, 1995.

(tilshunoslik atamaları), ekvator, meridian, kompas, xarita (geografiya atamaları), oqsil, ishqor, simob (ximiya atamaları), temperatura, jism, magnit, bug'lanish, bosim (fizika atamaları), qofiya, vazn, she'r, turoq, tuyuq (adabiyotshunoslik atamaları) kabilarni kiritish mumkin.

Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan bosh maqolalar, murojaatnomalar, chaqiriqlar publitsistik uslub asosida yoziladi. Publitsistik uslub o'ziga xos maxsus so'zlarga ega. Qardoshlik, jamiyat, do'stlik, mehnat, zafar, huquq, oila, ittifoq, zarbdor, shior, davlat, musobaqa, sarlavha, ilg'or, ozodlik, baxt, konstitutsiya, mustaqillik, demokratiya, maqola singarilar publitsistik uslubga xoslangan so'zardir.

Rasmiy ish uslubi rasmiy-ma'muriy sohaga oid bo'ladi. Hukumat idoralarining qarorlari, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e'lon va xabarlar, shuningdek, ariza, tilxat, ma'lumotnoma, guvohnomalar rasmiy ish uslubida yoziladi. Rasmiy ish uslubiga xoslangan so'zarga qaror, buyruq, majlis bayoni (protokol), talabnoma, modda, tashkilot, ariza, akt, shartnoma singarilar kiradi⁷¹.

So'zlashuv uslubiga xoslangan so'zar oddiy, erkin muomalada qo'llaniladigan so'zlardan tashkil topadi. Bunday so'zar u yoki bu darajada adabiy til me'yorlariga to'la mos kelmaydigan fonetik, grammatik xususiyatlarga ega bo'ladi. Ketvorgan, po'rim, papalamoq, to'zim, lekigin, o'ng'ay, jichcha, boyoqish, mullajiring, o'lguday, ketdi-vordi, palakat, bevosh, bundaqa, axiyri, dalig'uli, ja, burnog'i, hali-hozir, asti, valakisalang, jillaqursa, o'lmang, yashang, o'lib-tirilib so'zlari so'zlashuv uslubiga xoslangan so'zar hisoblanadi. Misollar: O'lmang, juda tadbirli odamsiz-da! (Yashin). Biz tomonlarga kelganingiz esa zap yaxshi ish bo'ldi-da! (so'zlashuvdan). Tomorqadagi bir qator shaftolilarni silkib qoqadi-da, daraxtlar ostida cho'qqayib o'tirib, o'lguday eydi (Oybek).

So'zlashuv uslubiga xoslangan so'zarning ancha qismi hissiy bo'yoqqa ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

17-ma'ruza. Leksikografiya

Reja:

1. Lug'atshunoslik haqida umumiy ma'lumot.
2. Qomusiy (entsiklopedik) lug'atlar va ularning turlari.
3. Bir tilli lug'atlar va ularning turlari.
4. Ikki tilli va ko'p tilli tarjima lug'atlarining o'ziga xos xususiyatlari va turlari.

Tayanch iboralar: *lug'atshunoslik, lug'atchilik, leksikografiya, entsiklopedik lug'at, lingvistik (til) lug'atlari, bir tilli lug'at, ikki tilli lug'at, ko'p tilli lug'at, umumiy lug'atlar, maxsus lug'atlar, izohli lug'at, imlo lug'ati, omonimlar lug'ati, antonimlar lug'ati, frazeologik lug'at, atamalar lug'ati, etimologik lug'at,*

⁷¹ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

dialektologik lugʻat, morfem lugʻat, ters lugʻat, chastotali lugʻat, antroponimik lugʻat, toponimik lugʻat, paremiologik lugʻat, tarjima lugʻatlari.

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya. 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981.
4. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.
5. [www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

Lugʻatshunoslik tilshunoslikning lugʻat tuzish ishi bilan shugʻullanadigan maxsus bir sohasidir. Lugʻatchilikning nazariy va amaliy tomonlari bor. Lugʻat tuzishning ilmiy asoslari va tamoyillarini ishlab chiqish, lugʻat tiplarini belgilash, uni yaratish usullarini asoslab berish bu sohaning nazariy masalalari boʻlib hisoblanadi. Tilning soʻz boyligini toʻplash, lugʻat tuzish uchun kartotekalar tuzish va ularni tartibga solish kabilar lugʻatshunoslikning amaliy tomonidir.

Soʻzlarning maʼlum bir maqsad asosida toʻplangan va tartibga solingan hamda alfavit tartibida joylashtirilgan yigʻindisi lugʻat deyiladi. Lugʻatlar kitob shaklida yoki boshqa shaklda (chunonchi, qoʻlyozma shaklida) boʻlishi mumkin. Lugʻatlar maʼlum bir tilning soʻz boyligini aniqlashda, ularning maʼnolari va yozilishlarini koʻrsatib berishda, nutq madaniyatini koʻtarishda, umuman kishilarning madaniy hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Lugʻatlarning turlari koʻp. Avvalo lugʻatlar ikki asosiy tipga boʻlinadi: entsiklopedik lugʻatlar va lingvistik lugʻatlar.⁷²

Entsiklopedik lugʻatlarda soʻzning oʻzi yoki uning leksik maʼnosi, grammatik, uslubiy belgilari izohlanmaydi. Balki shu soʻz bilan atalgan tushuncha (narsa, hodisa, shaxs kabilar) haqida maʼlumot beriladi. Darhaqiqat, entsiklopedik lugʻatlar tushuncha lugʻatlari boʻlib, bularda ishlab chiqarish, fan, texnika, adabiyot, sanʼat, tabiat, tibbiyot, jamiyat va hokazolarning barchasiga oid muhim tushunchalar izohlanadi, shuningdek, geografik nomlar, yirik fan va madaniyat arboblari – olimlar, yozuvchilar, shoirlar, sanʼatkorlar; davlat arboblari, mehnat qahramonlari haqida birmuncha toʻliq maʼlumot berib oʻtiladi.

Entsiklopedik lugʻatlar ikki xil boʻladi: 1) umumiy entsiklopedik lugʻat va 2) biror sohaning entsiklopedik lugʻati. Umumiy entsiklopedik lugʻat barcha sohani oʻz ichiga qamrab oladi. Bunga 1971-1980 yillar davomida nashr etilgan 14 jildidan iborat “Oʻzbek entsiklopediyasi” misol boʻla oladi. Soʻnggi yillarda 12 jildga moʻljallangan “Oʻzbek milliy entsiklopediyasi”ni yaratish ustida qizgʻin ish olib borildi. Hozirgacha mazkur lugʻatning 10 jildi nashrdan chiqarildi. Soha entsiklopediyalari faqat bir sohaga oid boʻladi. Akademik T.Zohidovning 3 jildlik “Zoologiya entsiklopediyasi”, Q.Zokirov, H.Jamolxonovlarning “Botanikadan

⁷² Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

ruscha-o'zbekcha entsiklopedik lug'at'i, shuningdek "Uy-ro'zg'or buyumlari entsiklopediyasi", "Salomatlik entsiklopediyasi", "Bolalar entsiklopediyasi" kabilarni soha entsiklopediyasiga misol qilib ko'rsatish mumkin.⁷³

Lingvistik lug'atlar til lug'atlaridir. Lingvistik lug'atlarda asosiy e'tibor lug'aviy birliklarga qaratiladi va ular tilshunoslik nuqtai nazaridan har tomonlama izohlanadi.

Lug'atlar til leksikasidagi so'zlarni to'la qamrab olishi yoki til leksikasini ma'lum maqsadga ko'ra chegaralab aks ettirishi jihatidan ikki turga bo'linadi: 1) umumiy lug'atlar va 2) maxsus lug'atlar. Umumiy lug'atlarda tilning barcha leksikasi o'z aksini topadi. Izohli lug'at, imlo lug'ati, ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar umumiy lug'atlar sirasiga kiradi. Maxsus lug'atlar til leksikasining ma'lum bir qatlami asosida tuziladi. Bunday lug'atlarning so'zligi biror sohaga oid so'zlar bilan chegaralangan bo'ladi. Sinonimlar lug'ati, antonimlar lug'ati, frazeologik lug'at, terminologik lug'at, omonimlar lug'ati, toponimik lug'atlar maxsus lug'atlardir.

Lingvistik lug'atlar bir yoki bir necha til materialiga asoslanishi jihatidan bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli lug'atlarga bo'linadi.

Bir tilli lug'atlar. Bir tilli lug'atlar o'z til lug'atlari deb ham yuritiladi. Bir tilli lug'atlarda so'z va iboralar bir tilda (masalan, o'zbek tilida) izohlanadi. Bunday lug'atlar turli maqsadlarni ko'zlagan holda tuziladi. Shu maqsad nuqtai nazaridan ular quyidagi turlarga bo'linadi: 1) izohli lug'at; 2) talaffuz (orfoepik) lug'ati; 3) imlo lug'ati; 4) sinonimlar lug'ati; 5) omonimlar lug'ati; 6) antonimlar lug'ati; 7) frazeologik lug'at; 8) terminologik lug'at; 9) etimologik lug'at; 10) dialektologik lug'at; 11) morfem lug'at; 12) ters lug'at; 13) chastotali lug'at; 14) antroponimik lug'at; 15) toponimik lug'at; 16) paremiologik lug'at.

Tildagi so'z va iboralarning ma'nolarini izohlab, ularning grammatik va uslubiy xususiyatlarini yoritib beruvchi lug'atga izohli lug'at deyiladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" mualliflar jamoasi tomonidan yaratilib, 1981 yilda Moskvada "Rus tili" nashriyoti tomonidan chop etilgan. Bu lug'at ikki jildidan iborat bo'lib, o'z ichiga 60 ming so'zni qamrab olgan. Lug'atning umumiy hajmi 250 bosma taboqdan iboratdir. Lug'at yirik tilshunos olim Zokir Ma'rufov tahriri ostida nashr qilingan.

Izohli lug'atning bosilib chiqqaniga ancha vaqt bo'ldi. Bu davrda tilning leksikasi yangi so'zlar bilan boyidi, semasiologiya, lug'at tuzish tamoyillari bo'yicha bir qator tadqiqotlar yaratildi. Bularning barchasi izohli lug'atning to'ldirilgan, qaytadan ishlangan nashrini amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bois hozirda O'zRFA ning Til va adabiyot institutida o'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini yaratish borasida amaliy ish olib borilmoqda.

Tildagi so'zlarning mavjud imlo qoidalari asosida to'g'ri yozilishini ko'rsatib beruvchi lug'atga imlo lug'ati deyiladi. O'zbek tilida bir necha imlo lug'atlari yaratilgan. Bular jumlasiga Olim Usmonning "Imlo lug'ati" (1949), S.Ibrohimov va M.Rahmonovlarning "O'zbek adabiy tilining imlo lug'ati" va 1962 yilda chiqarilgan "O'zbek tilining qisqacha imlo lug'ati", S.Ibrohimov, E.Begmatov,

⁷³ Jamolxonov H. A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-qism. Leksikologiya va frazeologiya. Leksikografiya. T., 2004.

A.Ahmedovlarning “Fan” nashriyoti tomonidan 1976 yilda chop etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”ni kiritish mumkin. Keyingi lug‘at hajm jihatidan ancha katta bo‘lib, u 65 ming so‘zdan iboratdir. 1993 yildan lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi joriy etila boshlandi. 1995 yilning 24-avgustida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalar” tasdiqlandi. Shular asosida Sh.Rahmatullaev va A.Hojievlar “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”ni yaratdilar. Kitob “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan 1995 yilda 150 ming nusxada bosilib chiqdi. Imlo lug‘atlari barcha uchun birdek ahamiyatlidir. Kishilarning savodxonligini oshirishda uning o‘rni beqiyosdir.⁷⁴

Ikki tilli lug‘atlar. Ikki tilli lug‘atlarda biror tilga oid so‘z va iboralar boshqa tilga tarjima qilinadi. Shu bois bunday lug‘atlar tarjima lug‘atlari deb yuritiladi. Tarjima lug‘atlarining ikki tipi bor: 1) o‘z tildan o‘zga tilga tarjima lug‘atlari; 2) o‘zga tildan o‘z tilga tarjima lug‘atlari.

O‘z tildan o‘zga tilga tarjima lug‘atlariga namuna sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” (bosh muharrir- A.K.Borovkov, 1959), “O‘zbekcha-nemischa lug‘at” (mas’ul muharrir: S.Saidov, 1967), “O‘zbekcha-inglizcha lug‘at” (tuzuvchilar: J.Bo‘ronov, Y.A’loev, K.Rahmonberdievlar, 1969), “O‘zbekcha-nemischa o‘quv lug‘ati” (tuzuvchilar: Ya.R.Benyaminov, S.S.Saidov), “O‘zbekcha-arabcha so‘zlashgich” (B.Ibrohimov, 1995) va boshqalar.

O‘zga tildan o‘z tilga tarjima lug‘atlari birmuncha ko‘proq tuzilgan. Bunga professor V.V.Reshetovning “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” (1957), T.Aliqulovning “Ruscha-o‘zbekcha o‘quv lug‘ati” (1982), Ya.R.Benyaminov va T.Z.Mirsoatovlarning “Nemischa-o‘zbekcha lug‘at” (1964), J.B.Bo‘ronov, X.R.Rahmonberdiev, X.S.Barnoxo‘jaeva, E.A.Anisomovlarning “Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at” (1968), T.Aliqulov, D.Bozorovalarning “Frantsuzcha-o‘zbekcha lug‘at” (1973), S.A.Rizaev, E.R.Ro‘ziqulovlarning “Ispancha-o‘zbekcha lug‘at” (1977), A.Rustamov, Q.Karimov, Z.Umarovlarning “Forscha-o‘zbekcha o‘quv lug‘ati” (1975), E.Talabov, Q.Tashmetovlarning “Arabcha-o‘zbekcha lug‘at”i (1986) kabilar misol bo‘la oladi.

Ikki tilli lug‘atlarning ichida eng ko‘p tuzilgani o‘zbekcha-ruscha va ruscha-o‘zbekcha lug‘atlardir. Dastlab 1927 yilda K.K.Yudaxinning 9 ming so‘zli “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha lug‘at”i nashr etildi. 1931 yilda U.Ahmadjonov, B.Ilyazovlarning 10 ming so‘zdan iborat “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”i bosilib chiqdi. 1941 yilda professor T.N.Qori-Niyoziy va professor A.K.Borovkovlarning umumiy tahriri ostida 17 ming so‘zni o‘z ichiga olgan “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”i chop qilindi. 1959 yilda bu tipdagi lug‘atning ancha mukammali yaratildi. A.K.Borovkov bosh muharrirlik qilgan bu lug‘at 40 ming so‘zdan iborat edi. 1988 yilda O‘zbek entsiklopediyasi bosh redaksiyasi tomonidan “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”ning kengaytirilgan, to‘ldirilgan nashri bosib chiqarildi. S.F.Akobirov va G.N.Mixaylovlar tahriri ostida chop etilgan bu lug‘atga 50 mingga yaqin so‘z va iboralar kiritilgan.⁷⁵

O‘zbek lug‘atchiligi tarixida ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar ham bir necha bor nashr etilgan. 1927 yilda Ashurali Zohiriyning “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘ati” bosilib chiqdi. 1942 yilda professor T.N.Qori-Niyoziy va professor

⁷⁴ Раҳматуллаев Ш., Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг имло луғати. Т., Ўқитувчи, 1995.

⁷⁵ Jamolxonov H. A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2-qism. Leksikologiya va frazeologiya. Leksikografiya. T., 2004.

A.K.Borovkovlar mas'ul muharrirligida 30 ming soʻzlikka ega boʻlgan “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” yaratildi. Eng yirik va mukammal “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” 1950-1955 yillar davomida nashr etildi. Besh jildidan iborat boʻlgan mazkur lugʻat oʻz ichiga 72 ming soʻzni qamrab olgan. 1983-1984 yillarda Oʻzbek entsiklopediyasi bosh redaksiyasi tomonidan ikki jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” nashr qilindi. Birinchi jild 34650 soʻzdan, ikkinchi jild 32170 soʻzdan tarkib topgan.

Tarjima lugʻatlarining koʻpchiligini terminologik lugʻatlar tashkil etadi. Bunga namuna sifatida H.Hasanovning “Ruscha-oʻzbekcha, oʻzbekcha-ruscha geografiya terminlari lugʻati” (1964), N.Hotamov, B.Sarimsoqovlarning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati” (1983), A.A'zamov, E.Nazirovlarning “Atmosfera fizikasidan ruscha-oʻzbekcha terminlar lugʻati” (1972), Sh.Bayburova, N.Takanaevlarning “Pedagogikadan qisqacha ruscha-oʻzbekcha terminologiya lugʻati” (1963), O.Aminov, J.Doʻstmuhammedov, A.Usmonovlarning “Qisqacha ruscha-oʻzbekcha iqtisodiy terminlar lugʻati” (1971), Q.Z.Zokirov, M.M.Nabiev, Oʻ.Pratov, H.A.Jamolxonovlarning “Ruscha-oʻzbekcha botanika terminlarining izohli lugʻati” (1963) ni koʻrsatish mumkin.

Qayd qilingan lugʻatlar tarjima lugʻatlarining maxsus tipiga kiradi. Maxsus tipdagi bunday lugʻatlarga yana M.Sodiqovanning “Ruscha-oʻzbekcha frazeologik lugʻat” (1972), A.P.Hojiev, S.L.Kimning “Uzbeksko-russkiy sinonimicheskiy slovar” (1990) lugʻatlari misol boʻladi.

Koʻp tilli lugʻatlar. Bunday lugʻatlarda uch va undan ortiq tillarning soʻzlari tarjima qilib beriladi. Koʻp tilli lugʻatlar oʻtmishda koʻp yaratilgan. M.Zamaxshariyning 1128-1143 yillarda yaratgan “Muqaddimat-ul adab” lugʻati arab-fors-chigʻatoy tillari asosida tuzilgan. Muhammad Yaʼqub Chingiyning “Kelurnoma” nomli lugʻati turkiy-chigʻatoycha-forscha soʻzlardan tashkil topgan. Ishoqxontoʻra Ibratning “Sart tili lugʻati” deb nomlangan lugʻatida oʻzbekcha soʻzlar rus, arab, fors, turk, hind tillariga tarjima qilib berilgan.

Koʻp tilli lugʻatlar hozirgi paytda ham tuzilyapti. Lekin ularning asosiy qismi terminologik xarakterga egadir. Bunga A.A.Asqarov, H.Zohidovlarning “Lotincha-oʻzbekcha-ruscha normal anotomiya lugʻati” (1964), M.I.Umarxoʻjaev, Q.N.Nazarovlarning “Nemischa-ruscha-oʻzbekcha frazeologik lugʻat” (1994), D.Rashidova, M.N.Nigmatboevalarning “Nemischa-ruscha-oʻzbekcha ijtimoiy-siyosiy lugʻat”i, N.K.Ahmedov, Yu.A.Kulikovlarning “Anatomiya dan lotincha-oʻzbekcha-ruscha lugʻat” (1995), R.S.Sobirov, X.X.Xolmatov, V.Ch.Litvinenko, R.R.Sobirovlarning “Dorivor oʻsimliklarning lotincha-ruscha-oʻzbekcha-arabcha-forscha lugʻati” (1989) ni misol qilib keltirish mumkin.⁷⁶

Xullas, lugʻat-til xazinasidir. Tilning butun boyligi lugʻatlarda namoyon boʻladi. Lugʻatlar kishilarning madaniy saviyasini oshirishda, boshqa tillarni oʻrganishlarida alohida va muhim ahamiyat kasb etadi.

Lugʻatlarda soʻzlarni joylashtirish tartibi quyidagi uch tamoyilga tayanadi:

tashqi tartib;

ichki tartib;

maono tantibi; (semantik printsip).

⁷⁶ Jamolxonov H. A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 2-qism. Leksikologiya va frazeologiya. Leksikografiya. T., 2004.

1.Tashqi tartib soʻzning birinchi xarfiga – shu xarfning alifbodagi oʻrniga qarab belgilanadi:

Arpa
Banoras
Gavda
Vazir

2.Ichki tartib soʻzning birinchi xarfidan keyingi (ikkinchi, uchinchi va xokazo) xarflariga – shu xarflarning alifbodagi oʻrniga qarab belgilanadi. Bu tartibga birinchi xarfi bir xil boʻlgan soʻzlar-ni joylashtirishga amal qilinadi:

Lugʻatshunoslik tilshunoslikning lugʻat tuzish ishi bilan shugʻullanadigan maxsus bir sohasidir. Lugʻatchilikning nazariy va amaliy tomonlari bor. Lugʻat tuzishning ilmiy asoslari va tamoyillarini ishlab chiqish, lugʻat tiplarini belgilash, uni yaratish usullarini asoslab berish bu sohaning nazariy masalalari boʻlib hisoblanadi. Tilning soʻz boyligini toʻplash, lugʻat tuzish uchun kartotekalar tuzish va ularni tartibga solish kabilar lugʻatshunoslikning amaliy tomonidir.

Soʻzlarning maʼlum bir maqsad asosida toʻplangan va tartibga solingan hamda alfavit tartibida joylashtirilgan yigʻindisi lugʻat deyiladi. Lugʻatlar kitob shaklida yoki boshqa shaklda (chunonchi, qoʻlyozma shaklida) boʻlishi mumkin. Lugʻatlar maʼlum bir tilning soʻz boyligini aniqlashda, ularning maʼnolari va yozilishlarini koʻrsatib berishda, nutq madaniyatini koʻtarishda, umuman kishilarning madaniy hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Lugʻatlarning turlari koʻp. Avvalo lugʻatlar ikki asosiy tipga boʻlinadi: eksiiklopedik lugʻatlar va lingvistik lugʻatlar.

Entsiklopedik lugʻatlarda soʻzning oʻzi yoki uning leksik maʼnosi, grammatik, uslubiy belgilari izohlanmaydi. Balki shu soʻz bilan atalgan tushuncha (narsa, hodisa, shaxs kabilar) haqida maʼlumot beriladi. Darhaqiqat, ensiklopedik lugʻatlar tushuncha lugʻatlari boʻlib, bularda ishlab chiqarish, fan, texnika, adabiyot, sanʼat, tabiat, tibbiyot, jamiyat va hokazolarning barchasiga oid muhim tushunchalar izohlanadi, shuningdek, geografik nomlar, yirik fan va madaniyat arboblari – olimlar, yozuvchilar, shoirlar, sanʼatkorlar; davlat arboblari, mehnat qahramonlari haqida birmuncha toʻliq maʼlumot berib oʻtiladi.

Entsiklopedik lugʻatlar ikki xil boʻladi: 1) umumiy ensiklopedik lugʻat va 2) biror sohaning ensiklopedik lugʻati. Umumiy ensiklopedik lugʻat barcha sohani oʻz ichiga qamrab oladi. Bunga 1971-1980 yillar davomida nashr etilgan 14 jildidan iborat “Oʻzbek ensiklopediyasi” misol boʻla oladi. Soʻnggi yillarda 12 jildga moʻljallangan “Oʻzbek milliy ensiklopediyasi”ni yaratish ustida qizgʻin ish olib borildi. Hozirgacha mazkur lugʻatning 10 jildi nashrdan chiqarildi. Soha ensiklopediyalari faqat bir sohaga oid boʻladi. Akademik T.Zohidovning 3 jildlik “Zoologiya ensiklopediyasi”, Q.Zokirov, H.Jamolxonovlarning “Botanikadan ruscha-oʻzbekcha ensiklopedik lugʻat”i, shuningdek “Uy-roʻzgʻor buyumlari ensiklopediyasi”, “Salomatlik ensiklopediyasi”, “Bolalar ensiklopediyasi” kabilarni soha ensiklopediyasiga misol qilib koʻrsatish mumkin.

Lingvistik lugʻatlar til lugʻatlaridir. Lingvistik lugʻatlarda asosiy eʼtibor lugʻaviy birliklarga qaratiladi va ular tilshunoslik nuqtai nazaridan har tomonlama izohlanadi.

Lugʻatlar til leksikasidagi soʻzlarni toʻla qamrab olishi yoki til leksikasini maʼlum maqsadga koʻra chegaralab aks ettirishi jihatidan ikki turga boʻlinadi: 1) umumiy lugʻatlar va 2) maxsus lugʻatlar. Umumiy lugʻatlarda tilning barcha leksikasi oʻz aksini topadi. Izohli lugʻat, imlo lugʻati, ruscha-oʻzbekcha, oʻzbekcha-ruscha lugʻatlar umumiy lugʻatlar sirasiga kiradi. Maxsus lugʻatlar til leksikasining maʼlum bir qatlami asosida tuziladi. Bunday lugʻatlarning soʻzligi biror sohaga oid soʻzlar bilan chegaralangan boʻladi. Sinonimlar lugʻati, antonimlar lugʻati, frazeologik lugʻat, terminologik lugʻat, omonimlar lugʻati, toponimik lugʻatlar maxsus lugʻatlardir.⁷⁷

Lingvistik lugʻatlar bir yoki bir necha til materialiga asoslanishi jihatidan bir tilli, ikki tilli va koʻp tilli lugʻatlarga boʻlinadi.

Bir tilli lugʻatlar. Bir tilli lugʻatlar oʻz til lugʻatlari deb ham yuritiladi. Bir tilli lugʻatlarda soʻz va iboralar bir tilda (masalan, oʻzbek tilida) izohlanadi. Bunday lugʻatlar turli maqsadlarni koʻzlagan holda tuziladi. Shu maqsad nuqtai nazaridan ular quyidagi turlarga boʻlinadi: 1) izohli lugʻat; 2) talaffuz (orfoepik) lugʻati; 3) imlo lugʻati; 4) sinonimlar lugʻati; 5) omonimlar lugʻati; 6) antonimlar lugʻati; 7) frazeologik lugʻat; 8) terminologik lugʻat; 9) etimologik lugʻat; 10) dialektologik lugʻat; 11) morfem lugʻat; 12) ters lugʻat; 13) chastotali lugʻat; 14) antroponimik lugʻat; 15) toponimik lugʻat; 16) paremiologik lugʻat.

Tildagi soʻz va iboralarining maʼnolarini izohlab, ularning grammatik va uslubiy xususiyatlarini yoritib beruvchi lugʻatga izohli lugʻat deyiladi. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” mualliflar jamoasi tomonidan yaratilib, 1981 yilda Moskvada “Rus tili” nashriyoti tomonidan chop etilgan. Bu lugʻat ikki jildidan iborat boʻlib, oʻz ichiga 60 ming soʻzni qamrab olgan. Lugʻatning umumiy hajmi 250 bosma taboqdan iboratdir. Lugʻat yirik tilshunos olim Zokir Maʼrufov tahriri ostida nashr qilingan.

Izohli lugʻatning bosilib chiqqaniga ancha vaqt boʻldi. Bu davrda tilning leksikasi yangi soʻzlar bilan boyidi, semasiologiya, lugʻat tuzish tamoyillari boʻyicha bir qator tadqiqotlar yaratildi. Bularning barchasi izohli lugʻatning toʻldirilgan, qaytadan ishlangan nashrini amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bois hozirda OʻzRFA ning Til va adabiyot institutida oʻzbek tilining koʻp jildli izohli lugʻatini yaratish borasida amaliy ish olib borilmoqda.

Tildagi soʻzlarning mavjud imlo qoidalari asosida toʻgʻri yozilishini koʻrsatib beruvchi lugʻatga imlo lugʻati deyiladi. Oʻzbek tilida bir necha imlo lugʻatlari yaratilgan. Bular jumlasiga Olim Usmonning “Imlo lugʻati” (1949), S.Ibrohimov va M.Rahmonovlarning “Oʻzbek adabiy tilining imlo lugʻati” va 1962 yilda chiqarilgan “Oʻzbek tilining qisqacha imlo lugʻati”, S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Ahmedovlarning “Fan” nashriyoti tomonidan 1976 yilda chop etilgan “Oʻzbek tilining imlo lugʻati”ni kiritish mumkin. Keyingi lugʻat hajm jihatidan ancha katta boʻlib, u 65 ming soʻzdan iboratdir. 1993 yildan lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosi joriy etila boshlandi. 1995 yilning 24-avgustida “Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlandi. Shular asosida Sh.Rahmatullaev va A.Hojievlar “Oʻzbek

⁷⁷ Jamolxonov H. A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 2-qism. Leksikologiya va frazeologiya. Leksikografiya. T., 2004.

tilining imlo lug'ati"ni yaratdilar. Kitob "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan 1995 yilda 150 ming nusxada bosilib chiqdi. Imlo lug'atlari barcha uchun birdek ahamiyatlidir. Kishilarning savodxonligini oshirishda uning o'rni beqiyosdir.

Ikki tilli lug'atlar. Ikki tilli lug'atlarda biror tilga oid so'z va iboralar boshqa tilga tarjima qilinadi. Shu bois bunday lug'atlar tarjima lug'atlari deb yuritiladi. Tarjima lug'atlarining ikki tipi bor: 1) o'z tildan o'zga tilga tarjima lug'atlari; 2) o'zga tildan o'z tilga tarjima lug'atlari.

O'z tildan o'zga tilga tarjima lug'atlariga namuna sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: "O'zbekcha-ruscha lug'at" (bosh muharrir- A.K.Borovkov, 1959), "O'zbekcha-nemischa lug'at" (mas'ul muharrir: S.Saidov, 1967), "O'zbekcha-inglizcha lug'at" (tuzuvchilar: J.Bo'ronov, Y.A'loev, K.Rahmonberdievlar, 1969), "O'zbekcha-nemischa o'quv lug'ati" (tuzuvchilar: Ya.R.Benyaminov, S.S.Saidov), "O'zbekcha-arabcha so'zlashgich" (B.Ibrohimov, 1995) va boshqalar.

O'zga tildan o'z tilga tarjima lug'atlari birmuncha ko'proq tuzilgan. Bunga professor V.V.Reshetovning "Ruscha-o'zbekcha lug'at" (1957), T.Aliqulovning "Ruscha-o'zbekcha o'quv lug'ati" (1982), Ya.R.Benyaminov va T.Z.Mirsoatovlarning "Nemischa-o'zbekcha lug'at" (1964), J.B.Bo'ronov, X.R.Rahmonberdiev, X.S.Barnoxo'jaeva, E.A.Anisomovlarning "Inglizcha-o'zbekcha lug'at" (1968), T.Aliqulov, D.Bozorovalarning "Frantsuzcha-o'zbekcha lug'at" (1973), S.A.Rizaev, E.R.Ro'ziqulovlarning "Ispancha-o'zbekcha lug'at" (1977), A.Rustamov, Q.Karimov, Z.Umarovlarning "Forscha-o'zbekcha o'quv lug'ati" (1975), E.Talabov, Q.Tashmetovlarning "Arabcha-o'zbekcha lug'at"i (1986) kabilar misol bo'la oladi.

Ikki tilli lug'atlarning ichida eng ko'p tuzilgani o'zbekcha-ruscha va ruscha-o'zbekcha lug'atlardir. Dastlab 1927 yilda K.K.Yudaxinning 9 ming so'zli "Qisqacha o'zbekcha-ruscha lug'at"i nashr etildi. 1931 yilda U.Ahmadjonov, B.Ilyazovlarning 10 ming so'zdan iborat "O'zbekcha-ruscha lug'at"i bosilib chiqdi. 1941 yilda professor T.N.Qori-Niyoziy va professor A.K.Borovkovlarning umumiy tahriri ostida 17 ming so'zni o'z ichiga olgan "O'zbekcha-ruscha lug'at"i chop qilindi. 1959 yilda bu tipdagi lug'atning ancha mukammali yaratildi. A.K.Borovkov bosh muharrirlik qilgan bu lug'at 40 ming so'zdan iborat edi. 1988 yilda O'zbek entsiklopediyasi bosh redaksiyasi tomonidan "O'zbekcha-ruscha lug'at"ning kengaytirilgan, to'ldirilgan nashri bosib chiqarildi. S.F.Akobirov va G.N.Mixaylovlar tahriri ostida chop etilgan bu lug'atga 50 mingga yaqin so'z va iboralar kiritilgan.

O'zbek lug'atchiligi tarixida ruscha-o'zbekcha lug'atlar ham bir necha bor nashr etilgan. 1927 yilda Ashurali Zohiriyning "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'ati" bosilib chiqdi. 1942 yilda professor T.N.Qori-Niyoziy va professor A.K.Borovkovlar mas'ul muharrirligida 30 ming so'zlikka ega bo'lgan "Ruscha-o'zbekcha lug'at" yaratildi. Eng yirik va mukammal "Ruscha-o'zbekcha lug'at" 1950-1955 yillar davomida nashr etildi. Besh jildidan iborat bo'lgan mazkur lug'at o'z ichiga 72 ming so'zni qamrab olgan. 1983-1984 yillarda O'zbek entsiklopediyasi bosh redaksiyasi tomonidan ikki jildli "Ruscha-o'zbekcha lug'at" nashr qilindi. Birinchi jild 34650 so'zdan, ikkinchi jild 32170 so'zdan tarkib topgan.

Tarjima lug'atlarining ko'pchiligini terminologik lug'atlar tashkil etadi. Bunga namuna sifatida H.Hasanovning "Ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha geografiya

terminlari lug'ati" (1964), N.Hotamov, B.Sarimsoqovlarning "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati" (1983), A.A'zamov, E.Nazirovlarning "Atmosfera fizikasidan ruscha-o'zbekcha terminlar lug'ati" (1972), Sh.Bayburova, N.Takanaevlarning "Pedagogikadan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologiya lug'ati" (1963), O.Aminov, J.Do'stmuhammedov, A.Usmonovlarning "Qisqacha ruscha-o'zbekcha iqtisodiy terminlar lug'ati" (1971), Q.Z.Zokirov, M.M.Nabiev, O'.Pratov, H.A.Jamolxonovlarning "Ruscha-o'zbekcha botanika terminlarining izohli lug'ati" (1963) ni ko'rsatish mumkin.

Qayd qilingan lug'atlar tarjima lug'atlarining maxsus tipiga kiradi. Maxsus tipdagi bunday lug'atlarga yana M.Sodiqovanning "Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at" (1972), A.P.Hojiev, S.L.Kimning "Uzbeksko-russkiy sinonimicheskiy slovar" (1990) lug'atlari misol bo'ladi.

Ko'p tilli lug'atlar. Bunday lug'atlarda uch va undan ortiq tillarning so'zlari tarjima qilib beriladi. Ko'p tilli lug'atlar o'tmishda ko'p yaratilgan. M.Zamaxshariyning 1128-1143 yillarda yaratgan "Muqaddimat-ul adab" lug'ati arab-fors-chig'atoy tillari asosida tuzilgan. Muhammad Ya'qub Chingiyning "Kelurnoma" nomli lug'ati turkiy-chig'atoycha-forscha so'zlardan tashkil topgan. Ishoqxonto'ra Ibratning "Sart tili lug'ati" deb nomlangan lug'atida o'zbekcha so'zlar rus, arab, fors, turk, hind tillariga tarjima qilib berilgan.⁷⁸

Ko'p tilli lug'atlar hozirgi paytda ham tuzilyapti. Lekin ularning asosiy qismi terminologik xarakterga egadir. Bunga A.A.Asqarov, H.Zohidovlarning "Lotincha-o'zbekcha-ruscha normal anotomiya lug'ati" (1964), M.I.Umarxo'jaev, Q.N.Nazarovlarning "Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at" (1994), D.Rashidova, M.N.Nigmatboevalarning "Nemischa-ruscha-o'zbekcha ijtimoiy-siyosiy lug'at"i, N.K.Ahmedov, Yu.A.Kulikovlarning "Anatomiya dan lotincha-o'zbekcha-ruscha lug'at" (1995), R.S.Sobirov, X.X.Xolmatov, V.Ch.Litvinenko, R.R.Sobirovlarning "Dorivor o'simliklarning lotincha-ruscha-o'zbekcha-arabcha-forscha lug'ati" (1989) ni misol qilib keltirish mumkin.

Xullas, lug'at-til xazinasidir. Tilning butun boyligi lug'atlarda namoyon bo'ladi. Lug'atlar kishilarning madaniy saviyasini oshirishda, boshqa tillarni o'rganishlarida alohida va muhim ahamiyat kasb etadi.

Lug'atlarda so'zlarni joylashtirish tartibi quyidagi uch tamoyilga tayanadi:
tashqi tartib;
ichki tartib;
maono tantibi; (semantik printsip).

1.Tashqi tartib so'zning birinchi xarfiga – shu xarfiga alifbodagi o'rniga qarab belgilanadi:

Arpa
Banoras
Gavda

⁷⁸ Jamolxonov H. A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-qism. Leksikologiya va frazeologiya. Leksikografiya. T., 2004.

Vazir

2. Ichki tartib soʻzning birinchi xarfidan keyingi (ikkinchi, uchinchi va xokazo) xarflariga – shu xarflarning alifbodagi oʻrniga qarab belgilanadi. Bu tartibga birinchi xarfi bir xil boʻlgan soʻzlar-ni joylashtirishga amal qilinadi:

Arpa

Arra

Asal

Astar

3. Ma'no tartibi omonim yoki koʻp maʼnoli soʻzlarni joylashtirishda ishlatiladi. Bu tartibga koʻproq qomusiy lugʻatlarda amal qilinadi:

Oxangaron – daryo ...

Oxangaron – shahar ...

Chirchiq - daryo ...

Chirchiq – shahar ...

Izoh: Oxangaron va Chirchiq soʻzlari dastlab daryo nomi boʻlgan, keyinchalik shu daryolar yoqasida yuzaga kelgan shaharlarni nomiga aylangan. Bu xol daryo nomini oldin, shahar nomini esa keyin qoʻyishga asos boʻladi.⁷⁹

⁷⁹ Jamolxonov H. A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 2-qism. Leksikologiya va frazeologiya. Leksikografiya. T., 2004.

Fonetikadan amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi

1-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Hozirgi o'zbek adabiy tilining maqsad va vazifalari. Fonetika va fonologiya.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbek tiliga "Davlat tili" maqomining berilishi va uning ahamiyati haqida gapiring.
2. Adabiy til va uning shakllanishi haqida nimani bilasiz?
3. Adabiy til bosqichlari qanday?
4. Adabiy til me'yorlarini aytib bering.
5. O'zbek adabiy tilining bo'limlarini bilasizmi?
6. Fonetika, uning mohiyati, tahlil usullari va birliklari, vositalari haqida nimanini bilasiz?
7. Fonologiya va uning mohiyati. Fonema asosiy fonologik birlik sifatida.
8. Fonema va tovush orasidagi munosabat.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar:

1-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar adabiy tilning qaysi (yozma va og'zaki) shakli uchun xoslanganligini ayting.

... **San'atkor tajang** edi: **tanaffus** vaqtida zalga chiqqan edi, bir **traktorist** uni savodsizlikda **aybladi**. Unga **turib-turib nasha qilar edi**: "ashulani **mexaylistik** aytar emishman".

– Xizmatchisi **savod maktabida** o'qiyotgan bir kishini traktorist savodsiz, desa **alam qilmaydimi?** – dedi san'atkor o'zicha bo'g'ilib – "labingdan **bo'lsa olsam, e**, shakarlab" deganimu kishiga yoqmapti, "bo'lsa" emas "**bo'sa**" emish! O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar "**bo'sa, bo'masa**" deydi. Artist **kulturniy** odam – gapni adabiy qilib aytadi – "**bo'lsa, bo'masa**" deydi. **Pojarniy** "gugutni yerga tashlamang" **dedi**, rejissyorimiz esa "gugurtning yerga **tashamang**" dedi. Qanday chiroyli! **Pojarnimi, pojarningmi?** Shoshma, nima uchun pojarni? Pojarni, albatta! Rejissyorimiz juda kulturniy odam. Odam degan mana shunday bo'lsa, urishsa ham xafa bo'lmaydi kishi – ikki gapning birida "ta'bir joyiz ko'rilsa" deb turadi. Bu raktorist menga shuncha dashnom berib, ko'ngil uchun bir marta "ta'bir joiz ko'rilsa" demadi (Abdulla Qahhor).

2-mashq. O'qing va ko'chiring. Har bir so'zda nechta tovush va harf borligini aniqlang.

Ispan tiling ko'rkamligi, fransuz tilining burroligi, nemis tilining pishiqligi, italyan tilining jozibadorligi bor va bulardan tashqari, grek va latin tillarining boyligi va tasvir qilishdagi nihoyat darajada ixchamligi bor (M.Lomonosov).

3-mashq. Quyidagi uchta guruhga mansub bo'lgan so'zlarni toping va qatorni to'ldiring.

1. Hamma fonemalari bilan farqlanuvchi so'zlar (*bog', ko'l, it* kabi).
2. Bir xil fonemalarga ega bo'lgan so'zlar (*burchak, burgut, bulut* kabi).
3. Bir fonema kam yoki ortiq bo'lishi bilan farqlanadigan so'zlar (*osh-mosh, aziz-aziza, uyda-uydan* kabi).

2-amaliy mashg'ulot

Mavzu: O'zbek tili vokalizmi va konsonantizmi

Savol va topshiriqlar:

1. Qaysi belgilar unlilarning farqlovchi belgilari hisoblanadi?
2. Unlilarning qo'shimcha belgilarini ayting?
3. Farqlovchi, qo'shimcha belgi deyilishiga sabab nima?
4. Nazallik belgisini tushuntiring, nisollar keltiring.
5. Paradigma nima?
6. Sintagmatik munosabat qanday munosabat?
7. Unli fonemalarning fakultativ belgisi haqida nimani bilasiz?
8. Fonologik zidlanishlar qanday belgilar muhim ahamiyatga ega.
9. Qaysi belgilar undoshlarning farqlovchi belgilari hisoblanadi?
10. Undoshlarning qo'shimcha belgilarini ayting?
11. Distinktivlik qanday belgi?
12. Paradigma nima?
13. Sintagmatik munosabat qanday munosabat?
14. Fonologik zidlanishlarning qanday turlari mavjud?
15. Faringallik fonologik zidlanish uchun muhimmi? Lab, til oldilik, til o'rtalik, til orqalik, uvulyarlik belgilari-chi?
16. Undoshlarning paradigmatic munosabatini izohlang. Misol keltiring.
17. O'rin belgisiga ega bo'lish-bo'lmaslik belgisi qanday fonemalarni farqlash uchun fonologik muhim belgi hisoblanadi?

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar:

1-mashq. O'zbek adabiy tilining unli fonemalarini xarakterlab bering.

N a m u n a: i – unli, kenglik-torlik belgisiga ko'ra tor unli, labiallik belgisiga ko'ra lablashmagan unli.

u – ...

e – ...

o' – ...

a – ...

o – ...

2-mashq. So'zlarni o'qing, unlilarning kombinator variantlarini aniqlang va izohlang.

Vaqt, o‘qituvchi, jar, oranjereya, oftob, fikr, sirk, mototsikl, jabr, jazm, qand, go‘sh, stul, quloq-qulog‘i, sanchiq-sanchig‘i, tilak-tilagi.

3-mashq. Unlilarning kombinator variantlarini aniqlang va izohlang.

Bugun qirg‘iz adabiyotining ulkan bayram kuni. Chingiz chin ma‘nodagi dongdor, ulug‘, alp yozuvchi. Uning asarlari bilan yoshlik chog‘larimdan beri tanishman. Shundan beri men uni qattiq hurmatlaydigan bo‘ldim... U yozgan asarlarning mazmuni teran, obrazlari to‘laqonli, tili marvaridday toza.

4-mashq. Undosh tovushlarning fonologik nomuhim belgilari bo‘lgan miqdoriy va sifatiy belgilarini izohlang va misollar keltiring.

5-mashq. Nuqtalar o‘rniga "h" yoki "x" harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

...amma	ba...o	To...ir
...osil	va...ima	Mu...lisa
...ursand	va...shiy	Mu...sin
...alokat	...ikmat	Mo...im

6-mashq. O‘qing. Undoshlarning fonologik nomuhim miqdoriy belgisining so‘z ma‘nosini farqlashga ta‘sir ko‘rsatadigan va ko‘rsatmaydigan holatlarni aniqlang.

Tepa – teppa, maza – mazza, shaboda – shabboda, juda – judda, iki – ikki, tepasida – teppasida, isimoq – issimoq, sizzi – sizi, eshak – eshshak, boshingni yegur – boshshingni yrgur, maza qilmoq – mazza qilmoq, sasimoq – sassimoq.

3-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Segmentatsiya, intonatsiya, sillabema

Savol va topshiriqlar:

1. Segment birliklar va uning turlarini aytib bering.
2. Segmentatsiya nima?
3. Eng kichik segment birligi qaysi?
4. Ustsegment birliklar va uning turlarini izohlang.
5. Urg‘ular tizimi haqida nimani bilasiz?
6. Urg‘uli bo‘g‘inning boshqa bo‘g‘inning boshqa bo‘g‘inlardan farqi nimada?
7. O‘zbek tilida urg‘uning dinamik xususiyatini izohlang.
8. Umumiy qoidaga mos kelmaydigan holatlar qaysilar?
9. Urg‘u ma‘no farqlashga xizmat qiladimi?
10. Bosh urg‘u va ikkinchi darajali urg‘uni farqlab bering.
11. Takroriy so‘zlarda, ko‘makchili birikmalarda urg‘uning o‘rni haqida so‘zlang.

12. Ton, melodika, temp, intensivlik, pauza tushunchalarini izohlang.
13. Qanday intonatsiya turlarini bilasiz?
14. Bo'g'in va uning turlarini aytib bering.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar:

1-mashq. Quyidagi so'zlarni bo'g'inlarga ajratib yozing:

Bashang, taassurot, muammo, vazifa, baraka, nihol, yumaloq, yashil, yomg'ir.

2-mashq. Quyidagi so'zlarni bo'g'inlarga ajratib yozing (sillabatsiya – bo'ginga bo'lish jarayoni), bir tovushdan iborat bo'g'inlarni aniqlang. Bo'g'inlarning turlarini, tuzilishini izohlang.

San'at, ona, hikoya, ayol, matbuot, ziyorat, akasi, tabiiy, mudofaa, me'yor, abadiy, mutolaa, unum, maorif, taajjub, murojaat.

3-mashq. Quyidagi segmentlarni Potebnya formulasi (...12311...) asosida takt (sintagma) chegarasini belgilang.

Masalan, 1231323 ketma-ketligi berilgan va bunda taktning miqdori quyidagicha 1231/3/23, ya'ni birinchi takt to'rt bo'g'in bo'lib, uchinchi bo'g'in urg'uli bo'g'indir. Ikkinchi takt bir bo'g'indan iborat. Uchinchi takt ikki bo'g'indan iborat.

1. Humoyun tuni bo'yi alahlab behush yotdi (P.Q.). 2. Saroy tabiblari bu og'ir dardga hech bir davo topolmadilar (P.Q.). 3. Oyog'im zahga tegishi bilan tomog'im og'rishga tushadi (O'.H.). 4. Bir kuni akalarim bilan qorbo'ron o'ynab terlab ketdim (O'.H.). 5. Asalari bilan qovoqarilar gulli o'simliklarni changlatuvchi asosiy hashoratlardan biri hisoblanadi (Zoologiya kitobidan). 6. Ismoil Somoniy maqbarasi to'rtburchak shaklida qurilgan (Gazetadan). 7. O'quv va bilimning tarjimoni tildir (Yusuf Xos Hojib). 8. Ona Bayit qabristonining o'z tarixi bor (Chingiz Aytmatov). 9. Oradan bir kun o'tishi bilan jabrdiydalarning taqir boshida soch nish ura boshlaydi (Chingiz Aytmatov).

4-amaliy mashg'ulot

Mavzu: So'z tarkibidagi fonetik o'zgarishlar. Orfoepiya va orfografiya.

Savol va topshiriqlar:

1. Fonetik o'zgarishlarni tabiatiga ko'ra qanday turlarga ajratish mumkin?
2. Kombinator o'zgarishlar va ularning turlari haqida gapiring.
3. Pozitsion o'zgarishlar va uning turlari.
4. Fonetik moslashtirish va ularning sabablari.
5. Eliziya va aferezisni izohlang..
6. Agglyutinatsiya va fuziya hamda ularning o'zaro ta'sirini tushuntiring.
7. Grafika nima? Harf deb nimaga aytiladi?
8. Orfografiya nima?
9. Orfoepiya nima?
10. O'zbek orfografiyasining qanday tamoyillari bor?

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar:

1- mashq. Quyidagi misollardan kombinator, fakultativ variantlarni ajrating.

Bu kun - bugun, kuylak+i-ko‘ylagi; jilon-yilon-ilon; pishloq +i –pishlog‘i; juzum-yuzum-uzum; taroq+i – tarog‘i; yirik-irik; jur-yur; yog‘och-og‘och.

2- mashq. Quyidagi misollarda zidlanuvchi a‘zolar o‘rtasida qaysi farqlovchi belgilar neytralizatsiyaga uchragan.

N a m u n a: bop- bob: jarangli-jarangsizlik belgisiga ko‘ra zidlanuvchi a‘zolar

b-p kuchsiz pozitsiyada mo‘tadillashgan. Ya‘ni jarangli undosh jarangsiz undosh kabi talaffuz qilinadi.

Kavob- kabob, obot-obod, bark-barg, chortoq-chartog‘i, qovoq-qoboq, sovun-sobun, bu kun- bugun,

Navbahor, ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar,

Suhbat aylaylik, kelinglar, jo‘ralar, o‘rtoqlar.

3- mashq. Quyidagi misollarda eliziya va fuziyaga oid misollarni ajratib yozing. Ushbu hodisalarni izohlang.

Borolmoq – bora olmoq, yozolmoq – yoza olmoq, ong – angla, qashi –qashla, echkamar – echki emar, bekoyim – beka oyim, singil –singli, oltariq – oltiariq, qizil – qizar, o‘rin – o‘rni, shahar – shahri, burun – burni.

4- mashq. Unlilarning yumshoq va qattiq, cho‘ziq va qisqa talaffuz qilinishini hisobga olgan holda so‘zlarni o‘qing. Ularni orfoepik me‘yorga mos shaklda transcription hapf va shartli ifoda belgilari bilan yozing.

Uka, aka, bolg‘a, ega, hamma, qadr, bachkana, ta‘na, qarag‘ay, a‘zo, birga, to‘qqiz, ho‘kiz, og‘uz, gugurt, qiziq, tuyg‘u, butkul, bir, chit, pichan, kishi, qishqi, chuchuk, o‘quv, etak, kecha, kerak, bezbet, nonxo‘r, nonko‘r, qo‘riq, ko‘rik, g‘o‘ra, ulgurish, ulgurji.

5- mashq. Quyidagi so‘zlarni orfoepik me‘yorga muvofiq talaffuz qiling.

Tabiiy, shuur, boobro‘, matbaa, jamoa, maishat, muammo, inshoot.

Saodat, taom, suiste‘mol, soat, sanoat, taomil, faol, shior, shoir, faoliyat.

6- mashq. O‘qing. Har bir so‘zdagi b, d, g, j, z, g‘ undoshlarining orfoepik me‘yorga muvofiq jarangli va jarangsiz tarzda talaffuz qiling. Jarangsizlanishning o‘rni va sababini izohlab bering. Ushbu so‘zlar yordamida qisqa gaplar tuzing.

Talab – talaba – talabchan; madad – madadli – madadkor; bargli – bargsiz – bargak, ijrochi – ijtimoiy; sayoz – sayozlanish; maktab – maktabdosh – maktabxona; ulug‘ – ulug‘vor; urug‘ – urug‘chi – urug‘lik.

Leksikologiyadan amaliy mashg‘ulotlar

5-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Nazariy leksikologiya. Leksikologiya kursiga kirish.

Savol va topshiriqlar:

1. Tilning leksikologiya bo‘limi qanday masalalar bilan shug‘ullanadi?
2. Leksikologiyaning qanday turlari bor?
3. Leksikologiya tilshunoslikning qaysi bo‘limlari bilan aloqada bo‘ladi?
4. Nima sababdan so‘z tilning asosiy birligi deb ataladi?
5. So‘z, narsa va tushuncha orasidagi munosabatni izohlang.
6. Narsa va uni atovchi so‘z orasidagi bog‘liqlikni tushuntiring.
7. So‘zlar til birligi sifatida qanday vazifalarni bajaradi?
8. Tilning lug‘aviy sathi deganda nimani tushunasiz?
9. So‘z - signifikat – denotat tushunchalarini izohlang.
10. Leksik ma’no deganda qanday ma’noni tushunasiz?
11. So‘z va tushuncha xususida ma’lumot bering.
12. Leksik ma’no turlarini ayting.
13. So‘z ma’nosining ko‘chishi qanday usullar bilan ro‘y beradi?

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar:

1-mashq. So‘zlarni o‘qing. Har so‘zning leksik ma’nosini, nominativ (nomlash) xususiyatini izohlang.

Bibliograf, talaba, kafedra, guruh, madhiya, gazeta, ma’ruza, jurnalistika, bildirgi, sakkizta, barvasta, men, bastakor, avval, saxiy, baxil, bahs, ajriq, ayvon, munozara, amagi, ari, asov, bedana, bezatmoq, allanima, bo‘ron, tire, chiroyli, diyor, darchil, mana bu, dubulg‘a, emak, etmish, yoyiq, yoppasiga, jadval, jiyan, jiddiy, jilg‘a, jussa, ziyofat, ziroat, ikkilanmoq, injiq, in‘om, istiqlol, kulba, kashta, kimyogar, ko‘hna, huch bir.

2-mashq. Kiym-kechak, idish-tovoq, taom, meva va boshqa narsa turlari nomlariga bir necha misol topib, ma’nolarni izohlang. Izohlaringizni “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga qiyoslang.

3-mashq. Gazeta va jurnaldan ot, sifat, son, fe‘l va ravish turkumlariga mansub bir necha so‘z tanlab, ularning leksik va grammatik ma’nolarini namuna asosida izohlang.

6-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Leksemaning semantik tarkibi

Savol va topshiriqlar:

1. Leksemalar hosil bo'lishida qanday ma'no nozikliklari farqlanadi?
2. Leksik sistema qanday unsurlardan tashkil topgan?
3. Qanday semalar atash semasi sanaladi?
4. So'zning ifoda semasi deganda nima nazarda tutiladi?
5. Vazifa semalariga misollar keltiring.
6. Integral va differensial semalarning o'zaro farqini tushuntiring.
7. Atama nima? Boshqa leksik biliklardan qaysi jihatlariga ko'ra farqlanadi?
8. Atamalarning turlarini ko'rsating.
9. Uzual va okkazional ma'nolarning o'zaro farqini misollar orqali tushuntiring.
10. Leksik monosemiya va polisemiya.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar:

1-mashq. Adabiyotshunoslik faniga oid atamalarni izohi bilan ko'chiring.

N a m u n a: abjad hisobi – arab alifbosidagi harflarning har biri ma'lum songa tengli asosida yuritiluvchi hisob. Ya'ni arab harflarining har biri alifbo tartibida ma'lum sonni ifodalaydi.

Avtograf, adabiyot, adresat, aruz, allegoriya, anologiya, aforizm, bayoz, barmoq, badiha, ballada, bayt, band, janr, kompozitsiya, komil, konflikt, kontrast, kulminatsiya, mushoira, ramal, rukn, trilogiya, trop, ko'chim, faxriya, feleton, Ezop tili, sitata, chiston, xiazm, fosila, futurizm, figura, faxriya, so'ngso'z, syujet, stopa, strukturalizm.

2-mashq. *Semasiologiya, onomasiologiya, etmologiya, semema, nomema, denotat, determinlashish, okazional ma'no, monosemiya, polisemiya, kvazionimlar, giponimiya, graduonimiya, partonimiya* kabi atamalarning lug'aviy ma'nolarini izohlang.

3-mashq. Huquqshunoslikka oid atamalarning izohi bilan ko'chiring, yozilishiga ahamiyat bering.

Grant, deklaratsiya, demokratiya, dividend, dotatsiya, konstitutsiya, tender, viza (ruxsatnoma), arxiv, bankrot, interpol, kvorum, kvota, kongress, lizing, magistr, okrug, patent, reglament, sanatsiya, sanksiya, investitsiya, brifing, audit amnistiya, arbitaj, bojxona, devonxona, aksiya, marketing.

7-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Leksik ma'no taraqqiyoti. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti.

Savol va topshiriqlar:

1. Leksik polisemiya haqida ma'lumot bering.
2. Monosemiya hodisasi qaday lug'aviy birliklarga xos?
3. So'zlar til birligi sifatida qanday vazifalarni bajaradi?
4. So'zlar qanday ma'nolar anglatadi? To'g'ri va ko'chma ma'nolarni misollar yordamida izohlang.
5. Ko'p ma'nolilikka olib keluvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar haqida nima bilasiz?
6. Ma'no taraqqiyotining qanday yo'llari bor?
7. Metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik hodisalari tilning taraqqiyotida qanday rol o'ynaydi?
8. Metaforik ma'no qanday maqsadda yuzaga keladi?
9. Metafora bilan ko'p ma'nolilik qaysi jihatdan farq qiladi.
10. Metafora bilan omonimiya hodisasini o'zaro farqi va o'xshash tomonlarini izohlang.
11. O'rin-joy ma'nosini ifodalovchi metonimiyalarga misollar keltiring.
12. So'z ma'nolarining kengayish va torayish sabablarini tushuntiring. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti natijasida so'z va leksmalarning qanday qatlamlari shakllangan?
13. Umumturkiy so'zlar qanday so'zlar hisoblanadi?
14. Sof o'zbekcha so'zlar qanday yuzaga kelgan? Nima sababdan ular o'z qatlam birliklari sanaladi?
15. O'zlashgan qatlam qanday so'zlardan iborat?
16. Arab tilidan so'z o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida nimalarni bilasiz?
17. Fors-tojik tillaridan so'z o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablarini tushuntiring.
18. Rus tilidan so'z o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablar haqida gapiring.
19. Ruscha-baynalmilal so'zlarning so'z turkumlariga munosabatini tushuntiring.
20. So'z o'zlashtirishning qanday yo'llari va usllari mavjud?
21. Leksemalarni o'zicha olish va kalkalab olish haqida nimalarni bilasiz?
22. Kalkaning qanday turlari bor?
23. To'liq kalka, yarim kalka va semantik kalka haqida ma'lumot bering.
24. So'z o'zlashtirish va chet so'zlarni qo'llash hodisalari qanday baholanadi?

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar:

1-mashq. Berilgan ma'nodosh so'zlar qatoridagi qaysi so'z ijobiy, qaysi so'z salbiy ma'noni ifodalayotganini, qaysinisi betarf ekanligini aniqlang. Bu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va yozing.

Vaysamoq, shivirlamoq, javramoq, bayon etmoq. 2. Daydimiq, sanqimoq, tentiramoq, sakillamoq. 3. Kuldi, iljaymoq, irjaymoq, ishshaymoq, 4. Indamas, pismiqlik, ming'aymas, damduz. 5. Chiroyli, xunuk, badbashara, ko'rkam. 6. Bet, yuz, aft, chehra.

2-mashq. Berilgan soʻzlarni ikki ustunga boʻlib, avval omonim, keyin koʻp maʼnoli soʻzlarni koʻchiring. Ularning farqini shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzib izohlab bering.

Son, quloq, bosh, chang, bogʻ, qirq, quy, koʻk, tomir, ot, toy, oshiq, oylik, yozmoq, yoz, koʻz, soch, tirnoq, qoʻy, yoz, chaqmoq, yer, yuz, atlas, xosiyat, sir, son, nota, nor, mushak, yozmoq, savdo, pay, kadr.

3-mashq. Quyidagi frazeologik birikmalarning paydo boʻlishida zid maʼnoli soʻzlarning rolini tushuntiring.

Oq –qorani tanimoq, hayotning achchiq-chuchugini tatimoq, past-balandiga qarab muomala qilmoq.

4-mashq. Oʻzingiz mustaqil ravishda 5 ta arabcha, 5 ta forsha-tojikcha, 5 ta ruscha-baynalmilal soʻzlar topib, ular ishtirokida gap tuzing.

5-mashq. A.Navoiy va Bobur gʻazallaridan bir nechtasini oʻqib, oʻzbekcha, arabcha, forsha soʻzlarning qoʻllanish chastotasini aniqlang.

